- 1.1. Innovatsion faoliyat tushunchasi va uning paydo bo’lishi.
- 1.2. “Qishloq xo’jaligida innovatsion texnologiyalar” fanining predmeti, maqsadi va usullari.
- 1.3. Innovatsion faoliyatning iqtisodiy va ijtimoiy jihatlari.
- 1.4. Mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotida innovatsion rivojlanishning o’rni.

**Kalit so’zlar:** Innovatsiya, qishloq xo’jaligida innovatsion texnologiyalar, innovatsion faoliyat.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar.**

##### **Asosiy adabiyotlar**

1. Ergashev F., Rahimova D., Sagdullaev A., Parpiev O., Zaynutdinov SH. Innovatsion menejment. Darslik. -Toshkent.: "Akademiya", 2005.-326 b.
2. Вернакова Ю.Б., Симоненко Э.С. “Управление инновациями: Теория и практика”. Учебник. - М.: Высшее экономическое образование, 2008, - 410 с.
3. “Инновационный тип развития экономики” Учебник. / Под общей ред.А.Н. Фоломева. М.: РАНС, 2008, - 388 с.
4. Komiljonov B. I. “Innovatsiyaviy menejment uslublarini takomillashtirish”. Monografiya.- Tashkent, FAN, 2007.-186 b.
5. Gimush R.I., Matmurodov F.M. Innovatsion menejment. O’quv qo’llanma. – Toshkent: O’zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashryoti, 2008.- 143 b.

#### **Qo’shimcha adabiyotlar:**

1. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yil 22 oktyabrdagi “O’zbekistonda fermerlik faoliyatini tashkil qilishni yanada takomillashtirish va uni rivojlantirish chora-tadbirlari to’g’risida” PF-4478-sonli Farmoni. “Xalq so’zi” gazetasi. 2012 yil 23 oktyabr.
2. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 29 sentyabr kuni Namangan va Farg’ona viloyatlariga tashrifi doirasidagi “Islohatlar samaralari va ezgu maqsadlarimiz ijobati” ma’ruzasi./”Xalq so’zi” gazetasi. 2015 yil 30 sentyabr.
3. O’zbekiston Respublikasi Prezidentning 1992 yil 21 iyuldagagi «Fan va innovatsiya faoliyatini yanada rivojlantirish to’g’risida»gi PQ-337 –son Qarori. Manba: [www.lex.uz](http://www.lex.uz).
4. O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1993 yil 2 avgustdagagi «O’zbekiston Respublikasining davlat ilmiy-texnika siyosati ustuvor yo’nalishlari to’g’risida»gi 382-son Qarori. Manba: [www.lex.uz](http://www.lex.uz).
5. O’zbekiston Respublikasi Prezidentning 2002 yil 20 fevralda “Ilmiy tadqiqot faoliyatini tashkil etishni takomillashtirish to’g’risida”gi PF-3029-son Farmoni. Manba: [www.lex.uz](http://www.lex.uz).
6. O’zbekiston Respublikasi Prezidentning 2006 yil 7 avgustdagagi “Fan va texnologiyalar rivojlanishini muvofiqlashtirish va boshqarishni takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi PQ-436-son Qarori. Manba: [www.lex.uz](http://www.lex.uz).
7. O’zbekiston Respublikasi Prezidentning 2008 yil 15 iyuldagagi “Innovatsion loyihalar va texnologiyalarni ishlab chiqarishga tatbiq etishni rag’batlantirish borasidagi qo’shimcha chora-tadbirlar to’g’risida”gi 916-Qarori. Manba: [www.lex.uz](http://www.lex.uz).
8. O’zR VMning 2002-yil 4-martdagagi «Ilmiy-tadqiqot faoliyatini tashkil etishni takomillashtirish chora-tadbiriari to’g’risida»gi 77-son Qarori. Manba: [www.lex.uz](http://www.lex.uz).

9. “Инновационный тип развития экономики” Учебник. / Под общей ред. А.Н. Фоломева. М.: РАНС, 2008, - 388 с.

10. Мухамедьяров А.М. Инновационный менеджмент. Учебное пособие. – М.: Инфра-М, 2005.- 127 с.

11. Крылов Э.И. Анализ эффективности инвестиционной и инновационной деятельности предприятий/Учеб пос. 2-е изд. пере раб и доп.. –М.: Финансы и статистика, 2003, –605 с.

12. Барышева А.В. и др. Инновации: Учебное пособие./Болдин К.В., и другие. - М.: Дашков и К. 2008.-382 с.

#### **Internet saytlar:**

1. [www.samqxi.uz](http://www.samqxi.uz) – Samarcand qishloq xo’jalik instituti veb-sahifasi
2. [www.lex.uz](http://www.lex.uz) – O’zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi.
3. [www.uzreport.com](http://www.uzreport.com) – Axborot agentligi.
4. [www.agro.uz](http://www.agro.uz) – O’zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo’jaligi vazirligi.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar jarayoni xo’jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini sezilarli darajada o‘zgartirishni, ular faoliyatini bozor talablariga moslashtirishni talab qilmoqda. Bozor raqobati sharoitida ishlab chiqarish va xizmat ko’rsatish sohalarining samarali rivojlanishini ta’minlovchi innovatsion faoliyatni boshqarishga alohida e’tibor qaratishni talab qilmoqda.

Innovatsion faoliyat bozor munosabatlari sharoitida tadbirkorlikning ilg‘or shakli bo‘lib hisoblanadi. Bozor iqtisodiyoti fan-texnika taraqqiyoti uchun real imkoniyatlar yaratadi. Mamlakatimizda iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirishning muhim omili bo‘lgan innovatsiyalarga ustuvor y o ‘nalish sifatida e’tibor qaratilmoqda. Raqobatbardosh iqtisodiyotni shakllantirmasdan turib, raqobatbardosh mamlakatni barpo etish, tarmoqni, tovarni yaratish birmuncha mushkuldir. Bu xususda mamlakatimiz Prezidenti ta’kidlaganlaridek, «....raqobatdoshlikka erishish va dunyo bozorlariga chiqish, birinchi navbatda, iqtisodiyotni izchil isloh etish, tarkibiy jihatdan o‘zgartirish va diversifikasiya qilishni chuqurlashtirish, yuqori texnologiyalarga asoslangan yangi korxona va ishlab chiqarish tarmoqlarining jadal rivojlanishini ta’minalash, faoliyat k o ‘rsatayotgan quvvatlarni modernizatsiya qilish va texnik yangilash jarayonlarini tezlashtirish hisobidan amalga oshirilishi mumkin»<sup>1</sup>. Bulardan kelib chiqqan holda, dunyo bozorlariga chiqishda innovatsion texnologiyalaridan samarali foydalanish talab etiladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib aytish mumkinki, mahsulot ishlab chiqaradigan korxonalarda innovatsiondan samarali foydalanish bu faqat korxonada ishni tashkil etish va uni boshqarish emas, balki tovarlar raqobatbardoshligini oshirishga keng imkoniyatlar yaratadi.

Iqtisodiyotda innovatsiyalarning roli ortishi birinchidan, bozor munosabatlari tabiat bilan, ikkinchidan, barqaror o’sish yo’liga chiqish uchun mamlakat iqtisodiyotida chuqr islohotlarni amalga oshirish zarurati bilan belgilangan. Raqobat kuchayib borayotgan hozirgi sharoitda kompaniyalar “innovatsiya” tushunchasi bilan ko’proq to’qnash kelmoqda. Innovatsiyalarni yaratish bilan bevosita shug’ullanuvchi mutaxassislardan ushbu atama keng tarqalganini qayd etmoqdalar. Biroq amaliyot uning xaqiqiy ma’nosini hali hamma ham tushunib yetmaganini ko’rsatmoqda. Darhaqiqat, innovatsiyalar borasida so’z yuritishga qadar uning mohiyatini to’liq anglash muhim. O’zbekiston Milliy entsiklopediyasida innovatsiyaga (inglizcha “innovation”) kiritilgan yangilik, ixtiro ko’rinishida ta’rif berilgan va unga quyidagi izohlar keltirib o’tilgan:

<sup>1</sup> Karimov I. A. 2012-yil Vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko’taradigan yil bo‘ladi. - Т.: 0 ‘zbekiston, 2012. - 36-b.

- texnika va texnologiya avlodlarini almashtirishni ta'minlash uchun iqtisodiyotga sarflangan mablag'lar;
- ilmiy texnika-texnologiya, boshqarish va mehnatni tashkil etish kabi sohalardagi yangiliklar, shuningdek, ularning turli sohalar va faoliyat doiralarida qo'llanilishi, deb ta'rif berilgan.

Innovatsion rivojlanishning mohiyati va mazmunini o'rganishdan oldin "innovatsiya" iborasi to'g'risida tasavvur hosil qilish zarur. Ushbu tushuncha ingliz tilidan olingan bo'lib, "innovation", ya'ni yangilik, yangilik kiritish degan ma'noni anglatadi.

**Innovatsiya** - bu yangi texnologiyalarda mujassamlashgan yangi bilimlar, nou-xau, ishlab chiqarish omillarining yangi kombinatsiyalarini qo'llash bilan bog'liq, shuningdek yuqori bozor salohiyatiga ega bo'lган yangi vazifalarni bajara oladigan yangi mahsulotlar yaratish yoki destruktiv jarayonlarning salbiy oqibatlarini yo'kotish maqsadini o'z oldiga qo'ygan faoliyat yoki faoliyat natijasidir. Ya'ni, innovatsiyalarni g'oyalar, izlanishlar, ishlanmalar, yangi yoki mukammal ilmiy-texnik yoki ijtimoiy-iqtisodiy qarorlar transformatsiyasining natijasi sifatida qarash mumkin.

Demak, "innovatsiya" so'zi "yangilik" ("novatsiya") va "yangilik kiritish" (innovatsiya) ma'nolarini anglatadi.

Innovatsiyalar to'g'risidagi ilmiy qarashlar rivoji o'z tarixiga ega bo'lib, klassik, neoklassik maktab vakillari tomonidan izchil o'rganilgan. Klassik iqtisodiy maktab vakili, taniqli ingliz iqtisodchisi Adam Smit (1729–1790) iqtisodiy munosabatlarni tartibga solish va talab bilan taklif o'rtasidagi muvozanatni ta'minlash nafaqat bozor tizimi, balki narxlarni pasaytirish va sifatni yaxshilash orqali ortib borayotgan ehtiyojni qondirish bilan bir qatorda buni yangi texnologiyalarga o'tish, ya'ni innovatsiyalar yordamida samarali amalga oshiruvchi raqobat kapitalizmning tashkiliy mexanizmi bo'lib xizmat qilishini qayd etgan.

Agar iqtisodiy o'sishni ta'minlashda korxonalar innovatsiyalardan iste'mol uchun kurash jarayonida amaliy omil sifatida foydalanayotganini hisobga olsak, Adam Smitning ushbu ta'limoti hozirgi kunda ham dolzarbligini saqlab turibdi.

Innovatsion amaliyot ko'p ming yillardan buyon mavjud bo'lishiga qaramay, innovatsiyalarni ilmiy jihatdan maxsus o'rganish faqat XX asrda boshlandi. Rus iqtisodchisi N.D.Kondratev iqtisodiyotni yuksaltirishning innovatsion yo'li nazariyasini rivojlantirishga ulkan hissa qo'shdi. U innovatsiyalarni davriylikning sabablaridan biri sifatida qayd etgan.

Amerikalik iqtisodchi va jamiyatshunos Yozef Alois Shumpeter Kondratev singari iqtisodiyotda innovatsiyalarning rolini oshirishga katta hissa qo'shgan. U o'zining "Iqtisodiy rivojlanish nazariyasi" nomli asarida innovatsiyalarni iqtisodiyot va jamiyatni rivojlantirishning asosiy shartlari sifatida qaradi. Shumpeter "tadbirkorlikning innovatsion nazariya"sinи yaratdi va iqtisodiy rivojlanishda novator-tadbirkorning rolini yuqori baholadi, "innovatsiya" atamasini 1911 yilda ilmiy atamalar qatoriga kiritdi. U quyidagi beshta o'zgarishda tadbirkorlik ruhi bilan rag'batlantirilgan yangi fan-texnika omillari yig'indisini nazarda tutadi:

1. Yangi texnika, yangi texnologik jarayonlar yoki ishlab chiqarishning yangicha bozor ta'minotini qo'llash.
2. Yangi xususiyatlarga ega mahsulotni joriy qilish.
3. Yangi xom ashyodan foydalanish.
4. Ishlab chiqarishni tashkil qilish va uning moddiy-texnika ta'minotidagi o'zgarishlar.
5. Yangi bozorlarining paydo bo'lishi.

Demak, Shumpeterning fikriga ko'ra, tadbirkorlarning roli yangi tovarlar ishlab chiqarish va eski tovarlarni yangi uslubda ishlab chiqarish uchun ixtirolardan foydalanib, yangi xom ashyo va materiallar manbalari yoki yangi bozorlarni ochib hamda sohani qayta tashkil etgan holda ishlab chiqarishni isloq qilish va inqiloblashtirishdan iborat. O'sha davrda temir yo'llar qurilishi boshlanishi, elektr energiyasi ishlab chiqarish, avtomobilsozlik rivoji kabilalar tadbirkorlarning yangiliklardan foyda olishiga intilishiga yorqin misol bo'la oladi.

Saymon Kuznetsning Nobel mukofotiga sazovor bo'lган ma'ruzasi innova-tsialarning iqtisodiy o'sish bilan o'zaro bog'liqlik muammosiga bag'ishlangan. Unda innovatsiyalar nazariyasiga Yozef Shumpeter g'oyalarini rivojlantiruvchi qator yangi yondashuvlar qayd

etilgan, ya’ni birinchidan, Saymon Kuznets bitta tarixiy davrdan ikkinchisiga o’tish asosini tashkil qiladigan “davriy” tushunchasini joriy etdi.

Ikkinchidan, industrial davrda iqtisodiy o’sish sur’atlarini inqilobiy jadallashtirish, uning fikriga ko’ra, davriy yangilik bilan bog’liq ilm-fanni jadal rivojlantirish o’sishning yangi manbaiga aylandi.

Iqtisodchi olimlar qarashlari asosida innovatsiyalarning mazmuni, mohiyatini anglab olgan holda aytish mumkinki, innovatsion iqtisodiyot jamiyat uchun foydali har qanday innovatsiyalardan (patentlar, litsenziyalar, nou-xau, o’zlashtirilgan yoki shaxsiy yangiliklar, yangi texnologiyalar va hokazolar) samarali foydalanishga qodir iqtisodiyotdir.

Yangiliklarni joriy etish iqtisodiy hayotdagи yanada muhim holat bo‘lib bormoqda. Hozirgi tez o‘zgaruvchan sharoitda korxonalar texnik o ‘zgarishlar bilan bir qatorda, ilg‘or bo‘lishlari va yangiliklarni muvaffaqiyatli tatbiq etishlari zarur. Yangiliklarni joriy etish ulaming dastlabki baholanishiga asoslanishi lozim. Bunday baholashning uslubiy asosini yaratish uchun, birinchi navbatda, jami innovatsion jarayonga ta’sir etuvchi va natijada u yoki bu innovatsiyalarning samaradorligini belgilab beruvchi omillarning majmuasini aniqlash lozim.

### **Innovatsiyalarni paydo bo‘lishining ikki yo’nalishi**

- Bozor ehtiyoji, ya’ni qandaydir tovar yoki xizmatga bo’lgan talab. boshqacha aytganda, bu - bozor ehtiyojlariga beriladigan javob yoki marketing varianti hisoblanadi. Masalan, bunday o‘zgarishlar tarkibiga ishlab chiqarish harajatlarini kamaytirishga yoki mahsulotga «tovar» ko’rinishini berishga yordam beruvchi o‘zgarishlarni kiritish mumkin.
- «Kashfiyotchilik» (intellektual faoliyat)- bu odamning bozorda mavjud bo’lmagan talabni qondirishga yo’naltiriladigan yangi mahsulotni yaratish borasidagi intellektual faoliyatidir. boshqacha aytganda, bu - yangi bozorni yaratish faoliyatidir

Rivojlanishning innovatsion tipi (ingl. Innovation model of development) – ijtimoiy ishlab chiqarishda yangi ilg‘or texnologiyalarga urg‘u berish, yuqori texnologiyalar asosida mahsulotlar ishlab chiqarish, mikro va makroiqtisodiy jarayonlarda ilg‘or tashkiliy va boshqaruv qarorlarini qabul qilish - texnopark , texno polis, kam energiya talab etadigan texnologiyalardan foydalanish siyosati, ishlab chiqarish faoliyatini intellektualashtirish, iqtisodiyotni softlashtirish va servislashtirish bilan tavsiflanadi.

1-jadval

### **Innovatsiyalar klassifikatsiyasi**

Klassifikatsiya mezoni	Innovatsiyalarning klassifikatsion guruhlanishi
Innovatsiyalarni qo’llash sohalari	boshqaruv, tashkiliy, ijtimoiy, sanoat va hokazo
Natijasi innovatsiya bo’lgan fan-texnika taraqqiyoti bosqichlari	ilmiy, texnik, texnologik, konstrukturlik, ishlab chiqarish, axborot
Innovatsiyalarning intensivlik darajasi	bir me’yorli, sust, ommaviy
Innovatsiyalarni joriy etish sur’atlari	tez, sekin, so’nayotgan, o’sayotgan, bir me’yorli, to’lqinsimon
Innovatsiyalar masshtablari (doiralari)	transkontinental, transmilliy, hududiy, yirik, o’rtacha, mayda yoki kichik

Innovatsiyalar natijaviyligi	yuqori, past, bar qaror
Innovatsiyalar samaradorligi	iqtisodiy, ijtimoiy, ekologik, integral

Innovatsion rivojlanishning metodologik bazasining majburiy elementi sifatida ilmtalab ishlab chiqarishning rivojlanishi darajasi va iqtisodiyotga intellektual resurslarni jalg etish darajasini qayd etish mumkin.

**Innovatsion faollikni 3ta daraja bo'yicha tahlil etish mumkin:**

1. **Global darajada** – mamlakatlarning geografik va sotsial-iqtisodiy mezonlariga qarab.
2. **Milliy darajada** – ma'lum bir mamlakatning rivojlanganlik holati, mavjud muammolar hamda taraqqiyotning kuchli va kuchsiz tomonlariga qarab.
3. **Hududiy darajada** – mamlakat xududlarining farqlanishiga qarab.

**Iqtisodiy rivojlangan mamlakatlar innovatsion rivojlanishi modellarining uch turi farqlanadi:**

1. Fanda peshqadamlilikka, ilmiy ishlab chiqarish jarayonining barcha bosqichlarini qamrab oladigan, qoida tariqasida, ilmiy-innovatsion imkoniyatlarning mudofaa sektoridagi ulushi ancha katta bo'lgan keng ko'lamli maqsadli loyihalarni amalga oshirishga qarab mo'ljal oladigan mamlakatlar (AQSH, Angliya, Fransiya).
2. Innovatsiyalarni tarqatish, qulay innovatsion muhitni yaratish, iqtisodiyot strukturasini oqilonalashtirishga qarab mo'ljal oladigan mamlakatlar (Germaniya, Shvetsiya, Shveytsariya)
3. Innovatsion infratuzilmani rivojlantirish, jahon ilmiy-texnika taraqqiyoti yutuqlariga ta'sirchanlikni ta'minlash, fan va texnologiyalar sohasida turli sektorlarning harakatlarini muvofiqlashtirish yo'li bilan innovatsiyalarni rag'batlantiruvchi mamlakatlar (Yaponiya, Janubiy Koreya).

Iqtisodiyotning innovatsion taraqqiyoti - bu intellektual salohiyat, ishchi va xizmatchilarning kreativ imkoniyatlari, bilimlari, tovar yaratishdan tortib uni ishlab chiqaruvchidan iste'molchiga yetib borgungacha barcha bosqichlar bo'lib, bundagi innovatsiyalar korxona strategik rivojlanishining asosiy resursi bo'lib xizmat qiladi.

Bugungi sharoitda innovatsion, aynan bilimlarga asoslangan, malakali ishchi kuchini o'zida mujassam etgan yuqori fan sig'imiga ega bo'lgan texnologik iqtisodiyot raqobatbardosh bo'ladi. Innovatsion taraqqiyotda innovatsiyalarning chiziqli modeli bu ishlab chiqilgan fundamental ilmiy g'oyalar amaliy tadqiqotlar bilan bog'liqda bo'lishini anglatadi.

Ayni paytda innovatsiyalarning ko'p sonli manbalari modelida innovatsiyalar innovatsion tizimning istalgan qismida yuzaga kelishi mumkin.

Mamlakatimiz iqtisodiyotida qishloq xo'jaligi tarmog'inining ahamiyati juda katta. Chunki respublikamiz aholisining yarmi qishloq joylarda istiqomat qiladi va ularning turmush farovonligi mazkur tarmoq rivoji bilan uzviy bog'liqidir. Bundan tashqari mamlakatimiz yalpi ichki mahsuloti va valyuta tushumi tarkibida ham qishloq xo'jaligi tarmog'i sezilarli salmoqqa ega. Qishloq xo'jaligi tarmog'i aholini oziq-ovqat mahsulotlari bilan hamda sanoatning ayrim sohalarini xomashyo bilan ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. Endilikda aholi soni va ehtiyojlarining o'sishi hamda qayta ishlash sanoati quvvatlarining yuksalishi qishloq xo'jalik mahsulotlari yetishtirish hajmini yanada ko'paytirishni obyektiv ravishda taqozo etmoqda. Shuning uchun ham mazkur tarmoqni rivojlantirish va samaradorligini oshirish zarur.

*Innovatsiyalarni joriy etish korxonalar raqobatdoshligini oshirish, ularning iqtisodiy mustaqilligi va bozordagi mavqeini mustahkamlashning asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Shuni inobatga olib, so'nngi yillarda mamlakatimizda ilmiy-texnik va innovatsion salohiyatni saqlash hamda rivojlantirish yuzasidan bir qator maqsadli ishlar amalga oshirilmoqda. Ma'lumki, innovatsion faoliyat ishlab chiqarish va boshqa sohalar ehtiyojlarini qondirishning muhim uslublaridan biri sifatida foydalaniladigan mahsulotlarning sifat o'zgarishlari, faoliyat vositalari va uslublarini yangilash yo'li bilan amalga oshiriladi. Mamlakat raqobatdoshligini*

baholash ko'rsatkichlariga ko'ra, tabiiy va iqlim resurslaridan oqilona foydalanish, jamg'arilgan boyliklardan o'z o'rnida foydalanish, investitsiyalarni faol jalb qilish, innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash tamoyillariga asoslangan boshqaruv siyosatini amalgaga oshirish kabi omillar korxonalar rivojlanishining asosiy strategiyasi hisoblanadi. Hozirgi kunda ilmiy-texnik taraqqiyot va bozor ehtiyojlari mahsulot nomenklaturasi va sifatiga yangi talablarni shakllantirgan holda, talab va taklif kon'yunkturasida muhim o'zgarishlarning yuz berishiga olib kelmoqda. Shu munosabat bilan ishlab chiqarish faoliyatining deyarli barcha sohalarida innovatsiyalarga istiqbolli rivojlanish vositasi sifatida qiziqish yanada oshadi. Korxonalarni boshqarish amaliyotida bunday strategiyaning shakllanishi innovatsion jarayonlarni samarali boshqarish tizimlarini yaratish zaruriyatini yanada kuchaytiradi. Innovatsiya va yangiliklar innovatsion faoliyat natijasida yuzaga keladi, ular o'zaro bog'liq tushunchalar bo'lib, biri ikkinchisining mavjudligini taqozo etadi. Ularning asosiy farqi shundaki, birinchi holatda yangi mahsulot shakllanishi jarayoni ro'y bersa, ikkinchisida — uni tijoratlashtirish jarayoni amalgaga oshiriladi. Innovatsiyalarni keng yoyish — axborot jarayoni bo'lib, uning shakli va tezligi kommunikatsiya kanallarining quvvati, xo'jalik sub'ektlari tomonidan axborotni qabul qilish xususiyatlari, ushbu axborotdan amaliy foydalanishga bo'lган qobiliyat va hokazolarga bog'liq. Chunki real iqtisodiy muhitda faoliyat yurituvchi xo'jalik subyektlarining innovatsiyalarni izlashga bo'lган munosabati va ularni o'zlashtirish qobiliyati turlicha bo'ladi. Innovatsiyaviy jarayonlarning iqtisodiy rivojlanishdagi roli texnologik bazani yangilash, yangi mahsulotlar ishlab chiqarish, yangi bozorlarni egallah va bu bilan iqtisodiy o'sishning yanada yuqori sur'atlariga erishishda o'z aksini topadi. Shuningdek, innovatsion rivojlanish omillari zamonaviy bosqichdag'i iqtisodiy o'sishning asosini tashkil etgan holda, ishlab chiqarish sohasining ko'pgina xususiyatlarini ham belgilaydi. Davlat innovatsion jarayonlar rivojlanishini maxsus hukumat investitsiyaviy jamg'armalari orqali imtiyozli sharoitlarda kreditlash, istiqbolli sohalarga nisbatan milliy iqtisodiyotni himoya qilish siyosatini amalgaga oshirish, notijorat tadqiqot institutlarini qo'llab-quvvatlash va kompaniyalarni ilmiy tadqiqotlar maqsadida soliqlardan ozod etish yo'llari bilan rag'batlantirishi mumkin. Hozirgi kunda xalqaro ilmiy-texnik va savdo munosabatlarining rivojlanishi ko'pgina mahsulotlar bozorining globallashuvi, xalqaro mehnat taqsimoti hamda turli xil alyanslar va qo'shma korxonalar yaratilishi bilan bog'liq. Shu bilan birga, «inson resurslarini» boshqarish innovatsion siyosatni amalgaga oshirishning so'nggi bo'g'ini bo'lib, samaradorlikni va ish sifatini oshirish masalalarini hal etishga xodimlarning keng doirasini jalb etishni taqozo etadi. Qaysi bir davlat eng samarali innovatsiyaviy mexanizmga va innovatsiyalarni amalgaga oshirishning rivojlangan infratuzilmasiga ega bo'lsa, aynan shu davlat jahon bozoridagi raqobat kurashida muvaffaqiyatga erishadi. Hozirgi kundagi ilmiy-texnik taraqqiyotning bir qismi sifatida e'tirof etiladigan ilmiy-texnik innovatsiyalar — iqtisodiyotni jonlantiruvchi va uning raqobatdoshligini saqlab qoluvchi kuch hisoblanadi. Innovatsiyaviy faoliyatni rivojlanirish uchun tarmoq infratuzilmalarining katta imkoniyatlari mavjud ekanligini anglagan holda rivojlangan davlatlar hukumatlari innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlashni davlat siyosati darajasida amalgaga oshirmoqdalar. Davlat tomonidan innovatsion faoliyatni qo'llab-quvvatlash uchun yaratilgan tashkiliy shaklga misol tariqasida, Frantsiya sanoat vazirligi qoshida faoliyat yurituvchi INOVA assotsiatsiyasini keltirish mumkin. Tarmoq tuzilmasi sifatida yaratilgan ushbu assotsiatsiya tarkibiga 40 ga yaqin korxona va tashkilotlar kirib, ularning deyarli yarmi tarmoq tuzilmalaridan iborat. Innovatsion loyihalarni amalgaga oshirish orqali yuqori texnologiya sohalari rivojlangan mamlakatlar orasida AQSH katta salohiyatga ega. Ushbu mamlakatda yiliga o'rta hisobda 390 milliard AQSH dolları atrofida innovatsiya va inson kapitali uchun moliyaviy mablag' ajratiladi. Yaponiyada esa YAIMning 3 foizi ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstrukturlik ishlariga ajratilmoqda. Ma'lumotlarga ko'ra, innovatsion faoliyat bilan shug'ullanayotgan yaponiyaliklarning 13 foizi fundamental, 25 foizi amaliy hamda 62 foizi tajriba-konstrukturlik ishlariga jalb qilingan. Xitoy, Germaniya, Frantsiya, Isroiil, Hindiston, Rossiya kabi iqtisodiyoti rivojlangan xorijiy mamlakatlar inson manfaatlariga xizmat qiladigan innovatsion rivojlanish strategiyalarini ishlab chiqib, amalga tatbiq etib kelmoqdalar.

O'z o'rnida shuni ham ta'kidlash joizki, mamlakatimizda ham innovatsion loyihalar va texnologiyalarni amalga tatbiq etish bo'yicha tizimli ishlar yo'lga qo'yilgan. Bu borada Prezidentimizning 2008 yil 15 iyulda qabul qilingan "Innovatsion loyihalar va texnologiyalarni ishlab chiqarishga tatbiq etishni rag'batlantirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori O'zbekistonda innovatsion taraqqiyot jarayonlarini yanada jadallashtirishga xizmat qilmoqda. SHunisi e'tiborliki, bu borada yoshlar alohida jonbozlik ko'rsatib, ilm-fan olamiga o'z loyiha va ishlanmalarini taqdim etmoqdalar. Ushbu qarorga muvofiq, har yili yurtimizda Innovatsion g'oyalar, texnologiyalar va loyihalar respublika yarmarkasi o'tkazib kelinmoqda. Joriy haftada o'tkazilgan Innovatsion g'oyalar, texnologiyalar va loyihalar VIII respublika yarmarkasi doirasida ilk marotaba xalqaro innovatsiya forum tashkil etildi. O'nlab mamlakatlardan olimlar va mutaxassislar, nufuzli xalqaro tashkilotlar vakillari ishtirot etgan mazkur forum O'zbekistonning innovatsiya sohasida erishayotgan ulkan yutuqlari bilan tanishish, o'zaro bilim va tajriba almashish, hamkorlik aloqalarini yanada kengaytirish imkonini berdi. Fransiyadagi dunyoning eng nufuzli beshta biznes maktabi qatoriga kiradigan "Inssad" xalqaro biznes maktabining Jahon intellektual mulk tashkiloti bilan hamkorlikda tayyorlagan "Innovatsiyalarning global indeksi" ma'rurasidagi ma'lumotlarga ko'ra, O'zbekiston inson kapitalini rivojlantirish bo'yicha 141 mamlakat orasida 35-o'rinni egallashi va ushbu sohadagi o'sish dinamikasining saqlanib qolayotganligi mamlakatimiz to'g'ri yo'ldan ketayotganligidan dalolat beradi.

Innovatsion iqtisodiyot texnologik jarayonlarni muntazam rivojlantirgan holda, innovatsiyalarning ortiqcha oqimini yuzaga keltirish imkonini beradi.

Umuman, katta daromad olish istagi va zarurligi xususiy mulkdorni tovari o'ziga jalg qilishi va yaxshi sotilishi uchun raqobatchilarida bo'limgan o'ziga xos, foydali ishni amalga oshirishga undaydi. Iqtisodiy erkinlik, raqobatli bozorlar, qonun ustuvorligi va xususiy mulk – innovatsiyalarni avtomatik tarzda ishlab chiquvchi, ularga talabni oshiruvchi, innovatsion mahsulotga investitsiya jalg qiluvchi, g'oya hamda innovatsion tovar o'rtasida ko'priq bo'lувчи omillardir. YUqori texnologiyalar mamlakatga ilgarilab boruvchi iqtisodiyot bilan yaqin kelajakda jon boshiga daromad bo'yicha rivojlangan mamlakatlarga yaqinlashish imkonini beradi. Bu borada vechur texnologik va fan-texnika, biznes yuqori texnologiyalar hamda innovatsion mahsulotlarni ishlab chiqarish vazifasini bajaradi.

Innovatsiya yangilik kiritish, aynan "innovatsiyaga investitsiya kiritish"ni bildiradi. Bozorda sotilayotgan yangi yoki takomillashtirilgan mahsulot, amaliy faoliyatda foydalilaniladigan yangi yoki takomillashtirilgan texnologik jarayon ko'rinishida amalga oshirilgan innovatsion faoliyatning yakuniy natijasi.

Innovatsion faoliyat – bu ilmiy tadqiqotlar yoxud ilmiy-texnik yutuqlarni amaliy faoliyatda ishlataladigan yangi yoki takomillashtirilgan mahsulot texnologik jarayonlarga yoxud ijtimoiy xizmatlarga nisbatan yangi yondashuvga aylantirish bilan bog'liq bo'lgan faoliyat turidir.

Innovatsion faoliyat – yakunlangan ilmiy – texnik yutuqlar va ishlab chiqishlar natijalarini amalga oshirish yoki bozorda sotilayotgan yangi yoki takomillashtirilgan mahsulotlardagi boshqa ilmiy – texnik yutuqlar, amaliy faoliyatda foydalanadigan yangi yoki takomillashtirilgan texnologik jarayonga qaratilgan jarayon, hamda uning bilan bog'liq qo'shimcha ilmiy tadqiqotlar va ishlab chiqishlar.

**"Innovatsion loyiha"** tushunchasi quyidagicha ko'rib chiqilishi mumkin:

- innovatsion faoliyatni maqsadli boshqarish shakli;
- innovatsiyalarni amalga oshirish jarayoni;
- hujjatlar majmuasi.

Innovatsion loyiha innovatsion faoliyatni maqsadli boshqarishni shakli sifatida fan va texnikani ustuvor yo'naltirilgan rivojlantirishning aniq maqsadlari (vazifalari)ga erishishga qaratilgan tadbirlarning resurslar, muddatlar va ijrochilar bo'yicha o'zaro asoslangan va o'zaro bog'langan murakkab tizimidan iboratdir.

Innovatsiyalarni amalga oshirish jarayoni sifatida – bu innovatsiyalarga olib keluvchi ilmiy, texnologik, ishlab chiqarish, tashkiliy, moliyaviy va tijorat tadbirlarini belgilangan izchillikda bajariladigan majmuasidir.

Shuning bilan bir vaqtida innovatsion loyiha – bu loyiha maqsadlarini amalga oshirish uchun zarur bo’lgan texnik, tashkiliy, rejaviy va hisoblash – moliyaviy hujjatlarning yig’indisidir.

Bu uchta nuqta nazarlarni hisobga olish bilan, quyidagi ta’rifni berish mumkin: innovatsion loyiha – bu masofa va vaqtida muammolarni hal qilish, innovatsion jarayonlarni tashkil qilish bo’yicha ilmiy asoslangan maqsadlar va tadbirlarni belgilab beruvchi hujjatlarining yig’indisidir. Maqsadlar va tadbirlarni ilmiy asoslanishiga menejmentga ilmiy yondashishlarga rioya qilish, zamonaviy usullarni qo’llash yo’li bilan erishiladi.

Mamlakatimizda barqaror iqtisodiy o’sishni ta’minalash maqsadida iqtisodiyotning innovatsion rivojlantirish tizimiga o’tish jarayoni amalga oshirilmoqda. Bunday rivojlantirish tizimining markazi milliy xo’jaligimiz majmuuning boshlang’ich darajasiga – korxonalar, firmalar, kompaniyalar, korporatsiyalar, aksiyadorlik jamiyatlari darajasiga ko’chmoqda, aynan shu darajada kashfiyotlar, ixtiolar va ilmiy tadqiqotlar yangi qurilgan yoki yangilangan tsex va korxonalarda yangi texnologiyalarga, mahsulotga, texnikaga, axborot kommunikatsiyalariga aylanmoqda.

Iqtisodiyotning yangicha rivojlanish tizimi mohiyatini to’la anglash uchun avvalambor, innovatsion iqtisodiyot to’g’risida to’xtalib, uning ma’nosini tushunib olish zarur. Yangiliklar, ya’ni innovatsiyalar amaliyotda joriy etilishi ishlab chiqarishni rivojlantirishda doimo katta ahamiyat kasb etgan. Iqtisodiyotning hozirgi bosqichida rivojlangan mamlakatlar taraqqiyotda innovatsion faoliyat orqali muhim o’rein egallab turibdi. Bu esa zamonaviy iqtisodiyotda innovatsiyalarning roli yanada o’sganligi, ular borgan sari iqtisodiy rivojlanishning asosiy omiliga aylanib borayotganligidan dalolat. Iqtisodiyotni yuksaltirish sohasida tadqiqotlar o’tkazgan olimlarning fikricha, insoniyat tarixi davomida innovatsiyalar iqtisodiy o’sishning harakatlantiruvchi kuchi, ya’ni iqtisodiy rivojlanish uchun turtki bo’lib kelgan.

Respublikamizda innovatsion faoliyatni qo’llab-quvvatlash masalalari O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008 yil 15 iyuldagи “Innovatsion loyihalar va texnologiyalarni ishlab chiqarishga tatbiq etishni rag’batlantirish borasidagi qo’shimcha chora-tadbirlar to’g’risida”gi PQ-916-sonli qarorida o’z aksini topgan. Unga ko’ra, amaliy ishlanmalar va innovatsion texnologiyalar ishlab chiqarishga keng tatbiq etilishini ta’minalash uchun vazirliklar, idoralar, uyushmalar, kompaniyalar va boshqa xo’jalik birlashmalari:

- xo’jalik yurituvchi sub’ektlarning amortizatsion ajratmalari va sof foydasi, shuningdek, buyurtmachilarning maqsadli tushumlarini shakllantirish manbalaridan iborat modernizatsiya va yangi texnologiyalar jamg’armalari;
- tarmoq va korxonani innovatsion rivojlantirishga javobgar bo’lgan tarkibiy bo’linmalar, zarur hollarda esa, loyiha-konstrukturlik byurolarini tashkil etishda xo’jalik boshqaruvi organlari hamda korxonalarga ko’maklashishi belgilab berildi.

Modernizatsiya va yangi texnologiyalar jamg’armasiga yo’naltiriladigan mablag’lardan xo’jalik yurituvchi sub’ektlar tomonidan ilmiy-amaliy tadqiqotlar, innovatsion loyihalar, tajriba-konstrukturlik ishlanmalari hamda ularni ishlab chiqarish jarayoniga tatbiq etishni moliyalashtirishda foydalanish belgilandi.

Barqaror iqtisodiy o’sish sharoitida innovatsiyalar erkin raqobat natijasi hisoblanadi. Ularni ishlab chiqish manbai, shuningdek, raqobat bo’lmagan joyda innovatsiyalar ham bo’lmaydi. Mamlakatimizda bu borada izchil ishlar amalga oshirilmoqda.

Bugungi kunda O’zbekiston jahon hamjamiyatida tenglar teng bo’lib, inson manfaatlari, huquq va erkinliklari yuksak qadriyat bo’lgan ijtimoiy yo’naltirilgan bozor iktisodiyotiga asoslangan huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyat barpo etish yo’lidan dadil odimlab bormoqda. Mamlakatimiz hayotining turli jabhalarida erishilayotgan natijalarning yildan-yilga tobora salmoqli va ahamiyatlari bo’lib borayotganligi mustaqil taraqqiyot davrida amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarning puxta va asosli ekanligini, eng muhimi, ular negizida fuqarolarimizning orzu-umidlari va manfaatlari o’z aksini topganligini yaqqol namoyon

etmoqda. Iqtisodiyotimizning turli soha va tarmoqlari o'rtasidagi mutanosiblikning kuchayishi hamda barqaror o'sish sur'atlarining ta'minlanishi natijasida aholi daromadlari, turmush darajasining sezilarli ravishda oshishi ertangi kunga bo'lган ishonchimizning tobora mustahkamlanib borishiga zamin yaratmoqda.

Jamiyatning buyuk kelajagini yaratishda bosib o'tilayotgan har bir yil o'ziga xos hissa qo'shishi, yuksalishning murakkab, izchil va davomli yo'lida alohida pog'ona bo'lib xizmat qilishi e'tiborlidir. Ayni paytda, o'tgan yilda mamlakat miqyosida erishilgan yutuq va natijalarnio'rghanish, kelgusida yanada yuksakroq marralarni qo'lga kiritish borasidagi ustuvor yo'nalishlarni belgilash ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotni ta'minlashda muhim o'rinni tutadi

«Qishloq xo'jaligida innovatsion texnologiyalar» fanining predmeti – qishloq xo'jaligida innovatsion texnologiyalarni joriy etish imkoniyatlari, yo'llari va undan olinadigan natijalar ni o'rganishdir. Qishloq xo'jaligining barqaror iqtisodiy asosini, takror ishlab chiqarish jarayoni rivojlantirilishini ta'minlaydigan innovatsion texnologiyalarni joriy etish va tarmoqda mavjud resurslardan oqilona foydalanish, xarajatlarni tejash hamda samaradorlikni oshirish yo'llarini o'rgatish «Qishloq xo'jaligida innovatsion texnologiyalar» fanining maqsadi hisoblanadi. «Qishloq xo'jaligida innovatsion texnologiyalar» fani o'z oldiga qo'ygan maqsadidan kelib chiqqan holda quyidagi asosiy vazifalar yechimining nazariy va uslubiy asoslarini o'rgatishi lozim:

- qishloq xo'jaligining respublika iqtisodiyotidagi o'rni, ahamiyati, uning bosqichma-bosqich rivojlanish qonuniyatlarini;
- tarmoqqa davlat rahbarligini, unda amalga oshirilayotgan agrar-iqtisodiy islohotlar mazmuni va mohiyatining holatini, ularni rivojlantirish yo'llarini;
- qishloq xo'jaligida faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlik turlari, ularning faoliyatiga baho berish va takomillashtirish yo'llari;
- tarmoqning cheklangan yer-suv, mehnat resurslari, investitsiyalar va ulardan tadbirkorlik bilan samarali foydalanish darajasiga iqtisodiy baho berish tartibini o'rganish, ularni takomillashtirish va rivojlantirish yo'llarini asoslab berish;
- qishloq xo'jaligida qilinadigan doimiy va o'zgaruvchan, o'rtacha xarajatlarni, ularning tarkibi va kamaytirish yo'llarini, yetishtirilgan mahsulotning hajmini, sifatini, samarali taqsimlanishini hamda pul oqimlarini o'rgatish;
- tarmoqda iqtisodiy munosabatlarni amalga oshirishda foydalanilayotgan baholar tizimini, daromad va foydani aniqlash, ularni oqilona taqsimlash yo'llarini ko'rsatish;
- qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining qay darajada ixtisoslashganligini, joylashganligini hamda ichki va tashqi integratsiyalashganligini va boshqa masalalarini o'rganish.

«Qishloq xo'jaligida innovatsion texnologiyalar» fani o'z predmetini o'rganishda quyidagi usullardan foydalanadi:

a) ilmiy abstraksiya usuli. Ushbu usulda o'rganilayotgan jarayonning asl mohiyatiga e'tibor qaratilib, tahlil vaqtida chalg'itishi mumkin bo'lgan ikkinchi darajali omillar, voqeahodisalar nazardan chetlashtiriladi. Masalan, qishloq xo'jalik mahsulotlariga nisbatan talab qonuni o'rganilayotgan vaqtida faqatgina talab va baho o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik tahlil qilinib, boshqa omillar – raqobat, davlatning baho siyosati, bozorning to'yinganlik darajasi va boshqalar e'tiborga olinmaydi.

b) induksiya va deduksiya usuli. Bu bir-biriga qarama-qarshi bo'lgan, ammo o'zaro bog'liqlikdagi fikrlash usulidir. Fikrning xususiy faktlardan umumiy faktlarga tomon harakati induksiya, aksincha, umumiy faktlardan xususiy faktlarga qarab harakatlanishi deduksiya deb ataladi. Induksiya va deduksiya usulida turli gipotezalar ilgari suriladi. Gipoteza – biror-bir voqeahodisaning ilmiy nazariya bo'la olishi uchun uni tajribada sinab ko'rish va nazariy jihatdan asoslab berish uchun beriladigan ilmiy taklifdir.

d) taqqoslama tahlil usuli. Bu ko'zlangan maqsadga erishish maqsadida xususiy va umumiy ko'rsatkichlarni taqqoslash orqali tahlil qilish usulidir.

e) eksperiment usuli. Bu o‘rganilayotgan voqea-hodisaga omillar ta’sirini, uning rivojlanish qonuniyatlarini bilish uchun turli tajribalar o‘tkazish usulidir. Qishloq xo‘jaligida mehnatga haq to‘lash, xo‘jalik hisobi, ijara pudrati va boshqalarda eksperimentlar o‘tkaziladi.

f) hisob-konstruktiv usul. Bu usul qishloq xo‘jaligiga oid biror muammoni kelajakda hal etishning ilmiy asoslangan yo‘llarini aniqlab beradi. Ushbu usul ASM tarmoqlarini rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqishda keng qo‘llaniladi.

g) monografik usul. O‘rganilayotgan mavzu bo‘yicha umumiylar xulosalar chiqarish maqsadida mazkur yo‘nalishdagi ilg‘or mintaqalar va xo‘jaliklar faoliyatini chuqr o‘rganish va taqqoslash mazkur usulning mohiyatidir.

h) iqtisodiy-matematik usul. Mazkur usul o‘z ichiga matematik statistika, ishlab chiqarish funksiyalari va iqtisodiy-matematik modellashtirishni oladi hamda bir qancha omillar ta’sir etuvchi murakkab iqtisodiy jarayonlarni o‘rganishda qo‘llaniladi. Ma’lum ishlab chiqarish omillari mavjud bo‘lganda biror natijaga erishish uchun turli muqobil variantlarni o‘zaro taqqoslab, ular orasidan eng ma’qulini tanlab olishda iqtisodiy-matematik usullarning ahamiyati kattadir. Bunda kompyuter texnologiyalaridan ham keng foydalaniлади.

«Qishloq xo‘jaligida innovatsion texnologiyalar» fani tarmoqda amalga oshirilayotgan tashkiliy, iqtisodiy, ijtimoiy munosabatlар majmuasining nazariy asoslarini, yo‘nalishlarini, samaradorligini mavjud tadqiqot usullari yordamida o‘rgatish orqali talabalarda tarmoq iqtisodiyoti bo‘yicha iqtisodiy mushohada qilish, uni rivojlanishga oid muammolarni qo‘yish va uni hal etish, samaradorligini oshirish yo‘nalishlarini belgilab berish qobiliyatini shakllantirib, bozor iqtisodiyoti talablariga javob bera oladigan mutaxassislar tayyorlashga ko‘maklashadi.

«Qishloq xo‘jaligida innovatsion texnologiyalar» fanini o‘rganishda barcha iqtisodiy fanlar, shu jumladan «Iqtisodiyot nazariyasi», «Makroiqtisodiyot», «Mikroiqtisodiyot», «Mehnat iqtisodiyoti va sotsiologiyasi», «Statistika», «Marketing», «Menejment», «Iqtisodiy tahlil» kabi fanlardan olingan nazariy va amaliy bilimlarga asoslanish maqsadga muvofiқdir. Masalan, «Iqtisodiyot nazariyasi» fanini o‘rganmasdan qishloq xo‘jaligi iqtisodiyotini, unda amalga oshirilayotgan iqtisodiy o‘zgarishlar, ularning ahamiyatini baholab bo‘lmaydi. Iqtisodiy qonunlar, kategoriyalar, ularning har birining mazmunini, amal qilish mexanizmini o‘zlashtirmasdan qishloq xo‘jaligidagi iqtisodiy munosabatlар tizimini to‘g‘ri va samarali amalga oshirish, mehnatni tejash va uning unumdarligi rivojlanishini belgilash qiyin. «Mikroiqtisodiyot» fanidan talab va taklif kabi iqtisodiy qonunlarning korxonalarda amal qilishini o‘rganmasdan qishloq xo‘jaligida qanday mahsulotni, qayerda, qancha miqdorda yetishtirish zarurligini to‘g‘ri belgilab bo‘lmaydi.

## **2-Mavzu: Iqtisodiy nazariyalarda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning innovatsion modellari.**

### **Reja:**

- 2.1. Innovatsion jarayonlar modellari.
- 2.2. Innovatsion jarayonlarning rivojlanish nazariyalari.
- 2.3. Milliy innovatsion tizimlar konsepsiylari.

**Kalit so’zlar:** Innovatsiya, qishloq xo‘jaligida innovatsion texnologiyalar, innovatsion faoliyat.

### **Foydalangan adabiyotlar.**

#### **Asosiy adabiyotlar**

1. Ergashev F., Rahimova D., Sagdullaev A., Parpiev O., Zaynudinov SH. Innovatsion menejment. Darslik. -Toshkent.: "Akademiya", 2005.-326 b.
2. Вернакова Ю.В., Симоненко Э.С. “Управление инновациями: Теория и практика”. Учебник. - М.: Высшее экономическое образование, 2008, - 410 с.

3. “Инновационный тип развития экономики” Учебник. / Под общей ред.А.Н. Фоломева. М.: РАНС, 2008, - 388 с.
4. Komiljonov B. I. “Innovatsiyaviy menejment uslublarini takomillashtirish”. Monografiya.- Tashkent, FAN, 2007.-186 b.
5. Gimush R.I., Matmurodov F.M. Innovatsion menejment. O’quv qo’llanma. – Toshkent: O’zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashryoti, 2008.- 143 b.

### **Qo’shimcha adabiyotlar:**

1. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yil 22 oktyabrdagi “O’zbekistonda fermerlik faoliyatini tashkil qilishni yanada takomillashtirish va uni rivojlantirish chora-tadbirlari to’g’risida” PF-4478-sonli Farmoni. “Xalq so’zi “ gazetasi. 2012 yil 23 oktyabr.
2. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 29 sentyabr kuni Namangan va Farg’ona viloyatlariga tashrifi doirasidagi “Islohatlar samaralari va ezgu maqsadlarimiz ijobati” ma’ruzasi./”Xalq so’zi” gazetasi. 2015 yil 30 sentyabr.
3. O’zbekiston Respublikasi Prezidentning 1992 yil 21 iyuldagagi «Fan va innovatsiya faoliyatini yanada rivojlantirish to’g’risida»gi PQ-337 –son Qarori. Manba: www.lex.uz.
4. O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1993 yil 2 avgustdagagi «O’zbekiston Respublikasining davlat ilmiy-texnika siyosati ustuvor yo’nalishlari to’g’risida»gi 382-son Qarori. Manba: www.lex.uz.
5. O’zbekiston Respublikasi Prezidentning 2002 yil 20 fevralda “Ilmiy tadqiqot faoliyatini tashkil etishni takomillashtirish to’g’risida”gi PF-3029-son Farmoni. Manba: www.lex.uz.
6. O’zbekiston Respublikasi Prezidentning 2006 yil 7 avgustdagagi “Fan va texnologiyalar rivojlanishini muvoqiqlashtirish va boshqarishni takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi PQ-436-son Qarori. Manba: www.lex.uz.
7. O’zbekiston Respublikasi Prezidentning 2008 yil 15 iyuldagagi “Innovatsion loyihalar va texnologiyalarni ishlab chiqarishga tatbiq etishni rag’batlantirish borasidagi qo’shimcha chora-tadbirlar to’g’risida”gi 916-Qarori. Manba: www.lex.uz.
8. O’zR VMning 2002-yil 4-martdagagi «Ilmiy-tadqiqot faoliyatini tashkil etishni takomillashtirish chora-tadbiriari to’g’risida»gi 77-son Qarori. Manba: www.lex.uz.
9. “Инновационный тип развития экономики” Учебник. / Под общей ред.А.Н. Фоломева. М.: РАНС, 2008, - 388 с.
10. Мухамедьяров А.М. Инновационный менеджмент. Учебное пособие. – М.: Инфра-М, 2005.- 127 с.
11. Крылов Э.И. Анализ эффективности инвестиционной и инновационной деятельности предприятий/Учеб пос. 2-е изд. пере раб и доп.. –М.: Финансы и статистика, 2003, –605 с.
12. Барышева А.В. и др. Инновации: Учебное пособие./Болдин К.В., и другие. - М.: Дашков и К. 2008.-382 с.

### **Internet saytlar:**

13. [www.samqxi.uz](http://www.samqxi.uz) – Samarqand qishloq xo’jalik instituti veb-sahifasi
14. [www.lex.uz](http://www.lex.uz) – O’zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi.
15. [www.uzreport.com](http://www.uzreport.com) – Axborot agentligi.
16. [www.agro.uz](http://www.agro.uz) – O’zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo’jaligi vazirligi.

Innovatsion jarayon korxonadagi qayta ishlab chiqarish jarayonini rivojlanishining, uning sifatiy ta'riflari nuqtai nazaridan samarali dinamikasini ta'minlaydi. U umumiy strategiyada dvigatel rolini o'ynagandek bo'ladi. Bir qator sanoati rivojlangan mamlakatlarda xuddi innovatsion strategiya korxonaning raqiblar, iste'molchilar, yetkazib beruvchilar bilan munosabatlarini ta'riflaydi. Korxona umumiyy strategiyasining turi uncha bog'liqdir.

Demak, innovatsion strategiya yo'nalishlarini belgilash, istiqbolli rivojlanishning ustuvorliklarini tanlash, korxonani rivojlanishi va sanab o'tilgan, maqsadlarga erishish uchun tadbirlar majmuasiga talablarni ishlab chiqish bo'yicha maqsadga qaratilgan faoliyatdan iborat bo'ladi.

Korxonaning innovatsion salohiyati elementlari:

- moddiy-texnik resurslar;
- moddiy va nomoddiy aktivlar;
- moliyaviy resurslar;
- tashkiliy resurslar;
- kadrlarga oid resurslar;
- ijtimoiy-ruhiy omillar.

Innovatsion jarayonlarni tashkil etish uchun quyidagilar lozim:

- g'oya va ishlanmalarni moliyalash tirishuchun etarli pul mablag'lar;
- yangi mahsulotni yaratish va ommaviy ravishda ishlab chiqarish uchun tegishli moddiy-texnika bazasi;
- yangiliklarni amalga oshirishva unijoriyetishuchunqobiliyatli xodimlar;

harqanday innovatsion jarayon asosida yotuvchi original (rasman) g'oyalarni ishlab chiqish imkoniyati.

### **«KO'CHIRIB O'TKAZISH» STRATEGIYASI**

Mavjud xorijiy ilmiy-texnika salohiyatidan foydalanish va yangiliklar kiritishni o'z iqtisodiyotiga ko'chirib o'tkazishdan iborat. Bu strategiya birinchi navbatda, Yaponiyada ikkinchi jahon urushidan keyingi yillarda foydalanilgan, AQSH, Angliya, Fransiya, Rossiya kabi rivojlangan mamlakatlarda xorijda talab yuqori bo'lgan yangi mahsulotlar ishlab chiqarishni o'zlash tirish uchun yuqori samarali texnologiya litsenziyalar xarid qilingan kelgusida fundametal tadqiqotlar va loyihalardan tortib to innovatsiyalami joriy qilish, ko'لامи mamlakat ichkarisida va jahon bozorida amalga oshirishgacha bo'lgan butun innovatsion tsiklni ta'minlagan o'zining ilmiy-texnik va ilmiy-islomiy salohiyati yaratilgan.

### **«O'ZLASHTIRISH» STRATEGIYASI**

Arzon ishchi kuchiga tayangan holda o'zining yo'qotilayotgan ilmiy-texnik salohiyati bir qismidan foydalangan holda ilgari sanoati rivojlangan mamlakatlarda ishlab chiqarilgan mahsulotni ishlab chiqarish o'zlashtiriladi. Kelgusida ishlab chiqarishga muhandislik-texnik hamkorlik qilish hamda iqtisodiyotning davlat va bozor shakllarini uyg'unlashtirgan holda innovatsion faoliyatni kuchaytirishni ta'minlash.

O'zining ilmiy-tadqiqotchilik va tajriba-konstrukturlik ishlarini o'tkazishga qodir bo'lgan ilmiy-texnik salohiyat tiklanadi. Xitoyda va Janubiy-SHraqiy Osiyoning bir qator mamlakatlarda qabul qilingan.

Klassik misol - Janubiy Koreyaning raqobatbardosh avtomobil sanoati, yuqori samarali hisoblash texnikasi, ma'ishiy elektronika vositalari ishlab chiqarishning yaratishi.

### **«OSHIRISH» STRATEGIYASI**

Rivojlanish darajasi yuqori bo'lgan mamlakatlar, birinchi navbatda, AQSH, Angliya, Germaniya, Fransiya amal qiladi. O'zining ilmiy-texnik salohiyatidan foydalangan.

chet ellik olimlar va konstrukturlar jalb qilgan. Universitetlarning fundamental fanlari va firmalarining amaliy fanlarini integratsiyalagan holda doimiy ravishda ishlab chiqarishda va

ijtimoiy sohada amalga oshiriladigan yuqori texnologiyalar, yangi mahsulotlar yaratiladi. Innovatsiyalarni muntazam oshirish ro'y beradi.

### **Global innovatsiyalar indeksi (GII) -bugungi kunda eng keng qamrovli indeks**

Mamlakatning innovatsion faoliyatiga har tomonlama va hisob kitoblarga asoslangan holda baho berish imkoniyatini beradi.

boshqa indekslarga nisbatan afzalligi unda innovatsion faoliyatdan kelgan biznes daromadlari bilan birgalikda hukumatning innovatsion siyosat orqali tadqiqotlarni qo'llab-quvvatlash uchun amalga oshirayotgan chora-tadbirlari ham hisobga olinadi.

Intellektual salohiyat innovatsion salohiyatning ajralmas qismidir. Intellektual salohiyat, muhandis va iqtisodchi olimlarlarning yangilik yaratish imkoniyati intellektual salohiyat qanchalik oshib borsa, innovatsion salohiyat ko'payib boradi. Korxona intellektual salohiyati undagi "innovatsion g'oyalar portfeli" sig'imi bilan aniqlanadi. Innovatsion g'oyalar portfeli sig'imini oshirish-korxonada innovatsion faollik bilan bog'liqdir. Innovatsion faollikning mazmun-mohiyati: korxonada innovatsion o'zgarishlarni jadallashtirishdir.

### **3-Mavzu: Inson taraqqiyoti innovatsion rivojlanishning maqsadi sifatida. Xorijiy vechur kompaniyalari tajribasi.**

#### **Reja:**

- 3.1. Inson taraqqiyoti tushunchasining mohiyati.
- 3.2. Innovatsion rivojlanishning maqsadi.
- 3.3. Innovatsion rivojlanish bo'yicha rivojlangan xorijiy vechur kompaniyalar tajribasi.

**Kalit so'zlar:** Innovatsiya, qishloq xo'jaligida innovatsion texnologiyalar, innovatsion faoliyat.

### **Foydalangan adabiyotlar.**

#### **Asosiy adabiyotlar**

1. Ergashev F., Rahimova D., Sagdullaev A., Parpiev O., Zaynutdinov SH. Innovatsion menejment. Darslik. -Toshkent.: "Akademiya", 2005.-326 b.
2. Вернакова Ю.В., Симоненко Э.С. "Управление инновациями: Теория и практика". Учебник. - М.: Высшее экономическое образование, 2008, - 410 с.
3. "Инновационный тип развития экономики" Учебник. / Под общей ред.А.Н. Фоломева. М.: РАИС, 2008, - 388 с.
4. Komiljonov B. I. "Innovatsiyaviy menejment uslublarini takomillashtirish". Monografiya.- Tashkent, FAN, 2007.-186 b.
5. Gimush R.I., Matmurodov F.M. Innovatsion menejment. O'quv qo'llanma. – Toshkent: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashryoti, 2008.- 143 b.

### **Qo'shimcha adabiyotlar:**

- 1.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yil 22 oktyabrdagi "O'zbekistonda fermerlik faoliyatini tashkil qilishni yanada takomillashtirish va uni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" PF-4478-sonli Farmoni. "Xalq so'zi " gazetasi. 2012 yil 23 oktyabr.
- 2.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 29 sentyabr kuni Namangan va Farg'ona viloyatlariga tashrifi doirasidagi "Islohatlar samaralari va ezgu maqsadlarimiz ijobati" ma'ruzasi./"Xalq so'zi" gazetasi. 2015 yil 30 sentyabr.

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentning 1992 yil 21 iyuldagagi «Fan va innovatsiya faoliyatini yanada rivojlantirish to'g'risida»gi PQ-337 –son Qarori. Manba: www.lex.uz.

4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1993 yil 2 avgustdagagi «O'zbekiston Respublikasining davlat ilmiy-texnika siyosati ustuvor yo'naliishlari to'g'risida»gi 382-son Qarori. Manba: www.lex.uz.

5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentning 2002 yil 20 fevralda “Ilmiy tadqiqot faoliyatini tashkil etishni takomillashtirish to'g'risida”gi PF-3029-son Farmoni. Manba: www.lex.uz.

6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentning 2006 yil 7 avgustdagagi “Fan va texnologiyalar rivojlanishini muvofiqlashtirish va boshqarishni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-436-son Qarori. Manba: www.lex.uz.

7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentning 2008 yil 15 iyuldagagi “Innovatsion loyihalar va texnologiyalarni ishlab chiqarishga tatbiq etishni rag'batlantirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi 916-Qarori. Manba: www.lex.uz.

8. O'zR VMning 2002-yil 4-martdagagi «Ilmiy-tadqiqot faoliyatini tashkil etishni takomillashtirish chora-tadbiriari to'g'risida»gi 77-son Qarori. Manba: www.lex.uz.

Innovatsion faoliyatni davlat tomonidan tartibga solinishining keyingi darajasi texnologik rivojlanish dasturlari (TRD)da amalga oshiriladi, ular xalq xo'jaligi sohalarini rivojlantirish strategiyalari doirasida amalga oshiriladi. Bu dasturlarda innovatsiyalarning asosiy qismi ularda ishtirok etayotgan korxonalarning shaxsiy mablag'lari va kredit manbalardan ta'minlanadi, davlatning ishtiroki esa asosan ishlarni muvofiqlashtirish va tijorat xatarini oshishi bilan bog'liq yoki qandaydir sabablarga ko'ra korxonalar tomonidan amalga oshirilishi mumkin bo'lмаган bosqiyalarni qo'llab-quvvatlashdan iboratdir. Bu holda davlatning TRDdagи ishtiroki asosan kafolatlar va qaytarma moliyalashtirish shaklida amalga oshiriladi.

Innovatsion loyihalar DMD yoki TRD ga tanlov asosida kiritiladi, unda ishtirok etish ixtiyoriy ravishda amalga oshiriladi. Tanlovda ishtirok etayotgan innovatsion loyihalar albatta davlat ilmiy-texnik va ekologik ekspertizasidan o'tishlari kerak, uning predmeti bularning yangiligi, sotsial-iqtisodiy va ekologik samaradorligidan iboratdir.

Innovatsion faoliyatni davlat tomonidan tartibga solinishi tijoratlashganlikning katta darajasidagi ayrim innovatsion yuqori samarali loyihalarni qo'llab-quvvatlanishi shaklida namoyon bo'lishi mumkin. SHu narsa juda muhimki, davlat qo'llab-quvvatlashi uchun innovatsion loyihalarni tanlashning konkursli tizimi muntazam ravishda takomillashmoqda. e'tibor nisbatan kichik va o'zini o'zi tez qoplaydigan innovatsion loyihalarning salmog'i oshishiga qaratilmoqda, ular loyihaning innovatsion mahsulotiga kafolatlangan bozor talabini mavjudligida byudjetdan va korxonalar shaxsiy mablag'lari hisobidan ustuvor moliyalashtirish sharoitlarida ishlab chiqariladi.

Firmani boshqarishning assosiga innovatsion strategiyani texnologik yangilash va ilmiy tadqiqotlar va ishlab chiqarishlarning turli-tuman shakllarini faollashtirish siyosati qo'yilgan. ITTKI tashkiliy tuzilmasini qaytadan qurish, tadqiqotlar yo'nalishlari turli-tumanligini kengaytirish, sanoat firmalarining fundamental tadqiqotlar sohasidagi faolligini oshirish vujudga kelgan.

Sanoati rivojlangan mamlakatlarda XX asrning keyingi o'n yilliklarida sanoat ITTKI milliy ilmiy salohiyatining yirik tashkil etuvchisi va raqobat afzalligining muhim manbaiga aylangan. Sanoat kompaniyalarida fan yangilik kiritishlarning asosiy va amalda tugamaydigan manbai sifatida yangiliklarning aniq iste'molchilari bilan birlashgan. Sanoat sektori doirasida ITTKIning faol kengayishi zarurligi shunday dalil bilan tasdiqlanadi, mahsulotlarning ishlab chiqarilishi va sotilishi orqali ilmiy tadqiqotlar natijalari tijoratlashadi va jamiyatning ehtiyojini qanoatlantiradi.

ITTKI rivojlanishini boshqarishning yana bir xususiyati boshida novator va tashkilotchilar turgan ishlarni jamoaviy tashkil etishga suyanishdir.

Innovatsion faoliyat, ayniqsa fundamental va amaliy tadqiqotlarni bajarishda noaniqlik va xatarning yuqori darajasi bilan ta'riflanadi. YAngilik kiritish loyihasini tanlash va qarorlar qabul qilishda ham xatar elementi juda katta. U axborotlarning to'liqligi ko'zda tilgan loyihaning sifati, qarorlar qabul qilish usullari va yondashuvlarga bog'liq. YAngi tovari seriyali ishlab chiqarish zarurati eng kam bo'ladi. Ammo bozorga chiqish va yangilik kiritish diffuziyasida yangiliklarning noaniqlik va xatar elementlari yana o'sadi, yangiliklarni sotishning barqaror hajmi va yuqori raqobatbardoshligida esa kamaya boshlaydi. Keyingilar innovatsiyalar yashash davrlarining har xil bosqichlarida ularni boshqarish xususiyatlaridir.

Tadqiqot qilish assotsiatsiyalari - texnik ishlab chiqarishning eng istiqbolli shakllaridan biridir. Bir necha kompaniyalar tomonidan ulushli asosda tashkil qilingan bo'lib, ular nafaqat ko'p sarmoya iste'mol qiluvchi ilmiy-texnik loyihalarni, balki yuqori investitsion ular bilan bog'liq innovatsion yo'naltirilganlikni ishtirokchilar o'rtasida taqsimlashga imkon beradi.

Ko'p ilm iste'mol qiluvchi va yuqori texnologik mahsulotni ishlab chiqarish uchun moliyaviy xatarni ishtirokchilar o'rtaida taqsimlash imkoniyati katta ahamiyatga ega. ITTKI natijalari butunlay aniq bo'ladi, ammo ko'pincha ularni litsenziyalash va patentlashtirishning imkon yo'q, bu Yaponiyada bundan keyingi ishlab chiqarishlarda ma'lum qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. Birinchi tadqiqot qilish assotsiatsiyalari Yaponiyada 1960 yillarda paydo bo'lgan bo'lsalar ham, ular asosan amaliy imitatsion tadqiqotlar bilan shug'ullanganlar. Ularni o'sishiga yapon va xorijiy texnologiyalar va korxonalar va nou-xaular tomonidan keskin raqobat, hamda katta xususiy investitsiyalarni safarbar qilishga rag'batlarni yetishmasligi xalaqit bergen. 1970 yillarda assotsiatsiyalarning soni, ayniqsa eHM ni ishlab chiqarish sohasi, mashinasozlik va asbobsozlik, aloqa va telekommunikatsiya vositalarini ishlab chiqarish sohasida tez rivojlangan.

Yaponiya hukumati 1970 yillarda tadqiqot qilish tizimini vujudga kelishi va rivojlanishida ijobiy rol o'ynagan.

Davlat ilmiy-texnik rivojlanishning asosi sifatida davlat byudjetida subsidiya oluvchi ustuvor ITTKIni tanlab, ularga firmalari tomonidan shartnomaga asosida tashkil qilinadigan aralash davlat- xususiy moliyalashtirish tamoyilida tadqiqot qiluvchi assotsiatsiyalarni qo'shgan. Aga 1970 yillarning oxirida Yaponiyada 20 bunday assotsiatsiyalar tashkil qilingan bo'lsa, ulardan 7 tasi davlatning faol moliyaviy qo'llab-quvvatlashda shartnomaga asosida jalg qilinganlar, 1980 yillarda esa yana 26 tasi.

Tadqiqot qilish assotsiatsiyalaridagi innovatsiyalarni tashkil qilish va moliyalashtirishning aniq mexanizmlari, shubhasiz o'zgarganlar. Masalan, hozirgi vaqtida assotsiatsiyalarning ikki turi faoliyat yuritmoqda: harakatlar va resurslarni belgilangan loyiha ostida birlashtiruvchi, ammo mustaqil ilmiy va moliyaviy bo'linmalarga ega bo'lganlar va ishtirokchi firmalar doiralarida va moliyalashtirining belgilangan hajmida umumiyligi ilmiy-texnik bo'linmani tashkil qiluvchi, ikkinich turdag'i assotsiatsiyalar. Tadqiqot qiluvchi assotsiatsiyalar davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning har xil shakllaridan foydalanadilar.

Hozirgi dunyodagi innovatsion jarayonlarning intensivligi ekologik muammolarni ancha keskinlashtirgan. Bir qator yo'naliishlar bo'yicha atrof muhitga antropogen yuklama mushkul chegaraga yaqinlashmoqda, uni orqasida moddalarni tabiatdagi meyoriy o'zgarib turishini buzilishi muqarrardir. Boshqa tomondan, faqat innovatsiyalar yordamida inson va tabiat o'rtasidagi munosabatni uyg'unlashtirishi mumkin. Axir xuddi ilmiy - texnik yutuqlar ishlab chiqarishning tuzilmasi va iste'molni ratsionallashtirish hamda qaytadan aylanuvchi texnologiyalarni tarqatish yo'li bilan o'rni to'ldirilmaydigan resurslardan foydalanishni va zararli chiqindilarni kamaytirishga imkon beradi. Bu muammolar jahon hamjamiyati tomonidan qabul qilingan, barqaror ekologik muvozanatni ko'zda tutuvchi 21 – asrda barqaror rivojlanish kontseptsyasi munosabati bilan ayniqsa dolzarbdir.

O'tgan asr xo'jalik hayotini muddat bilan internatsionallashuvi bilan ma'lum bo'ladi. Ko'pincha integratsiyaning yuqori darajasida ega xalqaro xarakter innovatsion jarayonlarni ham kasb etadi. Har xil mamlakatlarni innovatsion sohada kooperatsiyalashishi resurslarni yangi ilmiy - texnik natijalarni olish, ham buyumli va ham buyuli bo'lмаган shakkardagi texnologiyalarning transporti, jahon ilmiy - innovatsion infratuzilmasini yaratilishi o'z mohiyatiga ko'ra globar xarakterga ega innovatsiyalarni amalga oshirish maqsadida birlashtirilishi orqali sodir bo'ladi. Ilmiy - texnik taraqqiyotning hozirgi ko'lamlarida ko'pgina innovatsion loyihalarni bitta, hatto eng rivojlangan mamlakatlarni amalga oshirishga kuchlari yetmaydi.

Ammo mamlakatda xuddi shunday ilmiy - texnik baza, hamda xorijdan innovatsiyalarni qabul qilishni ta'minlovchi mexanizmlar mavjud bo'lmasa jahon innovatsion jarayonlariga to'laqonli integratsiyalashishning iloji bo'lmaydi. Mamlakatni mehnat taqsimotiga qo'shilishining darajasi va samaradorligi tovarlar va xizmatlarning jahon bozorlaridagi uning tutgan o'rni, malakali mutaxassislarining mavjudligi bilan ta'riflanadi. Ushbu parametlar tabiiy resurslarga eksklyuziv egalik qilish yoki ekstensiv xarakterdagi boshqa afzalliklar bilan kamroq darajada va mahsulotning raqobatbardoshligini ta'minlovchi innovatsiyalardan foydalanish bilan borgan sari ko'proq darajada belgilanadilar. Milliy iqtisodiyotning global raqobatbardoshligini innovatsion

jarayonlarni rivojlanishi darajasiga bog'liqligi – innovatstyalarning umumdavlat ahamiyatidagi muhim jihatidir.

## **7-Mavzu: Yangi mahsulotni ishlab chiqarish va bozorga chiqarishda marketing yondoshuvi.**

### **Reja:**

- 7.1. Innovatsiyalar markentingining o'ziga xos xususiyatlari.
- 7.2. Ishlab chiqarish jarayonida yaratilgan texnologik yangiliklar marketingi.
- 7.3. Mahsulotning bozordagi harakati. Bozor segmenti sig'imini aniqlash.
- 7.4. Iste'molchilar tashabbusi bilan yuzaga kelgan innovatsiyalar marketingi.

**Kalit so'zlar:** raqobatdoshlik, innovatsiya, innovatsion mahsulot, innovatsion marketing, innovatsion marketing strategiyasi, innovatsion marketing texnologiyasi va vositalari.

## **Foydalangan adabiyotlar.**

### **Asosiy adabiyotlar**

6. Ergashev F., Rahimova D., Sagdullayev A., Parpiyev O., Zaynudinov SH. Innovatsion menejment. Darslik. -Toshkent.: "Akademiya", 2005.-326 b.
7. Вернакова Ю.В., Симоненко Э.С. “Управление инновациями: Теория и практика”. Учебник. - М.: Высшее экономическое образование, 2008, - 410 с.
8. “Инновационный тип развития экономики” Учебник. / Под общей ред.А.Н. Фоломева. М.: РАНС, 2008, - 388 с.
9. Komiljonov B. I. “Innovatsiyaviy menejment uslublarini takomillashtirish”. Monografiya.- Tashkent, FAN, 2007.-186 b.
10. Gimush R.I., Matmurodov F.M. Innovatsion menejment. O'quv qo'llanma. – Toshkent: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashryoti, 2008.- 143 b.

## **Qo'shimcha adabiyotlar:**

13. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yil 22 oktyabrdagi “O'zbekistonda fermerlik faoliyatini tashkil qilishni yanada takomillashtirish va uni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida” PF-4478-soni Farmoni. “Xalq so'zi “ gazetasi. 2012 yil 23 oktyabr.
14. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 29 sentyabr kuni Namangan va Farg'ona viloyatlariga tashrifi doirasidagi “Islohatlar samaralari va ezgu maqsadlarimiz ijobati” ma'ruzasi./”Xalq so'zi” gazetasi. 2015 yil 30 sentyabr.
15. O'zbekiston Respublikasi Prezidentning 1992 yil 21 iyuldagagi «Fan va innovatsiya faoliyatini yanada rivojlantirish to'g'risida»gi PQ-337 –son Qarori. Manba: [www.lex.uz](http://www.lex.uz).
16. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1993 yil 2 avgustdagagi «O'zbekiston Respublikasining davlat ilmiy-texnika siyosati ustuvor yo'naliishlari to'g'risida»gi 382-soni Qarori. Manba: [www.lex.uz](http://www.lex.uz).
17. O'zbekiston Respublikasi Prezidentning 2002 yil 20 fevralda “Ilmiy tadqiqot faoliyatini tashkil etishni takomillashtirish to'g'risida”gi PF-3029-soni Farmoni. Manba: [www.lex.uz](http://www.lex.uz).
18. O'zbekiston Respublikasi Prezidentning 2006 yil 7 avgustdagagi “Fan va texnologiyalar rivojlanishini muvofiqlashtirish va boshqarishni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-436-soni Qarori. Manba: [www.lex.uz](http://www.lex.uz).

19. O'zbekiston Respublikasi Prezidentning 2008 yil 15 iyuldagagi "Innovatsion loyihalar va texnologiyalarni ishlab chiqarishga tatbiq etishni rag'batlantirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 916-Qarori. Manba: [www.lex.uz](http://www.lex.uz).
20. O'zR VMning 2002-yil 4-martdagi «Ilmiy-tadqiqot faoliyatini tashkil etishni takomillashtirish chora-tadbiriari to'g'risida»gi 77-son Qarori. Manba: [www.lex.uz](http://www.lex.uz).
21. "Инновационный тип развития экономики" Учебник. / Под общей ред.А.Н. Фоломева. М.: РАНС, 2008, - 388 с.
22. Мухамедьяров А.М. Инновационный менеджмент. Учебное пособие. – М.: Инфра-М, 2005.- 127 с.
23. Крылов Э.И. Анализ эффективности инвестиционной и инновационной деятельности предприятий/Учеб пос. 2-е изд. пере раб и доп.. –М.: Финансы и статистика, 2003, –605 с.
24. Барышева А.В. и др. Инновации: Учебное пособие./Болдин К.В., и другие. - М.: Дашков и К. 2008.-382 с.

#### **Internet saytlar:**

13. [www.samqxi.uz](http://www.samqxi.uz) – Samarcand qishloq xo'jalik instituti veb-sahifasi
14. [www.lex.uz](http://www.lex.uz) – O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi.
15. [www.uzreport.com](http://www.uzreport.com) – Axborot agentligi.
16. [www.agro.uz](http://www.agro.uz) – O'zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi.

**"Innovatsion faoliyat"** va **"innovatsion marketing"** tushunchalari korxona faoliyatida o'zaro bog'liq bo'lib, istalgan korxonada innovatsion marketingni tashkil qilmasdan turib innovatsion faoliyatdan foydalanib bo'lmaydi èki innovatsion marketing texnologiyalari joriy qilinmas ekan, uning innovatsion faoliyati samarali bo'lmaydi.

Hozirgi zamonning mashhur menejment nazariyachisi P. Druker marketing va innovatsiya atamasini bir-biriga bog'lab quyidagi fikrlarni aytgan: "Har qanday kompaniyaga foyda olib keluvchi narsa bu- marketing va innovatsiya hisoblanib, qolgani urinishlarning hammasi esa xarajat yoki zarardir".

Marketing va innovatsiya tushunchalari hozir kunning yangiligi emaski, bu tushunchalarni o'tgan asrda ham tadbirkorlar va sièsatchilar o'z faoliyatlarida qo'llab kelib, dolzarbligini ta'kidlab o'tganlar. O'sha vaqtida bu bo'yicha umumiyligi tushunchalar bo'lsada, "innovatsion marketing" nima èki innovatsiya haqida so'z ketganda yangi ko'rinishdagi oziq-ovqat va iste'mol tovarlari, texnika va texnologiyalarga oid, shu g'oyalarni ijtimoiy ko'rinishda bo'lishi, mahsulot èki xizmatlarni oson va samarali tijoratlashtirish degan fikrlar olg'a surilgan.

XXI-asr, ya'ni axborot asriga kelib butun dunè olimlari-yu hamda tadbirkorlari marketing va innovatsiyani biri-biriga yaqin aloqador deb to'laqonli tan olinganligi hamda zamonaviy korxonalar faoliyatida innovatsion marketing texnologiyalaridan foydalanish davr talabi ekanligi hammamizga ma'lum. Bozordagi murosasiz raqobat sharoitida mahsulot èki korxonani davomiyligini ta'minlash uchun innovatsion marketing faoliyatining quyidagi ko'rinishlari vujudga kelgan; boshlang'ich innovatsion g'oyalarni qidirish va innovatsion salohiyatni aniqlash bo'yicha tadqiqotlar o'tkazish, yangi mahsulot realizatsiyasi va yangi faoliyat (xizmat) turini yaratish èki barcha innovatsion jaraènlarni boshqarish bo'yicha yangi usullar ishlab chiqish, sotishni muvofiqlashtirish uchun yangi sharoitlar yaratish bo'yicha chora-tadbirlarini kiritish lozimligini aytib o'tshimiz mumkin.

Bugungi kunda "Innovatsion marketing" marketing faoliyatida yangi paydo bo'lган yo'naliш hisoblanib, innovatsion mahsulot va xizmatlarni shakllantirishda ishlab chiqarish texnologiyalarni joriy etish hamda ushbu innovatsion g'oyani tijoratga tayेrlashni amalga oshiradi. U korxonaga innovatsion mahsulotni maksimal samara bilan joriy qilish imkonini

beradigan usul va vositalar majmuidan foydalanadi. Innovatsion marketing texnologiyalarini o'z vaqtida qo'llash innovatsiyalar ishlab chiqish bilan bog'liq

tavakkalchilikni kamaytiradi, chunki ular potentsial talabni baholash, maqsadli bozor segmentini aniqlash va ishlanmalarini davom ettirish kerakmi, ular kutilgan samarani beradimi degan savollarga javob berishga imkoniyat yaratadi.

Innovatsion marketingning asosiy maqsadi innovatsiyalarni bozorga kiritish strategiyasini ishlab chiqish va yangi mahsulotni bozorda mustahkam o'rin egallashini ta'minlash, an'anaviy marketingdan farqli ravishda innovatsion marketingning vositalari asosida innovatsiyalar bozorini tadqiq etish, bozorni kuzatish, bozor kon'yunkturasini tahlil qilish, talabni shakllantirish, iste'molchilar xulq-atvori bo'yicha bozor segmentlarini ishlab chiqish etadi.

Xizmat ko'rsatishda esa "innovatsion marketing", ayirboshlash natijasida yangiliklarga bo'lган ehtiёjni qondirish orqali foyda olishga yo'naltirilgan inson faoliyati majmuini tushunmoq lozim. Bu faoliyat yangiliklarga ehtiёjni aniqlashdan tortib yangi innovatsion xizmatlarni yaratish, bozorga kirib borish, xizmatlarning haётiylik davri, amaliётda qo'llash, innovatsion xizmatlarni sotib olish uchun xaridorlarni qiziqishini orttirish, yangiliklarga bo'lган talabni va ularni yaratilish istiqbollarini aniqlash kabi vazifalarni o'z ichiga oladi. Xizmat ko'rsatish innovatsiyasi va xizmatlar innovatsiyasi ilm-fan va amaliётga yetarli darajada qo'llanilmagan keng tushunchali atamadir.

Innovatsion mahsulot va innovatsion xizmatning asosiy farqli belgilardan biri shundaki, innovatsion xizmat yangilik bozordagi muvaffaqiyati tegishli texnik bilimlarni amalga oshirish jaraenini innovatsion mahsulotga nisbatan kamroq talab qiladi. Innovatsion xizmatni tijoratlashtirishda texnikaga nisbatan ko'proq iqtisodiy va ijtimoiy sohadagi jaraenlarni qamrab oladi.

Yuqoridagi ko'rib o'tilgan olim va mutaxassislarning innovatsion marketingga bergen ta'rif va tavsiflarini tahlil qilar ekanmiz, ular tomonidan asosan innovatsion mahsulotni bozorga siljитish bilan bog'liq marketing faoliyat nuqtai nazardan endashilganligining guvoxi bo'lamic. Lekin, fikrimizcha biz, marketingni iqtisodiy faoliyat sifatida olib ko'radigan bo'lsak, unda qo'llaniladigan yangi vosita va usullar ham innovatsion faoliyat bo'lib yuzaga chiqadi. Bundan kelib chiqib, innovatsion marketingga quyidagicha mualliflik ta'rifini keltirishni lozim topdik. Innovatsion marketingga, bir tomondan, innovatsion mahsulotni siljитish, ikkinchi tomondan, har qanday mahsulotni innovatsion vositalar erdamida siljитishga yo'naltirilgan faoliyat sifatida ta'rif berishimiz mumkin. Demak, innovatsion marketingga berilgan ta'rifdan kelib chiqib mahsulotni siljитishda marketingning u yoki bu vositasidan foydalanishimiz mumkin.

Ushbu marketingning vositalari mahsulot siljитish holatidan foydalanish quyidagicha ifoda etiladi:

- an'anaviy marketing vositalaridan innovatsion mahsulotlarni siljитishda foydalanish;
- an'anaviy maxsulotni innovatsion marketing vositalari bilan siljитishda foydalanish;
- innovatsion marketingdan ham an'anaviy mahsulotlarni ham innovatsion mahsulotlarni siljитishda qo'llash.

Yuqoridagi mulohazalardan kelib chiqib, har bir faoliyatda yangicha qarash, yangi usullarda xomashyolarni yaratish va ishlab chiqarishga sarflash, iste'molchilar ehtiёjni to'laqonli qondirishga qaratilgan faoliyatini amalga oshirish, innovatsion mahsulotni siljитishgacha bo'lган barcha jaraenlarning har birida innovatsion marketingni o'zida namoyon qiladi.

Zamonaviy bozor sharoitida innovatsion marketing innovatsion faoliyatning bir turi sifatida yuzaga kelar ekan, bunda, yangi mahsulot va xizmat turlarini ishlab chiqish jaraenlarini o'zlashtirishda ko'proq e'tibor ushbu innovatsion mahsulotlarni baholashga emas, balki bozorni o'rganishga qaratiladi. Bu esa o'z navbatida innovatsion mahsulot ishlab chiqaruvchi korxonalarining yangi mahsulotlari yoki ko'rsatadigan xizmatlarini samarali va muvaffaqiyatlidir bozorga siljитishda innovatsion marketing texnologiyalaridan foydalanishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Investitsion loyihalarni ishlab chiqish jarayonidagi muhim faoliyat sohalaridan biri bo'lib marketing hisoblanadi. Marketing tadqiqotlari asosan talab va raqobat tahlili, haridor xattisharakatlari va iste'molchi extiyojlari, raqobatdosh mahsulotlar tahlilidan iborat.

Talab va bozor tahlili buyicha ishlar quyidagi tarzda tashqil qilingan bo'lishi lozim:

- 1) maqsadli bozor to'zilishini baholash;
- 2) iste'molchilarni va bozorni segmentlashtirishni tahlil qilish ;
- 3) sotish yullarini tahlil qilish ;
- 4) raqobatni tahlil qilish ;
- 5) ijtimoiy-iqtisodiy sohani tahlil qilish ;
- 6) korporativ (ichki) tahlil;
- 7) marketing ma'lumotlarini baholash;
- 8) xulosalar, imkoniyatlar va tavakkalchiliklar.

Bozor to'zilishini aniq bixillashtirish va sifatli tahlil qilish uni tadqiq qilish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Marketing tizimi elementlari o'rtasidagi ahamiyatga molik barcha bog'liqliklarni, ya'ni sanoat to'zilishini (etkazib beruvchilar, korxonalar turi, ishlab chiqarish yoki tarmoqni tashqil qilish ), iste'molchilar tavsifi, bandlik va raqobat xususiyatlari, shuningdek sotish strukturasini baholash va ifodalash juda muhim .

Sotish yo'llari (kanallari) ishlab chiqaruvchini so'nggi iste'molchi bilan bog'lab turuvchi zanjirdir. Bu vositachilik vazifasini odatda o'zlarining marketing vositalaridan foydalanadigan maxsus korxonalar bajaradilar. Bundan tashqari, sotish yullari iste'molchi bilan ishlab chiqaruvchi o'rtasida axborot almashish vositalari hisoblanadi.

Loyiha marketingining xolatini baholashda raqobatchilarning muddaolarini ham xisobga olish lozim. Raqobatchilarni tahlil qilish jarayonida dikkat-e'tiborni asosiy raqobatchilarga yoki xatti-harakatlari o'xshash bo'lgan raqobatchilar guruxiga qaratish lozim. Raqobatchilarning bozordagi xatti-harakatlari 1.6-rasm

Raqobatchilarning kutiladigan ta'sir xususiyatlarini baholash.

Kelgusidagi taraqqiyotni bashorat qilish marketing tadqiqotlaridagi eng muhim va muayyan ma'noda eng murakkab elementlardan hisoblanadi. CHunki u loyiha doirasini ham, zarur resurslarni ham belgilab beruvchi muhim omildir. Bunday bashorat qilish bozordagi talab va takliflar, ko'rib chiqilayotgan bozor ulushi, raqobat sharoitlari va boshqalarga aloqador bo'lган miqdoriy va sifatiy ma'lumotlarga ega bo'lish uchun ham zarurdir.

Marketing tadqiqotlari natijasida olingan tahliliy ma'lumotlar va bashoratlar asosida innovatsion loyihaning marketing strategiyasi ishlab chiqiladi.

Marketing strategiyasining muhim qismlaridan biri bo'lib marketing faoliyatiga sarflanadigan harajatlarning barcha tarkibiy qismlarini o'zida jamlagan sarf-harajatlar hisoblanadi.

Ishlab chiqarish strategiyasi - innovatsion loyihaning ajralmas qismi hisoblanadi. U quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- erner joylashishini asoslash;
- ishlab chiqarish dasturi va ishlab chiqarish quvvati;
- texnologiya va asbob-uskunalarni tanlash;
- umumiyl investitsion harajatlarni baholash;
- zarur mehnat resurslari, jumladan hodimlarni tayyorlash xisob-kitoblari;
- ishlab chiqarish va sotish harajatlarini aniqlash.

Talab va extiyojlar baholanib, loyihaning asosiy strategiyasi belgilanganidan keyin sanoat qurilishi uchun mos keladigan joy va xudud tanlanadi. Joy tanlashda xududlarning bir necha muqobil variantlaridan kelib chiqiladi.

Qurilish uchun maydon tanlashga infrato'zilmaning xolati katta ta'sir kursatadi.

Iqtisodiy va ijtimoiy jixatdan rivojlangan infrastukturaning mavjudligi loyiha uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega. Bu eng avvalo trasport va aloka, suv, elektr energiyasi, yoqilgi, oqava suvlar va chiqindilarni yuqotish tizimidan iborat.

Joy masalasi hal bo'lishi bilanoq, loyihani joylashtirish uchun aniq yer belgilanishi lozim. yer ajratilayotganda quyidagi omillar xisobga olinadi:

- ekologik (tuproq, xavfli o'ziga xosliklar – suvlar va boshqalar);
- atrof-muhitga ta'sir ko'rsatish (cheklashlar);

- infratuzilma;
- yerning qiymati;
- yerni tayyorlash va o'zlashtirish (sarfxarajatlar).

Mahsulotning assortimenti va hajmi asosan bozor talablari va taklif qilinayotgan marketing strategiyasiga bog'liq bo'ladi. Loyihadagi sotish dasturi belgilanganidan keyin ishlab chiqarish dasturi batafsil ishlab chiqiladi. Turli texnologik, ishlab chiqarish va tijorat muamolari tufayli aksariyat loyihalar ishlab chiqarish quvvatidan asta-sekin chiqib ketadi. Tarmoqning xususiyati va mahalliy shart-sharoitlarga bog'liq ravishda dastlabki yillarda ishlab chiqarish va sotish xajmi umumiy quvvatning 50–70% ni tashqil qiladi.

Ishlab chiqarish dasturida oxirgi mahsulotni chiqarish darajasi belgilanganidan keyin har bir bosqich uchun materiallar va ishchi kuchining muayyan extiyolarining miqdori belgilanadi. Texnologiya va qurilmalarni tanlash – bunday tanlash ushbu loyiha uchun mos keladigan variantni tanlash va texnologik muqobilarni baholashga asosan bo'lishi lozim. Ishlab chiqarish dasturi va korxona quvvati belgilanganidan so'ng loyihaning asosiy investitsion extiyoylari uchun kattalik tartibidagi dastlabki baholashni tuzish mumkin.

Ishlab chiqarish dasturi belgilanganidan, texnologik jarayonlar va asbob-uskunalar tanlanganidan so'ng mehnat resurslari belgilanadi. Loyihaning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi turli toifadagi mehnat resurslari: muxandis-texnik hodimlar, asosiy va yordamchi ishchilarni taqozo qiladi. Loyihaning kapital harajatlarini baholash texnologiya, mashina va asbob-uskunalar, bino va inshootlar, boshqa turdag'i ishlar va harajatlar sarfini baholash asosida amalga oshiriladi. Ishlab chiqarish dasturi belgilanib, texnologik jarayonlar va asbob-uskunalar tanlab bo'linganidan keyin mehnat resurslariga bo'lgan extiyoy belgilanadi.

Innovatsiyalar marketingi konsepsiysi butun marketing xizmati, bozorni tadqiq qilish va korxonaning raqobat strategiyasini ishlab chiqishning asosini tashkil etadi. Innovatsiyalarni qidirib topishning boshlang'ich bosqichida marketing bo'linmalarining birinchi darajali vazifasini bajarish:

1. Talab va raqobatning darajasi;
2. Xaridorning xulqi va uning afzalliklarining dinamikasi;
3. Raqobatlashuvchi mahsulotlarning mavjudligi va yangilik bozorida raqobatlashib qolish imkoniyatini o'rganishdan iboratdir.

Marketing strategiyasi, bozoring tahlili va operativ marketing quyidagi 6 printsipli bosqichlardan iborat bo'ladi.

- umumiqtisodiy tahlil;
- iqtisodiy holatning tahlili;
- bozorni tadqiq qilish;
- yangilikning kirib borishi strategiyasini ishlab chiqish;
- marketingning operativ tadbirlari;
- marketingga xaratjatlar va undan olinadigan daromadlarni baholash.

Marketing kontseptsiyasidan shu narsa kelib chiqadiki, innovatsion marketing biznesning strategiyasi, boshqaruv tadbirlari, vazifalari va metodologik asosining yagonaligidan iboratdir.

O'tish iqtisodiyotiga ega mamlakatlar uchun innovatsion marketing asosida yangilikdir. Sanoati rivojlangan mamlakatlarda firmani rivojlanishining marketingi kontseptsiyasi o'n yilliklar davomida faxriy o'rinni egallaydi, bunda ta'kidlash kerakki, innovatsion marketingni ilmiy fan sifatida fujudga kelishi faqat keyingi o'n yilliklarga to'g'ri keladi.

Innovatsion marketing tushuncha sifatida innovatsion marketingdan kengroq, u o'z ichiga tashkilotning vazifikasi, tafakkurning falsafasi ilmiy-tadqiqotlar sohasi, boshqaruv uslubi va xulqni oladi. Bu cheklangan, majbur qilingan novatorlik emas, munosabatlarning alohida turi va hattoki to'liq qabul qilinishidir.

Innovatsion marketing sotsial yo'naltirishga, izdoshlarga ega. Strategik va operativ tashkil qiluvchilar uning eng muhim turlari bo'ladir.

O'zbekiston Respublikasida o'tkazilgan respublika "innovatsion g'oyalar ishlanmalar va texnologiyalar", "sanoat yarmarkasi va kooperatsion birjalar yarmarkasi" da taqdim etilgan ilmiy-

tekshirish ishlanmalari va texnologiyalari, qo'shma korxonalada ishlab chiqarilgan tovar va xizmatlarni sifat qo'rsatkichlari xalqaro ISO IMEK standart talablariga mosligi va O'zbekistonda lokalizatsiya qilingan import o'rnnini bosuvchi va eksportga yo'naltirilgan ko'plab tovarlar ishlab chiqarilmoqda. Xozirgi davrda respublikamiz kundalik hayot va uning dinamikasi o'zgarib bormoqda, bu esa iqtisodni yangilashda marketing tadqiqotlarini natijalarini tahlil qilib yaqin kelajakka va uzoq davrga nisbatan innovatsion strategiyani tanlash, rejalash va amalga oshirishni bu esa O'zbekiston Respublikasining dunyo hamjamiyatida obro'sini oshirishda va iqtisodiyotni yuksaltirishda katta ahamiyat kasb etadi.

Ko'p sonli ma'lumotlar texnika shundan dalolat beradiki, iqtisodiy o'sishning asosiy xarakatlantiruvi kuchi ilmiy-texnik innovatsiyalar hisoblanadi. Bozor iqtisodiyoti sharoitlarida kichik biznes va tadbirkorlik innovatsion jarayonda markaziy rol o'ynaydi. Innovatsiyalar esa texnik taraqqiyot sur'ati yuqori bo'lgan tarmoqlarda asosiy raqobat quroli hisoblanadi. Texnik taraqqiyot va iqtisodiy rivojlanishini qo'llab-quvvatlovchi institatlarga alohida e'tibor qaratgan.

XX-asrning ikkinchi va uchinchi o'n yilliklardiagi dunyoning innovatsion o'zgarishlari ishlab chiqarishning postindustrial iqtisodiy uslubining shakllanishi bilan ifodalanadi. Garchi bu jarayon uzoq muddatli va ziddiyatli bo'lsada, hozirdanoq uning asosiy jihatlari ko'zga tashlanmoqda.

Birinchidan, bu integral iqtisodiy tuzum,  
Bu xususiy mulkchilikka yo'naltirilgan xzar tomonlama raqobatli ko'rinishidir.

Ikkinchidan, bu ko'p ukladli iqtisodiyot bo'lib, unda har bir iqtisodiy uklad unga xos bo'lgan o'rinni egallab boshqa ukladlar ustidan hukumronlik qilmaydi va ular bilan uyg'unlashadi.

Uchinchidan, iqtisodiyotning globallashuv jarayonida davom etib, unga yangi xislatlar baxsh etadi.

Xozirda mavjud bo'lgan uch ta iqtisodiy bino-uy (oila) iqtisodiyoti, mikroiqtisodiyot va makroiqtisodiyot ustiga to'rtinchi qavat global iqtisodiyot ko'riladi.

To'rtinchidan, iqtisodiy dinamika davriyligi o'rta muddatli tsikllar almashinuvida jamiyatni larzaga soluvchi iqtisodiy inqirozlar kabi 21-asrda ham saqlanib qoladi.

Beshinchidan, turli mamlakatlar va ijtimoiy qatlamlarning iqtisodiy rivojlanish darajasi o'rtaida farq va iqtisodiy stratifikatsiyaning kamayishi tendentsiyasi ustunlik qiladi.

Oltinchidan, faoliyat ko'rsatishi va rivojlanishida hukumat va biznesning davlat va tadbirkorlikning hamkorlik modeli ko'zga tashlana boshlaydi. Ikkala tomon ularga xos bo'lgan funksiyalarini bajarib, bir-biridan alohida holda rivojlna olmaydi.

Zamonaviy fan va texnika texnologiya tobora raqobatni bozor kurashiga jalb qilib bormoqda fundamental bilimlar va ularning yakuniy mahsuli ilmiy-texnik mahsulot-iqtisodiyotning globalashuvni sharoitlarida davlatlarning siyosiy manfaatlarini amalga oshirishining muhim omiliga aylamoqda.

O'zbekiston iqtisoditi o'sishining taklif etilgan amalga oshirish bir vaqtning o'zida harbiy-texnologiya kompleksini zamonaviy yuqori texnologiyalar bilan mamlakat qurolli kuchlarini esa yangi avlod harbiy texnikasi, va zamonaviy quroq yarog' namunalari bilan ta'minlash bo'yicha strategik vazifani xal etishga imkon beradi.

Strategik marketing tadqiqotlarini asosiga bozor holatini keyinchalirk bozor segmentlarini ishlab chiqish, talabni tashkil qilish va shakllantirish, xaridoni modellashtirish bilan tahlil qilish qo'yiladi.

Tadbirkorlik firmasi boshidan bozorni egallah segmentlashtirishni kengaytirish va chuqurlashtirish o'zining iste'molchilarini yaratishga qaratilishi kerak. Bozorlar va tashqi muhit omillarini tahlil qilishdan tashqari zamonaviy marketing nafaqat bugungi kunning iste'molchilarini o'rganadi, balki kelajakda ehtimol bo'lganlarini ham shakllantiradi.

Strategik marketing korxonaning marketing va sotsiologiya xizmatlari xodimlarining iste'molchilarining yaqindan aloqasiga kritilgan (anketalar to'ldiri, telefon bo'yicha so'rov, reprezentiv tanlov olishlar va h.k.).

Ko'pgina kichik va o'rta firmalar o'zlarining marketing xizmatlariga ega bo'lishga imkoniyatlari yo'qligi sababli mutaxassislar maslahatlari, ko'rgazmalariga borish, kataloglarni

o'rganish, xaridorlar bilan bevosita aloqani kengroq qo'llashlari kerak. Ishlab chiqaruvchi va xaridor o'rtasidagi doimiy teskari aloqaga asoslangan marketingning majmuaviy turi («Marketing mira») xatarni pasaytirishning eng muvaffaqiyatli yo'li bo'lishi mumkin. Tadbirkor xaridorlarni uning muhiti, xulqi, istaklari, anglab yetolmagan butun turli tumanligiga ko'rinishi kerak.

Nafaqat mahsulotning turli tuman navlarini ishlab chiqarish, balki bir vaqtida harakatlarni yangilarini o'rnini almashtiruvchi va siqib chiqaruvchi modifikatsiyalarini tezroq ilgari surish mAqsadida o'z mahsulotini muddatidan oldin mahalliy eskirishi taktikasini yaratishga jamlanishi kerak.

YAngilikka talabga munosabatga ega makroiqtisodiy omillar, shu jumladan aholi, uni o'sish sur'atlari, aholi jon boshiga daromad va iste'mol, iste'mol narxlarining indeksi, «iste'mol savatchasi», inflyatsiya sur'atlari umumiqtisodiy tahlilga imkon beradilar. Bundan tashqari bunga yuridik va institutsional sharoitlarni o'rganish, hamda bunday mahsulotning import iva eksporti, kvotalashtirish, standartlar bo'yicha cheklashlar, majburiyatlar, soliqlar va subsidiyalar bilan bog'liq qonunchilik amaliyoti ham kiradi. Bunga bunday mahsulotni milliy ishlab chiqarishning mavjud darajasi, importning mavjudligi va imkoniyati, eksportning mavjud darajasi importning o'rnini bosuvchi mahsulotni ishlab chiqarish va to'ldiruvchi yangiliklar haqidagi ma'lumotlarni tahlil qilish zarur.

Iqtisodiy holatning tahlili, hammadan avval, umumholatli tendensiyalar va holatni tashkil qiluvchi omillarni tadqiqot qilish bilan bog'langan. Iqtisodiy holat bu qayta ishlab chiqarishning omillari va sharoitlarning bozorda namoyon bo'lishi va ularning tashqi va ichki muhit bilan o'zaro aloqasining shaklidir. SHundan kelib chiqqan holda, holatni tashkil qiluvchi omillar holatini o'zgarishi dinamikasi, uning yo'nalishi va rivojlanishi sur'atlarini belgilab beruvchi, harakatga keltiruvchi kuchdir. Bu omillarga ham makrota'sirni bu ham ta'sirning aniq sohasini kiritish mumkin, masalan, muhim makroomillarga davraviy iqtisodiy jarayonlar, xususiy lashtirish, soliqlar, byudjet, sotsial ta'minot, amortizatsion ajratmalar tizimi, texnika va texnologiyalar sohasidagi davlat siyo sati elementlari kiradi.

Uлarni bozor jarayonining har xil tomonlariga tegishli bo'lganlar (talab, taklif, narx omillari) ga, kelib chiqishi bo'yicha (iqtisodiy, siyosiy, sotsial, ilmiy-texnik va h.k.), ta'sir qilish yo'naltirilganligining boshqarilishi, oldindan aytilgan bo'lishligi bo'yicha bo'ladilar.

Holatni tashkil qiluvchi omillar uzoq vaqtli (o'n yilgacha) o'rtal muddatli (uch- besh yil) va qisqa muddatli, hamda davraviy, davraviy bo'lмаган, mavsumiy bo'lishlari mumkin. Ayniqsa, tovar bozorining holatini ajaratish kerak. Masalan, makroiqtisodiy omillar ko'proq darajada mashinsozlik va qurilishdagi ishlab chiqarishga, mavsumiy omillar. Oziq-ovqatlar bozoriga va daromadlar darajasi iste'mol talabi tovarlar bozori va uy-joy qurilishiga ta'sir ko'rsatadilar.

Holatni tadqiqotlar asosida bozorni tadqiqot qilishning tizimi qo'rildi, uning asosiy bloklari birinchi rasmda chizmali ravishda ko'rsatilgan.


Bozor (idorali va maydonli)ni tadqiqot qilish bozorning mavjud sig'imini, uning firmali tuzilmasini, segmentlarga bo'linishini, foyda me'yori dinamikasi va yangilikka o'xshash mahsulotlarni sotilishi hajmini faol baholashga asomlangan.

Marketing strategiyasi uchinchi bosqichining asosiy jihat yangilikka iste'molchining javobini batafsil o'rganishga asoslangan yangi tovarga talabni tadqiqot qilish va bashoratlashdлан iboratdir.

Hozirgi sharoitlarda fan, ilg'or texnologiyalar, iqtisodiyotning eng muhim tavsifnomasi bo'lib mamlakatda ishlab chiqarilgan mahsulotlar raqobatbardoshlik darajasini belgilab beradi. Iqtisodiyotimizning yetakchi tarmoqlarini modernizatsiya qilish va texnik yangilash, mamlakatimizning yangi marralarni egallashi uchun kuchli turtki beradigan va jahon bozorida raqobatbardoshligini ta'minlaydigan zamонавиу innovatsiya texnologiyalarini jooriy qilish bo'yicha maqsadni loyihalar o'z ifodasini topadi.


Innovatsion marketingning qoidalariга muvofiq yangi tovarni qabul qilish quyidagi bosqichlardan tashkil topadi:

1. Birlamchi xabardorlik. Iste'molchi innovatsiya haqida xabar topadi, yetarlicha axborotga ega emas.



Yangi tovarni qabul qilish bosqichlaridan tashqari marketologlariga iste'molchilarni ularni yangiliklarga moyilliklari darajasi bonyicha tasniflash zarur. Maslan, kqpgina iste'molchilarga innovatsiyalarni qabul qilishda qandaydir psixologik tqsil vujudga keladi, ammo samarali reklama va marketing tadbirlaridan keyin innovatsiyani qabul qilgan va qabul qilmaganlar qrtasidagi nisbat qzgaradi, birinchilarining soni qat'iy oshib boradi. Keyin e'tibor va tovari iste'molchilar tomonidan qabul qilinishini taqsimlanishi 2-rasmida kqrsatilgan tegishli egri chiziq kqrinishini oladi.

Rasmdan kqrnishicha iste'molchilarning 80 foizidan ko'prog'i ertami yoki kechmi, baribir yangilikni qabul qiladi va iste'molchilarning har xil kategoriyalarda uni qabul qilish vaqtin har xil bo'lsa ham eng kqp sonli guruhnini dastlabki ko'pchilik (34%) va kechga qolgan ko'pchilik (34%) tashkil qiladi.



**2-rasm. Iste'molchilar kategoriyalarining innovatsiyalarning qabul qilinish vaqtini bo'yicha egri taqsimlanishi<sup>3</sup>**

Amalda innovatsiyalarni qabul qilmaydigan iste'molchilar soni 16 %dan kamroq «novatorlar» kategoriyalarni kam sonliligi jamiyatning faqat cheklangan qismiga tovar yangiligidagi

<sup>2</sup> Рычкова Н.В. «Маркетинговые инновации». –М.: КНОРУС, 2009.

<sup>3</sup> Рычкова Н.В. «Маркетинговые инновации». –М.: КНОРУС, 2009.

yuqori ta'sirchanlik va moyillikni kqrtsatadi. +olganlarning innovatsion moyilligini qimmatbaho marketing ishlanmalarini faollashtirish yqli bilan oshirish mumkin.

Yangilik iste'molchilarining alohida kategoriyalari uchun ba'zi bir ta'riflar va izohlar 1-jadvalda berilgan.

1-jadval

### **Innovatsiyalar iste'molchilarini kategoriyalari ularni yangi tovarga moyilliklari bo'yicha tasnif va ta'riflar**

Iste'molchilar kategoriysi	Ulush	Ta'rif
Novatorlar	2,5	Xatarga, yangilikni sinovdan qtkazadilar, bunda tavakkalchilikka yql qcyadilar
Dastlabki izdoshlar	1,5	Qz muhitidagi fikrlarning yetakchilari, yangilikni ehtiyyotkorlik bilan bqlsa ham erta qabul qiladilar
Dastlabki ko'pchilik	34,0	Ehtiyyotkor iste'molchilar, yangilikni qrtachadan oldin qabul qiladilar, ammo kamdan kam yetakchi bqladilar
Kechikkan ko'pchilik	34,0	Ishonchsizlik kayfiyatiga egalar, yangilikni iste'molchilarining kqpchiligi uni sinovdan qtkazganlaridan keyin qabul qiladilar
Qoloqlar	16,0	An'analarga sodiq iste'molchilar.YO yangilikni umuman qabul qilmaydilar, yoki u an'anaviy bqlgandan keyin (yangilik bqlmay qolgandagina) qabul qiladilar

Ta'kidlash kerakki, innovatsiyaning xarakteri uni qabul qilinishi sur'atlariga to'g'ridan to'g'ri bog'liq. Innovatsiyaning ba'zi bir turlari aynan bir kunda ommaviy bo'lib ketadi, boshqachasiga buning uchun uzoq vaqt talab qilinadi. Innovatsiyani qabul qilinishi sur'atlariga beshta ta'rif ta'sir ko'rsatadi:

- usullarning vorisligi va birga bo'la olishligi, yangi qabul qilingan iste'mol boyligi va innovatsiya iste'molchilarining tajribasiga mos kelishi darajasi. Masalan, buxgalteriya hisobi, hisoblash texnikasini innovatsion qo'llash uchun dasturiy mahsulotlarning muvaffaqiyati tizimni iste'molchilarining psixologiyasi va odatlariga, turg'un ishchi tartib va psixologik stressni kamaytirish imkoniyatiga moslashishga bog'liq;

- Murakkablik, ya'ni uning mohiyati va tatbiq etish tamoyillari, hamda foydalanishdan foydani tushunishning nisbatan yoiyinligi;

- innovatsiyani tatbiq etish jarayonini bo'linuvchanligi, ya'ni yangilikni bosqichma bosqich kiritish va natijani asta sekin baholash imkoniyatlari.

- kommunikatsiyaon ko'rgazmalilik, ya'ni iinovatsiyani qo'llashdan foydalilik va foydani tushunarli bayon qilish imkoniyati.

Bu jihatdan quyidagini ta'kidlash kerakki, foydalilagini miqdoran (moddiy) baholash mumkin bo'lган innovatsiyalar ko'pincha umuman ishlab chiqarish tizimini faoliya yuritishini sifatli yaxshilashga qaratilgan innovatsiyaga nisbatan amalda keyingilarning ob'ektiv va sub'ekti foydaliligi g'oyatda kattaroq vositali samarag olib kelishi mumkin bo'lsa ham, birinchi qarashda o'ziga jalg qiladigan ko'rindi.

Innovatsiyalarni bozorga tatbiq etish uchun zarur umumiyl xususiyatlaridan tashqari iste'molchi uchun sifatning aniq ko'rsatkichlari: konstrukturlik ta'riflari, dizayn iste'molchilik xususiyatlari, foydalanish imkoniyatlari, qulaylik va albatta, narx katta ahamiyatga ega.

Yangi tovarga talabning bashorati bozor ishtirokchilari va ularning faoliyati o'rtasidagi o'zaro aloqalari tizimli tadqiqot qilishga asoslangan. Bozor ishtirokchilari: xaridorlar, sotuvchilar, savdo agentlari, vositachilar, brokerlar, imijmeykerlar, reklama agentliklari marketing tizimining elementlari bo'ladi. Yangilikni ishlab chiqaruvchilar va uning yakuniy iste'molchilar o'rtasida vazifaviy o'zaro aloqani o'rnatish bozorni tadqiqot qilishning muhim elementi bo'ladi.

Fan–texnika taraqqiyotining asosiy tarkibiy qismlaridan biri innovatsion faoliyat iqtisodiy rivojlanishining mazkur yo’nalishida faollikni ta’minlovchi omillarni shuningdek, innovatsion jarayonlarni qo’llab–quvvatlovchi va tartibga soluvchi tashkiliy tuzilmalar xususiyatlari o’rganish va ulardan foydalanish hisoblanadi.

Shunday qilib, ta’kidlash mumkinki, hozirgi paytda mamlakatda investitsion faoliyat amalga oshirilayotgan sharoitlar quyidagicha tavsiflanadi:

- qonunchilik tomonidan yaqin, o’rta va uzoq istiqbollarga belgilangan milliy maqsadlar va ularga erishish bo’yicha aniq ifodalangan mexanizmlarning yo’qligi;
- makroiqtisodiy barqarorlik va vazifalariga bo’ysundirilgan davlat strukturalari faoliyati natijalari doim ham texnologik rivojlanishi va innovatsion faoliyatni qo’llab–quvvatlash maqsadlarga mos kelavermasligi, ayrim hollarda unga zid kelishi;
- mamlakatning milliy xavfsizligi, iqtisodiy barqarorligi va rivojlanishi manfaatlarini ta’minalash vositasi sifatida innovatsion faoliyati davlat tomonidan qo’llab–quvvatlashni amalga oshirish ehtiyojlarning siyosiy darajada aniq ifodalananayotganligi.

Ma’lumki, rivojlanishning zamонавија bosqichida innovatsiyalar raqobatbardoshlikni oshirishning eng samarali vositalaridan biri hisoblanadi. Ular yangi tovar va xizmatlarning yaratilishi, yangi bozorlarni o’zlashtirish, investitsiyalar oqimini oshirish hamda barcha turdagи xarajatlarni pasaytirishga olib keladi. SHuning uchun ham innovatsion rivojlanish muammolari inqirozdan keyingi davrda korxonalar faoliyati samaradorligini oshirishning asosi sifatida yuzaga chiqdi. Aynan innovatsion rivojlantirish inqiroz oqibatlarini osonlik bilan yengib o’tish va iqtisodiy ko’rsatkichlarni yaxshilash imkoniyatini kengaytiradi. Bunday rivojlantirishning samarali vositalaridan biri innovatsion marketing hisobolanadi. Innovatsion marketing klassik marketingning ko’p sonli kontseptsiyalaridan biri hisoblanib, u har bir korxona doimo o’z mahsulotini yaxshilashi, uni bozorda siljitim shakli va usullarini takomillashtirib borishi g’oyasini ilgari suradi.

Amaliyotda innovatsion marketingning ikki yo’nalishi: yangi mahsulot marketinggi va mavjud mahsulotni takomillashtirishga yo’naltirilgan vositalari keng qo’llaniladi. Ushbu marketing kontseptsiyasi juda ham samarali hisoblanib, mahsulotni sotishning boshlang’ich bosqichida juda ham qo’l keladi. Chunki bozorni tadqiq qilish asosida joriy etilgan innovatsiyalar kompaniyani ushbu mahsulotni ishlab chiqaruvchi – monopolistga aylantirishi mumkin.

Albatta, kuchli raqobat sharoitida biror mahsulot yoki xizmatlar bo’yicha bozorda monopol holatni egallab turish mushkul. Ammo innovatsion marketing strategiyasini to’g’ri tanlash orqali raqobatchilar orasida liderlik pozitsiyasini ushlab turish mumkin.

Innovatsion marketing yordamida mahsulotni sotish bozori tahlil qilinadi va segmentlashtiriladi, talabni shakllantirish va tashkil etish hamda iste’molchilar xulqini bashorat qilish amalga oshiriladi. Bunda bozorda yangi tovarning paydo bo’lishi, uni tadqiq qilish va u iste’molchilar tomonidan qanday qabul qilinishini prognozlash muhim masala hisoblanadi.

Mahsulotning turi, sifati va ushbu mahsulotga ehtiyoji mavjud iste’molchilar guruhi doimo innovatsion loyiha rahbarining diqqat markazida bo’lmog’i lozim. Bu, o’z navbatida, marketing tizimi barcha ishtirokchilarining o’zaro aloqadorligi va hamjihatlikda faoliyat yuritishi zaruriyatini keltirib chiqaradi. Bozorni o’rganishdan tashqari, innovatsion marketing iste’molchilar haqida ma’lumotlar yig’ish (aholining o’sish sur’ati va daromadlari, huquqiy shart-sharoitlar va mavjud qonunchilik)

amaliyotini o’rganadi. Shuningdek, eksport va import hajmining o’zgarishi, yangiliklarning joriy etilishiga alohida e’tibor qaratiladi. Ma’lumotlar turli xil statistik axborot manbalari, ma’lumotlar bazasi, biznes nashrlar hamda savdo-sanoat palatasi ma’lumotlari va boshqa turli xil idoraviy va ilmiy tahliliy materiallardan olinishi mumkin. Xaridorlar ehtiyojini tahlil qilish va ularni ma’lum bir guruhlarga bo’lish (segmentlashtirish) asosida mahsulotning raqobatbardoshligi va jozibadorligi darajasi aniqlanadi. Olib borilgan barcha analistik tadbirlar natijasida innovatsion marketing strategiyasi shakllantiriladi. Boshqacha so’z bilan aytganda, innovatsion marketing aniq vazifalarni hal qilishga qaratilgan ilmiy-tadqiqot, ishlab chiqarish, tashkiliy, tijorat va moliyaviy tadbirlar majmuasidan iborat innovatsion loyiha hisoblanadi. Mazkur ta’rifdan kelib chiqadigan

bo'lsak, fikrimizcha, korxona va uning mahsuloti raqobatbardoshligini oshirish, uzoq muddatli barqaror rivojlanishnishning innovatsion asoslarini yaratish hamda korxona iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash innovatsion loyihaning asosiy maqsadlari sifatida yuzaga chiqadi. Ushbu maqsadlarga erishish innovatsion loyiha, ayniqsa, innovatsion marketingning yuqori samaradorligini ta'minlash, buning natijasida korxona iqtisodiy ko'rsatkichlarining o'sishiga olib keladi.

Iqtisodiy adabiyotlarda innovatsion marketing innovatsion mahsulotlarni ishlab chiqaruvchilar marketinggi va ularni sotib oluvchilar marketinggiga ham bo'lib o'rganiladi. Ikkinci yo'naliш asosan biror bir korxona yoki tashkilot uchun yangi mahsulotlar, axborot texnologiyalari yoki asbob-uskunalarini sotib olish, innovatsion mahsulot ishlab chiqaruvchilar bilan uzoq muddatli strategik sherikchilik aloqalarini o'rnatishga qaratilgan. Bunda marketing mutaxassislari bevosita innovatsion mahsulot ishlab chiqarish uchun zarur bo'lgan innovatsion komponentlarni izlash va sotib olish bilan shug'ullanadilar.

Bugungi kunda innovatsion marketingni qo'llamasdan turib har qanday biznes sohasida iste'molchilar ehtiyojlarini oldindan ko'ra bilish va uni to'liq qondirish mumkin bo'lmay qoldi. Bunda innovatsion marketing texnologiyalaridan foydalanish nafaqat kompaniyada ishni tashkil etish va uni boshqarish, balki mazkur jarayonlarga ilmiy yondashuvni ham talab etadi. Kuchli raqobat sharoitida xo'jalik sub'ektlarining muvaffaqiyatini marketing faoliyatida o'zlar faoliyat yuritayotgan tarmoqning o'ziga xos xususiyatlarini, bozor mexanizmi elementlari, uning tamoyillari bilan bog'liq ravishda chuqur o'rganmay turib ta'minlash mushkul kechadi. ar bir korxona ma'lum hudud hamda undagi bozor shart-sharoitlarida faoliyat olib boradi va shundan kelib chiqib, marketingning turli vositalaridan foydalanadi. Biroq, bugungi kunda innovatsion marketing texnologiyalari va vositalarining qo'llanilishida jiddiy to'siqlar mavjud. Bu to'siqlarni keltirib chiqarayotgan muammolarni tashkiliy va inson resurslari bilan bog'liq muammolarga ajratish mumkin.

Tashkiliy muammolar sifatida:

- innovatsion taskilotlarni qo'llab-quvvatlash tizimining huquqiy bazasi shakllantirilgan bo'lsada, uning amaldagi tatbig'i talab darajasida emas;
- yirik kompaniyalarda innovatsion g'oyalarni amalga tatbiq etishning nisbatan qiyin kechishi va ko'proq vaqt talab etishi;
- yangi texnologiyalar bozorida to'laqonli raqobat muhiti shakllanmanganligi innovatsion maxsulotlarni sotishda talab ham past bo'lishiga olib kelishini ko'rsatib o'tish mumkin.

Inson resurslari munosabatlaridagi muammolar quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- innovatsion g'oyalarni shakllantirish va amalga oshirishda mutaxasislar yetarli emasligi;
- mahalliy biznes vakillarida texnologik bilimlar yetarli emasligi hisobiga innovatsion loyihalar ishlab chiqishning sustligi;
- ko'pgina kompaniyalarda innovatsion loyihalarni rivojlantirishda rag'batlantirish muhiti yo'lga qo'yilmaganligi va boshqalar.

Hozirgi vaqtida innovatsion marketing kontseptsiyasini muvaffaqiyatli qo'llash ushbu muammolarni ilmiy asolangan holda hal etishni talab qiladi. Ko'pgina iqtisodchilarning fikriga ko'ra, ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatishni innovatsion marketingsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Innovatsion marketing qo'llanilmagan tarmoq yoki soha esa o'z-o'zidan rivojlanishdan va yuksalishdan orqaga qolaveradi.

Yuqorida zikr etilganlardan kelib chiqadigan bo'lsak, zamonaviy innovatsion marketingning asosiy vazifalari sifatida quyigilarni sanab o'tish mumkin:

- marketing tadqiqotlarining yangi usul va vositalarini qo'llash;
- bazorni segmentlashtirishning yangi mezonlarini ishlab chiqish;
- maqsadli segmentlarni egallah va rivojlantirish uchun yangi marketing strategiyalarini shakllantirish;
- mahsulot assortimenti siyosatini doimiy ravishda takomillashtirib borish;
Innovatsiya subyektlarining maxsus ixtisoslik, litsenziya, sertifikatlarga, ba'zi holatlarda xal-qaro va milliy reyting darajalariga ega bo'lishi talab etiladi.

Innovatsion sohada davlat organlarining asosiy funksiyasi quyidagilardan iborat:

- innovatsion vositalarni to'plash;
- innovatsion faoliyatni muvofiqlashtirish; eskirgan tovarlarni ishlab chiqarishga davlat taqiqini joriy qilish, innovatsion tavakkalchilikni sug'urta qilish, innovatsion sohada raqobatni rag'batlantirish;
- innovatsion jarayonda intellektual mulkni himoya qilish tizimining huquqiy bazasini yaratish, innovatsion faoliyatni yetuk kadrlar bilan ta'minlash;

– innovatsion faoliyatning ijtimoiy maqomini ko'tarish, innovatsion jarayonlarni hududiy tartibga solish.

Jahon intellektual mulk tashkiloti bosh direktori Frensis Garri 26 aprel — Xalqaro intellektual mulk kuni munosabati bilan 2012 yilning — «Bashoratchi novatorlar yili» deb e'lon qilinishi bois jahon hamjamiyatiga yo'llagan murojaatida quyidagilarni ta'kidlagan edi: «Har bir buyuk innovatsiya orqasida, u badiiy yoki texnikaviy bo'lsin, inson tarixi turadi, biz shular haqida hikoya qilmoqchimiz. Ayrim kishilarning qiziquvchanligi, oldindan ko'ra bilishi, qat'iyatliliqi tufayli yangi imkoniyat va yo'llar ochiladi. Aka-uka Raytlarning bolalikdan uchish haqidagi g'oyalarga mukkasidan ketishi keyinchalik uchish apparatlarining yaratilishiga olib keldi. ...Stiv Jobsning hamma birday foydalana oladigan oddiy raqamli texnologiyani yaratishni qattiq xohlashi sababli shaxsiy kompyuterlar erasi boshlandi. O'ttiz yilcha o'tganidan keyin esa ko'ngilochar o'yinlar sanoatining yangi paradigmasi ochildi» Xulosa qilib aytganda, innovatsiya jarayonida yuzaga keladigan munosabatlarning ob'ektiv va sub'ektiv xususiyatidan kelib chiqsak, innovatsiya fuqarolik-huquqiy normalarning intellektual mulk institutiga taalluqli sohasidir. Yurtimizda innovatsion faoliyatni rag'batlantirish, uning normativ-huquqiy bazasini mustahkamlash maqsadida «O'zbekistonda davlat ilmiy-texnik siyosat to'g'risida», «Innovatsion faoliyat to'g'risida», «Intellektual mulk obyektlarini muomalaga kiritish to'g'risida»gi qonunlarni ishlab chiqish maqsadga muvofiq. Zero, O'zbekistonning rivojlangan davlatlar qatoridan munosib o'rinn egallashini, yurtimiz kelajagini innovatsiyalarsiz tasavvur etib bo'lmaydi.

Qishloq xo'jalik tovar ishlab chiqaruvchilarini ilmiy yutuqlar, innovatsiyaviy texnologiyalar va xo'jalik yuritish uslublari, ilg'or ishlab chiqarish tajribalari to'g'risidagi axborotlar bilan qurollantirish va ularni takomillashtirish innovatsiyalarni tezlashtirishning amaliyot uchun muhim bo'lgan mexanizmi hisoblanadi. Agrosanoat majmuuning xo'jalik faoliyati yurituvchi sub'ektlariga innovatsiyaviy xizmat ko'rsatish hamda innovatsiyalarni o'zlashtirish bo'yicha qo'llab-quvvatlash vazifasini hozirgi kunda intensiv rivojlanayotgan maslahat berish tizimiga yuklash mumkin, chunki tizim tomonidan axborot resurslarini shakllantirish, ilmiy-texnik yutuqlarni tarqatish va o'zlashtirish mexanizmi ishlab chiqilgan. Qishloq xo'jalik ishlab chiqarishida innovatsiyalar transfertining mohiyati sifatida tashkiliy-iqtisodiy munosabatlar jamlamasи xizmat qiladi.

Transfert (frantsuzcha transfert, lotincha transferre so'zlaridan olingan) – texnologiyalar biror bir axborot kanallaridan foydalangan holda uning shaxsiy yoki jamoaviy tashuvchidan boshqasiga tomon harakatlanishi, demakdir. Texnologiyalar transferti innovatsion jarayoni amalga oshirishning, texnologiyalarni tijoratlashtirishning muhim vositasidir. Innovatsiyalar transferti majmuaviy tushuncha bo'lib, u zarur innovatsiyaviy mahsulotni tovar ishlab chiqaruvchilar tomonidan o'zlashtirish maqsadida qishloq xo'jalik iqtisodiyotining real sektoriga bevosita uzatishgacha bo'lган izlash jarayonini o'z ichiga oladi.

Innovatsiyalar pirovard iste'molchigacha iloji boricha tezroq yetib borishi uchun, jahon amaliyoti tomonidan turli mexanizmlar ishlab chiqilgan. Ularning asosiysi - innovatsiyalar transferti - ya'ni ilmiy-texnik bilimlar va tajribalarni uzatish hisoblanadi. Ikkinci mexanizm innovatsiyalar ishlab chiqaruvchilarining ularni pirovard iste'molchigacha yetkazish bo'yicha mustaqil hatti-harakatlari bilan bog'liq. Ushbu munosabat bilan innovatsiyalar transferti ham ilm-fan, ham amaliyot uchun yanada katta dolzarblikka ega bo'ladi. Innovatsiyalar transferti - yangi qimmatliklarni tashuvchi sifatida, innovatsiyalardan foydalanish huquqini innovatsiyaviy sub'ektning boshqa sub'ektlariga berishdir. Innovatsiyalarning tijorat transferti yangilikni sotishdan daromad olish maqsadida amalga oshiriladi. Innovatsiyalarning notijorat transferti esa, asosan, fundamental tadqiqotlar sohasidagi yangi bilimlar bilan bog'liq. Innovatsiyalar notijorat transfertiga misol tariqasida anjumanlar, simpoziumlar, seminarlar, ko'rgazmalar; maxsus adabiyotlarning axborot massivlari, magnit tashuvchilardagi axborot; olim va mutaxassislar migratsiyasini keltirish mumkin.

Transfert - innovatsiyalar oldinga harakatlanishining asosiy shakli sifatida xizmat qiladi va litsenziyalashtirish; patentlar, texnik hujjatlar, nou-xau, uskunalar lizingi yoki xarid qilinishiga oid

texnologik ma'lumotlar; seminarlar, simpoziumlar, ko'rgazmalardagi axborot ayrboshlash; injiniring va h.larni o'z ichiga oladi. Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishiga innovatsiyalar transfertining iqtisodiy mohiyati - ilmiy-texnik mahsulot ishlab chiqaruvchilar, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi innovatsiyaviy ta'minoti sohasida transfert harakatlarini amalga oshiruvchi tuzilmalar va innovatsiyalar iste'molchilari bo'l mish qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilar o'rtaida yuzaga keladigan tashkiliy-iqtisodiy munosabatlar yig'indisi sifatida namoyon bo'ladi. Texnologiyalar transfertini texnologiyalarni joriy qilish bilan qo'llab yubormaslik lozim, texnologiyalarni joriy qilish - bu transfert bosqichlaridan biridir. Birinchi navbatda fundamental tadqiqotlar, keyinchalik tajriba-konstrukturlik ishlari bajariladi va undan keyingina texnologiyalar joriy qilinadi. Ularning natijasi sifatida biror g'oyalar, ilgari suriladigan va asoslanadigan hisobot xizmat qiladi. Bundan so'ng navbat amaliy ilmiy-tadqiqot ishiga keladi va uning natijasida biz nafaqat hisobot, balki uskuna, asbob, texnologiyaning tajribaviy namunasiga ega bo'lamiz. Amaliy ITIdan keyin tajribaviy-konstrukturlik yoki tajribaviy texnologik ish boshlanadi, uning natijasi sifatida eksperimental namuna va konstrukturlik hujjatlari komplekti xizmat qilib, bu hujjatlar asosida muayyan biror narsa yaratish mumkin bo'ladi. Undan keyingina joriy qilish bosqichiga o'tiladi.

Texnologiyalar transferti ilmiy-texnik xizmat ko'rsatish, texnologik jarayonlarni qo'llash, mahsulot ishlab chiqarish uchun ilmiy-texnik bilimlar va tajribalarni yetkazishdir. Bilim va tajribaning amalda yetkazilganlik mezoni ishlab chiqarish maqsadlari uchun taqdim etilgan texnologiyalarni faol qo'llashdan iborat.

Innovatsiyalar transfertining tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi – innovatsiyaviy mahsulotni tashuvchidan (ishlab chiquvchi, mulkdor) iste'molchigacha bo'lган harakatini ta'minlash bo'yicha innovatsiyaviy faoliyat uslublari va shakllari yig'indisini aks ettiradigan iqtisodiy kategoriyadir.

Innovatsiyalar transfertining tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi, iqtisodiy tizim sifatida ikkita quyi tizimni o'z ichiga oladi: tashkiliy va iqtisodiy. Tashkiliy tizimga tugallangan ilmiy ishlanmalar va boshqa innovatsiyaviy mahsulotni tanlash mexanizmini, innovatsiyaviy-transfert faoliyatini boshqarish va takomillashtirishni kiritish mumkin. Ushbu tizimga O'zbekiston qishloq xo'jaligi ilmiy-ishlab chiqarish markazi innovatsiyaviy resurslarining shakllantirilgan ma'lumotlar bazasini kiritish muallif tomonidan taklif qilinadi. O'zbekiston qishloq xo'jaligi ilmiy-ishlab chiqarish markazi, ilmiy-tadqiqot institutlari, ilmiy-ishlab chiqarish birlashmalari va boshqa respublika qishloq xo'jaligiga tegishli ilmiy va ilmiy-yordamchi tashkilotlar agrar sohada ilmiy-amaliy siyosatni amalga oshiruvchi markaz hisoblanadi. Ilmiy markaz tarkibiga ilmiy-tadqiqot institutlari, ilmiy-tadqiqot markazlari, ilmiy stantsiyalar, institutlar filiallari, tajriba xo'jaliklari va dalalari, tayanch punktlar, markaziy apparat va uning hududiy bo'limlari va boshqalar kiradi. Markaz barcha ilmiy muassasalar va oliy o'quv yurtlari tomonidan amalga oshiriladigan agrosanoat majmuasi sohasidagi ilmiy izlanishlarni muvofiqlashtiruvchi organ sifatida xizmat ko'rsatadi. Markaz o'z ishini Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi, Fanlar Akademiyasi, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qoshidagi fan va texnologiyalar rivojlanishini muvofiqlashtirish bo'yicha Qo'mita va boshqa vazirlik va muassasalar, ilmiy-tadqiqot tashkilotlari va oliy o'quv yurtlari bilan xamkorlikda olib boradi.

Qishloq xo'jaligi sohasidagi loyihalar tanlovi O'zbekiston qishloq xo'jaligi ilmiy-ishlab chiqarish markazi tomonidan amalga oshiriladi, innovatsiyaviy ishlanmalar O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qoshidagi fan va texnologiyalar rivojlanishini muvofiqlashtirish bo'yicha Qo'mita tomonidan tanlov asosida moliyalashtiriladi. Ilmiy tadqiqotlar natijalari Ilmiy-tadqiqot institutlarining tajriba xo'jaliklari va dalalarida sinovdan o'tkaziladi. Ilmiy muassasalar tajriba xo'jaliklari respublika urug'chilik xo'jaliklarini don ekinlari, paxta, sholi, sabzavotlar va boshqa qishloq xo'jaligi ekinlarining elita va superelita urug'lari bilan ta'minlaydi, xo'jaliklar va fermerlarni zotli qoramol bilan ta'minlash bo'yicha ish olib boradi.

O'zbekiston qishloq xo'jaligi ilmiy-ishlab chiqarish markazi tomonidan yakuniga yetkazilgan innovatsiyaviy ishlanmalar to'g'risidagi axborotni tarqatish funktsiyasini axborot-maslahat markazlari zimmasiga yuklash maqsadga muvofiqliqdır. Davlat innovatsiyaviy siyosatini

amalga oshirishning iqtisodiy uslublariga innovatsiyaviy dasturlarni amalga oshirish uchun qulay iqtisodiy sharoitlarni yaratishni kiritish mumkin: Davlat ahamiyatiga ega bo'lgan eng muhim loyihalarni moliyalashtirish, innovatsiyaviy faoliyatni rag'batlantirish va boshqalar shular jumlasidandir.

Respublikada innovatsiyaviy faoliyat davlat tomonidan qonunchilik va egiluvchan soliqqa tortish, davlat va muassasa jamg'armalari, davlat tomonidan moliyalashtiriladigan yirik dasturlar orqali tartibga solinadi. Ustuvor davlat dasturlari bo'yicha innovatsiyaviy loyihalarni amalga oshirish mas'uliyati O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qoshidagi fan va texnologiyalar rivojlanishini muvofiqlashtirish bo'yicha Qo'mita zimmasiga yuklatilgan. Ilmiy sig'imga ega bo'lgan mahalliy innovatsiyaviy texnologiyalarni ilgari surish bilan Iqtisodiyot vazirligi qoshidagi texnologiyalar transferti Agentligi shug'ullanadi, mahalliy innovatsiyalarning Patent himoyasini esa O'zbekiston Respublikasi intellektual mulk agentligi amalga oshiradi. eksport innovatsiyaviy yetkazib berishlar va investitsiyalarni jalb qilish O'zbekiston Respublikasi tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiya va savdo Vazirligi ko'magi bilan amalga oshiriladi. YUqorida bayon etilganlar asosida qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishiga texnik-texnologik innovatsiyalar transfertini tezlashtirish uchun, qishloq xo'jaligi bo'yicha innovatsiyalar transfertining takomillashtirilgan tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi taklif etiladi.

O'zbekiston Respublikasi yuqori iqtisodiy o'sish sur'atiga ega mamlakat sifatida dunyoda eng oldingi o'rnlardan birini egallab turibdi. Bu mamlakatimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning samaradorligi yuqori ekanligidan darak beribgina qolmasdan, milliy xo'jalikning xom ashyo yetkazib berishga ixtisoslashuvi kamayib, ishlab chiqarishning diversifikatsiyalashuv darajasi esa jadal oshib berayotganini tasdiqlaydi. Ammo shuni ham ta'kidlash kerakki, ilg'or ishlab chiqarish texnologiyasining amaliyatga kirib kelishi juda sust kechmoqda. Resurs xarajati yuqoriligicha kolmoqda. Bu, mamlakatimizda qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini agrobiznes tizimiga o'tkazishni taqozo etmoqda.

Mamlakatimizda ko'plab iqtisodchi olimlar tomonidan o'rganilayotgan bu muammo yuzasidan turli fikrlar bildirilmoqda. Lekin, innovatsion tadqiqotlarni o'tkazish va ularning natijasini amaliyatga qo'llash uchun "innovatsion marketing" usullarini o'rganishga kam e'tibor berilmoqda. Ushbu muammoni o'rganish va mamlakatimiz korxonalarida innovatsion marketing usullarini qo'llashni yo'lga qo'yish bugungi kunda eng dolzarb va jiddiy e'tibor talab qiluvchi ilmiy tadqiqot yo'naliшlaridan biri hisoblanadi.

Innovatsiyalar nazariyasida yangi mahsulotlarni yaratish va ularni amaliyatga joriy qilishda ijtimoiy - iqtisodiy omillarning ta'siri va roliga katta e'tibor berilib, mahsulotning bozorda tarqalishi va ommalashuvida qaysi omillar kuchli rol o'ynashi va istemolga ta'sir ko'rsatishi chuqur o'rganilgan. Frantsuz sotsiologi Gabriel Tarde 1903 yilda yozilgan "Imitatsiya qonunları" nomli kitobida nima uchun ayrim innovatsiyalar jamiyatda tez tarqaladi, qolganlari esa e'tiborsiz qolib ketadi, dagan fikrni asoslab bergen. G. Tarde "S" harfi shaklida egri chiziq modelini ishlab chiqqan va ijtimoiy - iqtisodiy omillar ta'siri ostida ijtimoiy yetakchilik fikrini ilgari surgan. G. Tarde fikriga ko'ra, shaxs qanchalik kosmopolitan (dunyoqarashi keng va yangilikka intiluvchan) bo'lsa, u jamiyatga innovatsion yangiliklarning kirib kelishiga shunchalik hayrihoh bo'ladi.

Qishloq xo'jaligida innovatsiyalarning tarqalish (diffuziya) kontseptsiyasi Ayova shtati universiteti (AQSH) professori Bryus Ryan va Nil L. Grosning 1943 yildagi tadqiqotlari – makkajo'horining yangi gibrid navi fermerlar o'rtasida ommaviy lashuviga oid tadqiqotlarida birinchi marotaba chuqur o'rganilgan. Ikkinci jahon urushi tugagandan so'ng Ayova shtatidagi universitetda ishlagan professorlar diqqat-e'tiborlarini qishloq xo'jaligi muammolaridan fermerlar orasidagi insoniy munosabatlarga ko'proq qarata boshlashgan. Bunga yangi mahsulot turlari, turli xil kimyoviy dorilar va mineral o'g'itlar, qishloq xo'jalik mashinalari paydo bo'lishi turtki bergen. Biroq, ayrim fermerlar yangiliklarni qabul qilishni xohlasmaganlar va eski usullar va vositalardan foydalangan holda ish yuritishni afzal ko'rishgan. Nil L.Gros ilmiy tadqiqotlarida miqdoriy usullarni qo'llashga oid yondashuvi bilan nom qozongan olim bo'lgan.

Bryus Ryan va Nil L. Gros erishgan ilmiy yangilik shundan iboratki, ular Ayova shtati fermerlari nima uchun yangi gibrid makkajo'xori navini qo'llashga qarshilik ko'rsatishayotganini

aniqlashda sifat ko'rsatkichlariga emas, miqdoriy ko'rsatkichlarga ko'proq e'tibor berishgan va sababini aniqlashgan. YAngi gibrild makkajo'xori navi avvalgi navlarga nisbatan afzalliklarga ega, jumladan, yashovchan, ya'ni ko'plab kasalliklarga chidamli bo'lgan. Biroq, yangi makkajo'xori navining noqulayligi shundan iborat bo'lganki, u reproduktivlik xususiyatiga ega bo'lmagan. Bu shuni anglatganki, shtat fermerlari uchun makkajo'hori donini sotib olish depressiya davrida qimmat tuyulgan. Natijada, yangi nav fermerlarga ko'proq foyda keltirishiga qaramay, urug'ining narxi tufayli amaliyatga joriy qilishga qiziqish uyg'otmagan va mahsulot bozorda tarqalishiga to'siq bo'lgan. Lekin, vaqt o'tishi bilan yangi gibrild makkajo'hori navi shtat fermerlari o'rtasida keng tarqala boshlagan. Bryus Ryan va Nil L. Gros o'z tadqiqotlarida qaysi sabablarga ko'ra yangi gibrild makkajo'xori navi fermerlar o'rtasida keng tarqaldi, degan savolga javob topishgan. Ularning tadqiqotida «YAngi makkajo'xori navi tarqalishida Ayova shtati fermerlari o'rtasida ommaviy axborot vositalari xabarları asosiy ta'sir kuchiga ega bo'lganmi yoki fermerlarning o'zaro muloqoti natijasida tarqalgan xabarlar ko'proq ta'sir qilganmi?» - degan savol qo'yilgan. Olingan natija shunday xulosa berganki, axborotning ikkala kanali ham turli funksiyani bajargan. Masalan, ommaviy axborot vositalari birlamchi axborot manbai, ya'ni, fermerlarni yangi mahsulot turi bilan tanishtiruvchi vazifasini bajargan bo'lsa, fermerlarning o'zaro muloqoti ular yakuniy qaror qabul qilishiga kuchli ta'sir ko'rsatgan. Bu esa shunday muhim xulosani qilishga imkon bergen: yangi innovatsion mahsulotni amaliyatga joriy qilishda shtat fermerlari o'rtasidagi o'zaro aloqalar asosiy rol o'ynagan, lekin xabar tarqatishda ommaviy axborot vositalariga o'ta bog'liqlik yangilikni joriy etishga kuchli turtki bergen.

O'zbekistonda qishloq xo'jaligi korxonalarining innovatsion faoliyatini jonlashtirishda, ayniqsa, fermer xo'jaliklarining ishlab chiqarishga yangiliklarni olib kirish imkoniyatlarini kengaytirishda diffuziya va kommunikatsiya nazariyalari xulosalaridan foydalanish shart. Chunki, nazariy yondashuvlarni bilmasdan turib potentsial xaridorlar bilan ishlash natija bermasligi aniq. Innovatsiyalar diffuziyasi nazariyasiga oid xulosalarga tayanadigan bo'lsak, respublikamizning qishloq xo'jalik korxonalarida yangi ishlab chiqarish texnologiyalarini ommaviylashtirishda oliy ta'lim muassasalari negizida innovatsion laboratoriyalarni tashkil etish va ularni kerak bo'lgan ofis texnikasi va mutaxassislar bilan ta'minlash lozim. Keyingi bosqichda esa, oliy ta'lim muassasalari professor-o'qituvchilar innovatsion ishlanmalarining 5ta bosqichdan iborat ketma-ketlik asosidagi adaptatsiya tsiklini o'tkazishni yo'lga qo'yish kerak.

Yuqorida bildirilgan fikrlardan kelib chiqib, shunday xulosa qilish mumkin:  
-mamlakatimizda bilimlar iqtisodiyotiga o'tish jarayoni qishloq xo'jaligida ham agrobiznes tamoyillarini keng qo'llashni taqozo etmoqda. Buning uchun fan va ishlab chiqarishning integratsiyalashuvini kuchaytirishga e'tibor qaratibgina qolmasdan, uni kerakli infratuzilma bilan ta'minlash zarur. Bunda oliy ta'lim muassasalari negizida innovatsion laboratoriylar tashkil etishga asosiy e'tibor qaratish lozim; innovatsion mahsulotni ommaviylashtirishda shaxslararo o'zaro muloqotga asosiy e'tibor berish kerak va tadqiqotchiga istemolchilar bilan samarali muloqot modelidan foydalanishni o'rgatish zarur. Model potentsial istemolchilar bilan yuzma-yuz muloqot ko'rinishida tashkil etilishi eng yaxshi samara beradi, deb hisoblash mumkin. Biroq, buning uchun ko'rgazmali vositalardan foydalanishga e'tibor berish kerak. Innovatsion mahsulot yoki yangi ishlab chiqarish texnologiyasini sinovdan o'tkazish jarayoniga jiddiy e'tibor qaratish zarur. Chunki, sinovdan o'tmagan mahsulotni omaviylashtirish uni reklama qilishni ham qiyinlashtiradi.

Innovatsion rivojlanishning metodologik bazasining majburiy elementi sifatida ilmtalab ishlab chiqarishning rivojlanishi darajasi va iqtisodiyotga intellektual resurslarni jalg etish darajasini qayd etish mumkin.

Innovatsion faollikni 3ta daraja bo'yicha tahlil etish mumkin:

1. Global darajada – mamlakatlarning geografik va sotsial-iqtisodiy mezonlariga qarab.
2. Milliy darajada – ma'lum bir mamlakatning rivojlanganlik holati, mavjud muammolar hamda taraqqiyotning kuchli va kuchsiz tomonlariga qarab.
3. Xududiy darajada – mamlakat xududlarining farqlanishiga qarab.

Iqtisodiy rivojlangan mamlakatlar innovatsion rivojlanishi modellarining uch turi farqlanadi:

1. Fanda peshqadamlikka, ilmiy ishlab chiqarish jarayonining barcha bosqichlarini qamrab oladigan, qoida tariqasida, ilmiy-innovatsion imkoniyatlarning mudofa sektoridagi ulushi ancha katta bo'lgan keng ko'lamli maqsadli loyihalarni amalga oshirishga qarab mo'ljal oladigan mamlakatlar (AQSH, Angliya, Fransiya).
2. Innovatsiyalarni tarqatish, qulay innovatsion muhitni yaratish, iqtisodiyot strukturasini oqilonalashtirishga qarab mo'ljal oladigan mamlakatlar (Germaniya, Shvetsiya, Shveytsariya)
3. Innovatsion infratuzilmani rivojlantirish, jahon ilmiy-texnika taraqqiyoti yutuqlariga ta'sirchanlikni ta'minlash, fan va texnologiyalar sohasida turli sektorlarning harakatlarini muvofiqlashtirish yo'li bilan innovatsiyalarni rag'batlantiruvchi mamlakatlar (Yaponiya, Janubiy Koreya).

Iqtisodiyotning innovatsion taraqqiyoti - bu intellektual salohiyat, ishchi va xizmatchilarning kreativ imkoniyatlari, bilimlari, tovar yaratishdan tortib uni ishlab chiqaruvchidan iste'molchiga yetib borgungacha barcha bosqichlar bo'lib, bundagi innovatsiyalar korxona strategik rivojlanishining asosiy resursi bo'lib xizmat qiladi.

Bugungi sharoitda innovatsion, aynan bilimlarga asoslangan, malakali ishchi kuchini o'zida mujassam etgan yuqori fan sig'imiga ega bo'lgan texnologik iqtisodiyot raqobatbardosh bo'ladi.

Innovatsion taraqqiyotda innovatsiyalarning chiziqli modeli bu ishlab chiqilgan fundamental ilmiy g'oyalar amaliy tadqiqotlar bilan bog'liqda bo'lishini anglatadi.

Ayni paytda innovatsiyalarning ko'p sonli manbalari modelida innovatsiyalar innovatsion tizimning istalgan qismida yuzaga kelishi mumkin.

Mamlakat iqtisodiyotini isloh qilish, tarkibiy jihatdan o'zgartirish, milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish bevosita yuqori texnologiyalarga asoslangan ishlab chiqarishni jadal rivojlantirish, faoliyat ko'rsatayotgan quvvatlarni texnik yangilash orqaligina ta'minlanishini rivojlangan xorijiy mamlakatlar tajribasi ko'rsatmoqda. Ma'lumki, iqtisodiyotning raqobatbardoshligi turli soha va tarmoqlarda, mikro va makro ko'lama o'ziga xos shakl va darajalarda namoyon bo'ladi. Bu bosqichma-bosqich milliy mahsulot va xizmatlar raqobatbardoshligini oshirishni, buning uchun real iqtisodiy sektor korxonalari hamda milliy soha va tarmoqlar raqobatbardoshligiga erishishni talab etadi. Demak, ta'kidlab o'tilgan soha va yo'nalishlarda barqaror o'sishni ta'minlashning asosiy omillaridan biri raqobat muhitini yaxshilash hisoblanadi.

Milliy iqtisodiyot raqobatdoshligini oshirishda tarkibiy o'zgartirish va diversifikatsiyalash, sanoatda yuqori texnologiyalarga asoslangan yangi ishlab chiqarish korxonalarini jadal rivojlantirish, faoliyat ko'rsatayotgan quvvatlarni modernizatsiya qilish va texnik yangilash, yalpi ichki mahsulotning energiya va material sig'imini kamaytirish muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Buning uchun albatta, mamlakatda innovatsion faoliyatni samarali tashkil etish va rivojlantirish zarur. Hozirda rivojlangan mamlakatlar innovatsion faollikni oshirish, ya'ni, ishlab chiqarishga innovatsion yondashuv hisobiga sanoat korxonalarini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratgan. Natijada muayyan tarmoqlarda sanoat ishlab chiqarishining samarali amalga oshirilishi evaziga innovatsion faollikni yanada kuchayishi kuzatilmoxda. Chunki sanoat korxonalarida innovatsion mahsulotlar yaratish va xizmatlar ko'rsatish ko'lамини kengayishi o'z navbatida, ishlab chiqarish jarayonining yangi yo'nalishlarini joriy qilish, ish o'rinnlarni tashkil etish hamda tashqi aloqalarning kengayishiga sharoit yaratadi. Buni sanoati o'sib borayotgan xorij mamlakatlari tajribasida ko'rishimiz mumkin.

Hozirgi davrda qishloq xo'jaligini rivojlantirish borasidagi innovatsion yondashuvning asosiy maqsadi, birinchidan, ishlab chiqarishni ilmiy hajmdor yuqori texnologiyalar asosida tashkil etish, inson kapitaliga yo'naltirilayotgan investitsiya va qo'yilmalarning salmog'ini oshirish hamda mamlakatdagi barcha ishlab chiqaruvchi, xizmat ko'rsatuvchi sub'ektlar tomonidan xaridorlarni har qanday yangilikka bo'lgan ehtiyojini qondirish hisoblansa, ikkinchidan, ishlab chiqarishda qo'shilgan qiymatni orttirishdan iborat.

XXI asrga kelib iqtisodiyotning globallashuvi, turli iqtisodiy, xalqaro savdo tashkilotlarining paydo bo'lishi va rivojlanishi jahon bozorida raqobatni tobora kuchayishiga olib keldi. Bu esa "Bozor – fan va ta'lim – ishlab chiqarish – bozor" munosabatlarida ilmiy tadqiqotlar va izlanishlarni amalga oshirishni zaruratga aylantirdi. Chunki dunyo tajribasida xorijiy mamlakatlar rivojlanishning yangi bosqichi hisoblangan innovatsion iqtisodiyotga o'tish yo'lida turli modellar, usullar, uslubiyot hamda vositalardan foydalanish ustuvor o'rinn tutmoqda.

Innovatsion faoliyatni samarali tashkil etish o'z navbatida, fan va ta'limning rivojlanganlik darajasi bilan birga, inson kapitaliga yo'naltirilayotgan investitsiya va qo'yilmalarning salmog'iga bog'liq. Bularning samarasini ilmiy tadqiqot va tajriba-sinov sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni hamda ular tomonidan amaliyatga tatbiq etilayotgan yangiliklarda namoyon bo'ladi. Ma'lumki, ishlab chiqarishni ilmiy hajmdor yuqori texnologiyalar asosida tashkil etish uchun vaqt, investitsiya, energiya, ishchi kuchi kabi resurslar talab etiladi. Bularning orasida eng muhim ishchi kuchining intellektual salohiyati va investitsiya hisoblanadi. Yangilikning ishlab chiqarishiga joriy etilishi, birinchidan, bozorda yangi tovar va xizmatlarning paydo bo'lishiga, ikkinchidan, mahsulotlarning tannarxini pasayishiga hamda rentabellik darajasi ortishiga xizmat qiladi.

Mamlakatimiz real iqtisodiy sektor korxonalarida innovatsion yondashuvni yetarli darajada rivojlanmaganligining asosiy sabablaridan biri tarmoqdagi eskirgan texnologiyalar, ishlab chiqarishda innovatsion yondashuvning sustligi, aylanma mablag'lar hamda zamonaviy boshqaruv mexanizmlarini takomillashmaganligi, investitsiyalarni jalb etishdagi qiyinchiliklar bo'lsa, ikkinchidan, inson kapitaliga yo'naltirilayotgan investitsiya va qo'yilmalar salmog'ini YaIMga nisbatan kamligidir.

Innovatsion rivojlanish muammolari bilan shug'ullanayotgan olimlarning fikricha, ilmiy hajmdor yuqori texnologiyalarni rivojlantirish, ilmiy tadqiqotlar va ishlanmalar uchun YaIMning bir foizidan kam bo'lmagan miqdorda mablag' yo'naltirilishi lozim. O'zbekistonda innovatsiya faoliyati asosan davlat byudjeti mablag'lari hisobiga amalga oshirilmoqda. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, mamlakatimizda ilmiy-texnika dasturlari, ilmiy tadqiqotlar va ishlanmalar uchun 2010 yilda 121,8 mlrd. so'm, 2011 yilda 153,5 mlrd. so'm va 2012 yilda 197,9 mlrd. so'm mablag'lar ajratildi. Bu ko'rsatkich YaIMga nisbatan 2011 yilda 0,19 foizni, 2012 yilda esa 0,2 foizni tashkil etgan. Demak, mamlakatimizda innovatsiyaviy tadqiqotlar va innovatsion texnologiyalarga ajratilayotgan mablag'larni keyingi besh yil ichida YaIMga nisbatan bir foiz miqdoridagi ulushga yetkazish zarur.

Shuning uchun innovatsion faoliyatni faollashtirishda real iqtisodiy sektor korxonalari hamda milliy soha va tarmoqlar tizimi sub'ektlari harakatini bir tomonidan muvofiqlashtirishni, ikkinchi tomondan, innovatsiyani amalga oshirishda investitsiyalarni jalb etish, innovatsiya jarayonini rivojlantirish uchun sharoit yaratishda manfaatdor bo'lgan tarkiblarning integratsiyasini talab etadi. Bu vazifani bajarish davlatning innovatsion siyosatini amalga oshirish tizimiga yuklatiladi va quyidagi vazifalarni bajaradi:

- innovatsion tizimni ustuvor yo'nalishlarini rivojlantirishga moliyaviy resurslarni jalb etish;
- innovatsion tadqiqot va ishlanmalarni amalga oshirish evaziga davlatning eng muhim manfaatlarini ta'minlash, raqobatbardosh tovarlar va xizmatlarni ishlab chiqarishga sharoit yaratish;
- ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirish va uning natijalaridan foydalanishni xalqaro darajaga ko'taradigan innovatsion muhitni ta'minlash;
- mamlakatda fan va fan sig'imi yuqori bo'lgan ishlab chiqarish, intellektual faoliyatning boshqa turlari uchun kerak bo'lgan kadrlar tayyorlash jarayonini isloh qilish, iqtisodiyotni yangi texnika va texnologiya bilan ta'minlash, uni intensiv rivojlantirish uchun kerak bo'lgan kadrlar bilan ta'minlashning asosini yaratish;
- resurslarning cheklanganligini hisobga olgan holda ustuvor tadqiqotlar va ishlanmalarni amalga oshirish maqsadida ilmiy tashkilotlar tarmog'ini isloh etish;
- ilmiy-texnika va bilim olish faoliyatini integratsiyalashuvini ta'minlash;

– fan bilan shug'ullanuvchilar mehnati qadrini oshirish, yoshlarni ilmiy tadqiqotlar bilan shug'ullanishga jalb etish, ilmiy xodim va mutaxassislarni ijtimoiy himoyalash uchun sharoit yaratish;

– yalpi ichki mahsulotning energiya va material sig'imini kamaytirish;

– iqtisodiyotning real sektori korxonalarida innovatsion yondashuv strategiyalaridan samarali foydalanish.

Milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirishda innovatsion faoliyatni rivojlantirish bilan bog'liq tendentsiyalarini chuqur o'rghanish respublikamizda innovatsion muhitni yaxshilash bilan birga, ichki va tashqi bozorlar uchun innovatsion mahsulotlar yetkazib berishda ijobjiy ta'sir ko'rsatadi.

## **AMALIY MASHG'ULOT ISHLANMALARI**

Avstriyalik olim Y.Shumpeter tomonidan beshta tipik o'zgarishlar ajratilgan:

- 1) yangi texnika, yangi texnologik jarayonlar va ishlab chiqarishni yangi bozor ta'minotidan foydalanish (oldi - sotdi);
- 2) yangi xususiyatlarga ega ma'lumotlarni tadbiq etish;
- 3) yangi xom ashayodan foydalanish;
- 4) ishlab chiqarish va uning moddiy – texnik ta'minotini tashkil qilishdagi o'zgarishlar;
- 5) yangi sotish bozorlarini paydo bo'lishi.

Bu qoidalar Y. Shumpeter tomonidan 1911 yildayoq shakllantirilgan. Keyinroq, 30 – yillarda u innovatsiya tushunchasini, uni iste'mol tovarlarining yangi turlari yangi ishlab chiqarish va texnik vositalar, bozorlar tashkil shakllarini sanoatga tadbiq etish va ularda foydalanish maqsadidagi o'zgarish sifatida talqin etgan holda kiritgan. Ba'zida innovatsiyaga jarayonli tizim sifatida qaraladi, shuning bilan yangilik kiritishni vaqtida rivojlanishi va yaqqol aks ettirilgan bosqichliligi tan olinadi.

### **Korxona investitsion faoliyati samaradorligining qiyosiy-tahliliy ko'rsatkichlari**

Korxonalar investstion faoliyati samaradorligini tahlil qilish va uning yangilik kiritishlar va investitsion loyihalarni amalga oshirish hisobiga o'zgarishini belgilash uchun quyidagi ko'rsatkichlardan foydalanish maqsadga muvofiq:

- 1) korxona mulkining daromadning umumiyligi summasi bo'yicha hisoblangan umumiyligi va uni o'tgan yilga nisbatan o'sishi;
- 2) o'z ichiga ishlab chiqarish zaxiralarini oluvchi oborotdan tashqari aktivlarni daromad bo'yicha hisoblangan umumiyligi rentabelliligi va uni htgan yilga nisbatan o'sishi;
- 3) asosiy mablag'lar nomoddiy aktivlar va ishlab chiqarish zxiralarining daromad bo'yicha hisoblangan umumiyligi rentabelliligi;
- 4) korxona mulkning foydaning umumiyligi summasi asosida hisoblangan rentabelliligi, hamda bu ko'rsatkichni o'tgan yilga nisbatan o'sishi;
- 5) korxona mulkining sof daromad bo'yicha hisoblangan rentabelliligi va uni o'tgan yilga nisbatan o'sishi;
- 6) o'z ichiga ishlab chiqarish zaxiralarini oluvchi oborotdan tashqari aktivlarning rentabelliligi va uni o'tgan yilga nisbatan o'sishi;
- 7) asosiy mablag'lar, nomoddiy aktivlar va ishlab chiqarish zaxiralarining sof daromad bo'yicha hisoblab chiqilgan rentabelliligi va uni o'tgan yilga nisbatan o'sishi;
- 8) korxona mulkining sof foya bo'yicha hisoblangan rentabeliligi hamda bu ko'rsakichning o'tgan yilga nisbatan o'sishi;
- 9) o'z ichiga ishlab chiqarish zaxiralarini oluvchi oborotdan tashqari aktivlarning sof foya bo'yicha bo'yicha hisoblangan rentabelliligi hamda bu ko'rsatkichni o'tgan yilga nisbatan o'sishi;
- 10) asosiy mablag'lar, nomoddiy aktivlar va ishlab chiqarish zaxiralarining foy foya bo'yicha hisoblangan rentabelliligi, hamda bu ko'rsatkichni o'tgan yilga nisbatan o'sishi;
- 11) jamg'arma, iste'mol sotsial soha fondlari, rezerv sarmoyalari va dividendlarni to'lashga yo'naltirilgan foydaning rentabelliligi hamda bu ko'rsatkichni o'tgan yilga nisbatan o'sishi;
- 12) o'z ichiga ishlab chiqarish zaxiralarini oluvchi oborotdan tashqari aktivlarning daromadning umumiyligi summasi asosida hisoblab chiqilgan o'zini o'zi qoplashi muddati va bu ko'rastkichni o'tgan yilga nisbatan o'zgarishi;
- 13) o'z ichiga ishlab chiqarish zaxiralarini oluvchi oborotdan tashqari aktivlarning sof daromad asosida hisoblangan o'zini o'zi qoplashi muddati va bu ko'rsatkichni o'tish yilga nisbatan o'zgarishi;

14) asosiy mablag'lar, nomoddiy aktivlar va ishlab chiqarish zaxiralarining daromadlarning umumiyligi summasi asosida hisoblangan o'zini o'zi qoplashi muddati va bu ko'rsatkichni o'tgan yilga nisbatan o'zgarishi;

15) asosiy mablag'lar, moddiy aktivlar va ishlab chiqarish zaxiralarni sof daromad asosida hisoblangan o'zini o'zi qoplashi muddati va bu ko'rsatkichni o'tgan yilga nisbatan o'zgarishi;

16) asosiy mablag'lar, moddiy aktivlar va ishlab chiqarish zaxiralarni sof foyda asosida hisoblangan o'zini o'zi qoplashi muddati va bu ko'rsatkichni o'tgan yilga nisbatan o'zgarishi;

17) ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar)ning 1 so'miga to'g'ri keluvchi uskunalarini saqlab turish va foydalanish va ishlab chiqarish inshootlarini saqlab turishga xarajatlar va bu ko'rsatkichni o'tgan yilga nisbatan o'zgarishi.

Sanab o'tilgan ko'rsatkichlardan ko'pchiligini hisoblash uslubiyoti ma'lum, qiyinchiliklar keltirib chiqarishi kerak emas. Ammo bo'zi bir ko'rsatkichlar bo'yicha tushuntirishlar berish kerak.

YAngilik kiritishlar va investitsion loyihalarning korxona investitsion faoliyati samaradorligiga ta'sirini tahlil qilish uchun sanab o'tilgan ko'rsatkichlarning faqat bir qismidan foydalanish tavsiya etiladi. Masalan, agar investitsiyalar turli yo'nalishdagi xarakterga ega bo'lsalar va investitsion loyihalari, yanglik kiritishlarni amalga oshirishga, hamda qarz va bog'liq jamiyatlar, boshqa tashkilotlarga, 12 oydan ko'proq muddatda tashkilotlarga qarzlar berishga va boshqa uzoq muddatlari kiritmalarga yo'naltirilsalar, unda bu investitsiyalarning korxona investitsion faoliyati samaradorligiga ta'sirini umumlashtirilgan holda baholash uchun quyidagi ko'rsatkichlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir:

- o'z ichiga ishlab chiqarish zaxiralarini oluvchi oborotdan tashqari aktivlarning daromad bo'yicha hisoblangan umumiyligi rentabelligi va un o'tgan yilga nisbatan o'sishi;

- o'z ichiga ishlab chiqarish zaxiralarini oluvchi oborotdan tashqari aktivlarning daromad bo'yicha hisoblangan rentabelliligi va uni o'tgan yilga nisbatan o'sishi;

- o'z ichiga ishlab chiqarish zaxiralarini oluvchi oborotdan tashqari aktivlarning daromad yoki sof daromad bo'yicha hisoblangan o'zini o'zi qoplashi muddati va bu ko'rsatkiyani o'tgan yilga nisbatan o'zgarishi.

Ishlab chiqarilgan mahsulot (ishlar, hizmatlar) ning so'miga to'g'ri keluvchi uskunalarini saqlab turish va foydalanish va ishlab chiqarish inshootlarini saqlab turishga xarajatlar va bu ko'rsatkichni o'tgan yilga nisbatan o'zgarishi.

Agar investitsiyalar yangilik kiritishlar sarmoyalarni tashkil qiluvchi investitsion loyihalarni amalga oshirishga yo'naltirilsalar, unda bu investitsiyalarning korxona investitsion faoliyati samaradorligiga ta'sirini umumlashtirilgan holda baholash uchun quyidagi ko'rsatgichlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir:

- asosiy mablag'lar, nomoddiy aktivlar va ishlab chiqarish zahiralarning daromad va sof daromad asosida hisoblangan rentabelliligi va ko'rsatkichlarni o'tgan yilga nisbatan o'sishi;

- ishlab chiqarish zaxiralarini o'z ichiga oluvchi aborotdan tashqari aktivlarning daromad va sof daromad asosida hisoblangan o'zini o'zi qoplashi muddatlari va bu ko'rsatgichlarni o'tgan yilga nisbatan o'zgarishi.

YAngilik kiritishlar va innovatsion loyihalari innovatsion samaradorligining korxona investitsion faoliyati samaradorligiga ta'sirini tahlil qilishda xarakatlarning umumiyligi summasi va tugallanmagan qurilish bo'yicha xarajatlar miqdoridan xarajatlarning yangilik kiritishlar va innovatsion loyihalarni amalga oshirish bilan asoslangan qismini chiqarib tashlash zarur.

Korxona investitsion faoliyati samaradorligi qiyosiy – tahlili ko'rsatkichlarining tavsiya etilgan tizimi yuqorida bayon qilingan uslubiy yondashishlarni hisobga olish bilan quyidagi masalalarni yechishga imkon beradi:

- yangilik kiritishlar va investitsion loyihalari samaradorligining umuman korxona investitsion faoliyati samaradorligiga ta'sirini belgilash;

- korxona investitsion faoliyati samaradorligini oshirishning ichki rezervlarini aniqlash;

- asosiy texnik – iqtisodiy omillar va soliqqa tortish tizimining korxona investitsion faoliyati samaradorligiga ta'sirini belgilash.

## **Innovatsion va innovatsion loyihalar samaradorligining qiyosiy – taxliliy ko'rsatkichlari**

Innovatsiyalar (yangilik kiritishlar) va investitsion loyihalar samaradorligi qiyosiy – taxliliy ko'rsatkichlarining butun majmuasi uchta guruhga bo'linadi.

Birinchi guruhga yangilik kiritishlar va investitsion loyihalarni amalgaga oshirilishining korxona ishlab chiqarish faoliyati ko'rsatkichlariga ta'sirini tahlil qilish uchun mo'ljallangan ko'rsatkichlar kiritilgan ular yangilik kiritishlar va investitsion loyihalar (ilmiy – texnik tadbirlar) ning ishlab chiqarish samaradorligi ko'rsatkichlari deb ataladilar.

Ikkinci guruhga yangilik kiritishlar va investitsion loyihalarning korxona moliyaviy faoliyati samaradorligiga ta'sirini tahlil qilish uchun mo'ljallangan, yangilik kiritishlar va investitson loyihalarning moliyaviy samaradorligi ko'rsatkichlari deb ataluvchi ko'rsatkichlar kiritilgan.

Uchinchini guruhga yangilik kiritishlar va investitson loyihalarning korxona investitsioln faoliyati samaradorligiga ta'sirini tahlil qilish uchun mo'ljallangan ko'rsatkichlar kiritilgan. Ular yangilik kiritishlar va investitsion loyihalar ilmiy-texnik tadbirlarning investitsion samaradorligi ko'rsatkichlari deb ataladi.

YAngilik kiritishlar va investitsion loyihalar ishlab chiqarish, moliyaviy va investitsion samaradorligining butun majmuasi bundan keyin (qisqartirish maqsadida) ilmiy-texnik tadbirlar iqtisodiy samaradorligini ko'rsatkichlari deb ataladi.

Ilmiy-texnik tadbirlar iqtisodiy samaradorligi ko'rsatkichlarini hisoblash o'rta bosqichda o'tkaziladi:

- birinchidan - ilmiy-texnik tadbirlarning hisobot yilidagi iqtisodiy samaradorligi belgilanadi. Hisoblash natijalaridan ilmiy-texnik tadbirlarni aniq sharoitlarga nisbatan amalgaga oshirishning maqsadga muvofiqligi haqida qaror qabul qilish, ya'ni bu tadbirlarning loyihaviy (hisoblash) samaradorligini sarmoyadorlar talablariga mos kelishi darajasini o'rganish uchun foydalaniladi. SHuning bilan bir vaqtda hisoblash natijalari biznes rejalarini ishlab chiqish va korxona ishi iqtisodiy samaradorligini oshirishning xo'jalik ichki rezervlarini aniqlashda qo'llaniladilar;

- ikkinchidan - hisobot yiliga hisoblashdagi ilmiy-texnik tadbirlarning rejaviy va haqiqiy samaradorligi hisobot ma'lumotlaridan korxona ishi iqtisodiy samaradorligini oshirishning joriy rezervlari (o'tuvchi tejalishi) mo'ljallangan miqdorini belgilash, hamda ilmiy-texnik tadbirlar samaradorligining loyihaviy (hisoblash) ko'rsatkichlarini o'zlashtirilganlik darajasini tahlil qilish uchun foydalaniladi. Joriy rezervning miqdori bunday tadbir yil boshidan tatbiq etilgan degan shartdan qilib chiqish bilan hisoblangan ilmiy-texnik tadbirlarning shartli samaradorligi va tadbir tatbiq etilgan paytdan boshlab hisobot yilining oxirigacha hisoblangan haqiqiy (rejaviy va amaldagi) samaradorlik o'rtasidagi farq sifatida belgilanadi;

- uchinchidan - ilmiy-texnik tadbirlarning ularni tatbiq etilgan paytidan hisobot yilining oxirigacha rejaviy va haqiqiy samaradorligi. Hisoblash natijalaridan ilmiy-texnik tadbirlarning iqtisodiy samaradorligi bo'yicha biznes-rejalarni ishlab chiqish, ularni bajarilishini tahlil qilish, asosiysi esa- investitsion loyihalar va yangilik kiritishlarning korxona ishlab chiqarish, moliyaviy va investitsion faoliyati samaradorligini ta'riflovchi asosiy texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlarga ta'sirini belgilash uchun foydalaniladi.

Ilmiy-texnik tadbirlar samaradorligi ko'rsatkilarini ishlab chiqish uchun ularni amalgaga oshirilishiga sababchi bo'lgan yakuniy rejadan kelib chiqish zarur. SHuning bilan birga ilmiy-texnik tadbirlar samaradorligi ko'rsatkichlari tizimi korxona ishlab chiqarish, moliyaviy va investitsion faoliyati samaradorligi ko'rsatkichlari tizimi bilan to'liq moslashtirilgan bo'lishi kerak.

### **Aniq ilmiy-texnik tadbirlar samaradorligining umumlashtiruvchi ko'rsatkichlari**

1) ilmiy-texnik tadbirlarday foydalanishdan mahsulotlar (ishlar)ning aniq turlarini ishlab chiqarish samaradorligini o'sish sur'ati yoki ilmiy-texnik tadbirlarni amalgaga oshirish hisobiga

mahsulotlarning aniq turlari tannarxini pasayishi foizi<sup>4</sup>. Ushbu ko'rsatkichlar innovatsion loyiha yoki yangilik kiritish quyidagilarni yo'naltirilgan holda qo'llaniladi:

-mahsulotning o'zlashtirilgan turini ularning texnik ta'riflarini o'zlashtirmasdan ishlab chiqarishni kengaytirish;

-texnologiyani takomillashtirish, ishlab chiqarishni mexanizatsiyalashtirish va avtomatlashtirish vositalarini tatbiq etish;

-mehnatni tashkil qilish, ishlab chiqarish va boshqarish usullarini takomillashtirish;

- ishlab chiqarilayotgan mahsulotning sifatini standartlar, texnik shartlar va shartnomalarxurni o'zgartirmasdan oshirish.

Agar analoglari yo'q, butunlay yangi mahsulot o'zlashtirilayotgan bo'lsa, unda uning samaradorligini umumlashtirilgan holda baholash uchun uni korxona tomonidan ishlab chiqarilayotgan barcha mahsulot bo'yicha hisoblab chiqilgan tegishli ko'rsatkich bilan solishtirish uchun (so'mlik mahsulotga xarajatlar ko'rsatkichidan foydalanish kerak);

2) ilmiy-texnik tadbirlarni tatbiq etish natijasida mahsulot tannarxini nisbatan tejalishi;

3) foydani ilmiy-texnik tadbirlarni amalga oshirish natijasida, shu jumladan intensiv va ekstensiv omillar hisobiga o'sishi;

4) qo'shimcha qiymatni ilmiy-texnik tadbirlarni amalga oshirish natijasida, shu jumladan intensiv va ekstensiv omillar hisobiga o'sishi;

5) amortizatsiyani o'z ichiga oluvchi qo'shimcha qiymatni ilmiy-texnik tadbirlarni amalga oshirish natijasida, shu jumladan intensiv va ekstensiv omillar hisobiga o'sishi;

6) daromadni ilmiy-texnik tadbirlarni amalga oshirish natijasida, shu jumladan intensiv va ekstensiv omillar hisobiga o'sishi;

7) qo'shimcha qiymat, foya va daromadni ularni ilmiy-texnik tadbirlarni amalga oshirilishi bilan asoslangan o'sishining umumiyligi hajmidagi intensiv omillar qo'shimcha harakati hisobiga o'sishining ulushi.

### **Ish haqiga xarajatlardan foydalanish samaradorligini ilmiy-texnik tadbirlarni amalga oshirilishidan kelib chiqqan o'zgarishning xususiy ko'rsatkichlari:**

1) aniq ilmiy – texnik tadbirlarni amalga oshirish uchastkalaridagi mehnat unumdarligini o'sish sur'atlari va o'rtacha ish haqini o'sish sur'atlari o'rtasidagi nisbat;

2) aniq ilmiy – texnik tadbirlarni amalga oshirish uchastkasidagi qo'shimcha qiymatni o'sishining har bir foiziga ish haqini qo'shish foizi;

3) o'z ichiga sotsial zaruriyatlarga ajratmalarni oluvchi ish haqiga xarajatlarni aniq ilmiy – texnik tadbirlarni amalga oshirilishi natijasida nisbatan tejalishi;

4) o'z ichiga sotsial zaruriyatlarga ajratmalarni oluvchi ish haqiga xarajatlarni o'zgartirishga qaratilgan aniq ilmiy – texnik tadbirlarni amalga oshirilishi bilan bog'liq intensiv va ekstensiv harakatlar hisobiga foydani o'sishi;

5) o'z ichiga sotsial ajratmalarni oluvchi ish haqiga xarajatlarni o'zgartirishga qaratilgan ilmiy – texnik tadbirlarni amalga oshirishi bilan bog'liq intensiv va ekstensiv xarakatlar hisobiga qo'shimcha qiymatni o'sishi;

6) o'z ichiga sotsial zaruriyatlarga ajratmalarni oluvchi ish haqiga xarajatlarni o'zgartirishga qaratilgan ilmiy – texnik tadbirlarni amalga oshirishi bilin bog'liq intensiv va ekstensiv omillarning harakati hisobida daromadni o'sishi;

7) qo'shimcha qiymat, foya va daromadning o'z ichiga sotsial zaruriyatlarga ajratmalarni oluvchi ish haqiga xarajatlarni o'zgartirishga qaratilgan ilmiy – texnik tadbirlarni amalga oshirilishi bilan asoslangan ularni o'sishining umumiyligi xammadagi intensiv va ekstensiv harakatlar hisobiga o'sishlarini ulushi;

8) xodimlar sonidan nisbatan tejalish.

<sup>4</sup> Управление инновациями. Пер с англ. –М.: Альпина Бизнес Букс, 2008.

**Amortizatsiyaga xarajatlardan foydalanish samaradorligini ilmiy – texnik tadbirdlarni amalga oshirish natijasida o’zgarishining xususiy ko’rsatkichlari:**

- 1) Ilmiy – texnik tadbirdlarni amalga oshirilishi natijasida mahsulotlarning aniq turlari amortizatsiyasiga xarajatlar samaradorligini oshishi (amortizatsion sig’imni pasayishi );
- 2) ilmiy – texnik tadbirdlarning amalga oshirilishi natijasida amortizatsiyaga nisbatan xarajatlarni tejalishi;
- 3) ilmiy – texnik tadbirdlarni amalga oshirilishi bilan bog’liq asosiy ishlab chiqarish fondlari va nomoddiy aktivlardan foydalanish samaradorligini o’zgarishidan kelib chiquvchi intensiv va ekstensiv omillar xarakati hisobiga ko’shimcha qiymat, foyda va daromadni o’sishlari ulushlari;
- 4) qo’shimcha qiymat, foyda va daromadni ularni ilmiy – texnik tadbirdlarni amalga oshirilishi bilan asoslangan, asosiy ishlab chiqarish fondlari va nomoddiy aktivlardan foydflanish samaradorligidagi o’zgarishlarni keltirib chiqaruvchi o’sishlarining umumiy hajmlaridagi intensiv omillar harakati hisobiga shsishlarining ulushlari;
- 5) ilmiy – texnik tadbirdlarni amalga oshirilishi natijasida asosiy ishlab chiqarish fondlari va nomoddiy aktivlarni nisbatan tejalishi.

## **“Qishloq xo’jaligida innovatsion texnologiyalar” fanidan**

### **LOYIHA ASOSIDA O’QITISH TEXNOLOGIYASI**

**“Qishloq xo’jaligida innovatsion faoliyat tushunchasi, innovatsion faoliyat funksiyalari va innovatsiyalar tasnifi” o’quv loyihasi**

#### **PEDAGOGIK ANNOTATSIYA**

**O’quv fani:** «Qishloq xo’jaligida innovatsion texnologiyalar»

**Mavzu:** «Qishloq xo’jaligida innovatsion faoliyat tushunchasi, innovatsion faoliyat funksiyalari va innovatsiyalar tasnifi»

**Qatnashuvchilar:** 1 – kurs magistrлari.

**Ta’lim maqsadi:** Innovatsion faoliyatning rivojlanish tendensiyalarini, yangilik (yangiliklarni joriy etish) xaqida tushunchaga va yangilikni Bozor iqtisodiyoti sharoitida ilmiy–texnikaviy rivojlanishning axamiyatini, innovatsion faoliyat vazifalarini jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida innovatsion faoliyatning axamiyatini o’rganish, bilimiga ega bo’lish va mustahkamlash.

**Rejalashtirilayotgan o’quv faoliyati natijalari** nazariya va amaliyotni bir-biriga bog’lab, chuqur bilimga ega bo’ladilar; tadqiqot tuzilmasini tanlaydilar; tadqiqot orqali faoliyat tahlilini chuqur o’rgana oladilar; o’tkazilgan tadqiqotning tahliliy jarayonini chuqur o’rganadilar; eng asosiy muammoni axborot to’lash uslublari orqali tadqiqot ishini olib boradilar; loyiha faoliyati ko’nikmalari, kommunikativ va taqdimot ko’nikmalariga ega bo’ladilar.

**Bilim va ko’nikmalar,** talabalar loyihani muvaffaqiyatli tugallash uchun *bilishlari kerak*: innovatsion faoliyatning tarixi va rivojlanish tendentsiyalari, yangilik (yangiliklarni joriy etish) xaqida, innovatsion boshqarish innovatsion faoliyat vazifalari bilan ishlash *ko’nikmalar* va guruhlarda birgalikda o’qitish va maqsadga erishish yo’llariga ega bo’lish.

**Turlanish belgilari bo’yicha loyihaga tavsifnomasi:**

- *Loyiha turi:* tadqiqot loyihasi;
- *Fanning mazmunli qismi:* bitta yoki ikkita fan bo’yicha bilim sohasi doirasidagi monoloysiha.
- *Talabalarning loyihaviy faoliyatidagi yo’nalish tavsifi:* bevosita.
- *ishtirokchilar soni:* 2 tadan 6 tagacha.
- *uzoq muddatli :* bajarilishi davomiyligi – 2 oy.

**Loyiha ustidagi ish tartibi:** auditoriyadan tashqari, guruhlarda mustaqil bajaradilar va amaliy mashg’ulot vaqtida taqdimot qiladilar.

**Loyihani baholash:** Guruhli loyihalardagi baholash:

- loyiha (maks. 5 ball);
- hisobot (maks. 5ball) ;
- loyihaning taqdimoti va himoya qilish jarayoni ( maks 10 ball).

**Loyihaviy o’qitishning bosqichlari:**

**Tayyorlov bosqichi:** loyihaga jalb etish; talabalarning faol ishtiroklarini tashkillashtirish – *ma’ruza va amaliy mashg’ulotlarda*.

**Loyihaning bajarilish bosqichi:** *Mustaqil yoki guruhlar bilan, korxonalar tuzilmalarini o’rganib chiqadilar*

*YAkuniy bosqich:* auditoriyada yoki amaliy mashg'ulotlarda bo'lim bo'yicha talabalar taqdimot qiladilar.

**Loyiha bajarilishidagi o'qitish modelining qisqa tavsifi:** loyiha bajarilishi jarayonida quyidagi uslublardan foydalanadilar:

*Bajarish uslubi:* dasturlarni tuzish va bo'limlarini o'rganib chiqish, ishbilarmon o'yinlar, munozara o'tkazish orqali.

*O'rgatish shakli guruhlarda, individual.*

*O'qitish vositalari:* uslubiy ko'rsatmalar, loyihaviy vazifalar va kompyuter vositalari.

## **I. “QISHLOQ XO’JALIGIDA INNOVATSION TEKNOLOGIYALAR, INNOVATSION FAOLIYAT FUNKSIYALARI VA INNOVATSIIYALAR TASNIFI” MAVZUSIDA O’QUV LOYIHASI**

### **Kirish**

Bozor munosabatlari sharoitida oliy ta'lif tizimida mutaxassislarni tayyorlashda chuqur o'zgarishlarga o'z bilim va tajribalari bilan moslasha oladigan, jahon andozalariga javob bera oladigan zamonaliviy kadrlarni yetkazib berish muhim masala hisoblanadi. Innovatsion faoliyatni rivojlanish tendentsiyalarini o'rganish, yangilik va yangilikni joriy etish innovatsion faoliyatni vazifalarini, innovatsion faoliyatning axamiyatini qaror toptirish ko'zda tutiladi.

Loyihaga tegishli muammoning asosi: innovatsion faoliyatning tarixi va rivojlanish tendentsiyalari, yangilik, yangiliklarni joriy etishni **korxonalar misolida o'rganish**.

#### **Muammoning ichida:**

1. Innovatsion faoliyatning rivojlanish tendentsiyalari o'rganiladi
2. Yangilik (yangiliklarni joriy etish) o'rganiladi
3. Yangilik innovatsion boshqarish ob'ekti o'rganiladi
4. Ilmiy–texnikaviy rivojlanishning axamiyati o'rganiladi
5. Innovatsion faoliyat vazifalari o'rganiladi.

### **Loyiha vazifalari**

**Loyihaning maqsadi:** korxonalar misolida yangilik, yangiliklarni joriy etishni o'rganish va ularning ijobiy va salbiy tomonlarini aniqlash

Loyihaning natijaviy holati (mahsuli): “**Qishloq xo’jaligida innovatsion faoliyat tushunchasi, innovatsion faoliyat funksiyalari va innovatsiyalar tasnifi**” mavzusi bo'yicha hisobot tayyorlash

**Loyiha:** mutaxasislar, korxona menejerlari, o'qituvchilar, bakalavr va magistratura bosqichidagi tinglovchilar, shuningdek masofadan tahsil oluvchilar uchun mo'ljallangan.

#### **Loyiha doirasida:**

- *bajarish muddati:* 2 oy (oraliq nazoratlarida taqdim etiladi);  
*qatnashchilar soni:* ikkitadan oltitagacha bo'lgan talabalar.

#### **Loyihaning mazmuni:** .

##### **I. Tadqiqot loyihasining kirish qismi.**

- tadqiqot mavzusining dolzarbligini asoslash, uning muammosi, predmeti va ob'ektini aniqlash.
- tadqiqotning maqsadi va vazifalarini belgilash.
- tadqiqotning axborot manbalarini aniqlash.
- tadqiqot usullarini tanlash.

##### **II. «Boshqarishning tashkiliy strukturasi»**

- innovatsion faoliyat moxiyatini o'rganish;
- innovatsion faoliyat vazifalarini urganish;
- ularning ijobiylarini salbiy tomonlarini taxlil qilish.

### **III. “Boshqarish strukturasini belgilovchi omillar”**

- YAngilik, innovatsion boshqarish ob'ekti;
- Innovatsion menejmentning tarixi;
- ilmiy–texnikaviy rivojlanishning axamiyati

### **IV. “Qishloq xo’jaligida innovatsion faoliyat” tushunchasi, innovatsion faoliyat funktsiyalari va innovatsiyalar tasnifi” mavzusi bo'yicha xulosa va takliflar**

#### **Loyiha bosqichlarini amalga oshirish uchun ish turlari:**

- Mavzuning dolzarbligi, maqsadi va vazifalarini ko'rsatish;
- Ma'lumot manbalari asosida topshiriqlar bo'yicha jadvallarni to'ldirish, tahlil natijalari bo'yicha xulosa va takliflar berish, foydalanilgan manbalar ro'yxatini tuzish.
- Loyihani rasmiylashtirish.
- Hisobotni tayyorlash.
- Loyiha taqdimotini tayyorlash.

**Loyihani taqdim etish shakli: “Qishloq xo’jaligida innovatsion faoliyat” tushunchasi, innovatsion faoliyat funktsiyalari va innovatsiyalar tasnifi” nomli tadqiqot ishi natijalari bo'yicha hisobot.**

#### **Hisobotni tuzish tarkibi:**

1. Loyiha mavzusi.
2. Loyiha maqsadi va yakuniy natija.
3. Ishtirokchilar va ularning faoliyat turlari.
4. Loyiha mavzusi dolzarbligini asoslash.
5. yechiladigan muammoni shakllantirish va asoslash.
6. Topshiriqlar tartibi.
7. Topshiriqni yechish natijasi – loyiha.
8. Foydalanilgan manbalar ro'yxati.

## **II. TALABALAR UCHUN USLUBIY QO'LLANMA**

### **1. Loyiha jarayonidagi faoliyat bosqichlari**

#### ***1 - tayyorlov bosqichi***

1.1. Tadqiqot mavzusining dolzarbligi aniqlanadi:

a) Ushbu yo'nalişda bajarilgan ilmiy tadqiqot ishlari o'rganiladi va mavzuning dolzarbligi asoslanadi.

1.2. Tadqiqotning maqsad va vazifalarini aniqlash.

1.3. Tadqiqot ob'ektini tanlash:

1.4. Loyiha mavzusiga doir axborot manbalari bilan tanishish (o'quv adabiyotlari, moliyaviy hisobotlar va boshqalar).

#### ***2-bosqich. O'quv faoliyatini rejalshtirish***

2.1. Maqsadga erishish ketma-ketligini ishlab chiqing.

2.2. Ish rejasini tuzing (loyihani ishlab chiqish, rasmiylashtirish, uni taqdimotga tayyorlash, hisobotni tuzish bo'yicha topshiriqlarni ishtirokchilar o'rtasida taqsimlang; ularni bajarish va tayyor holatga keltirish muddatini belgilang).

#### **Loyiha bajarilishining ish rejasi**

<b>Ishtirokchi-ning F.I.SH</b>	<b>Topshiriq</b>	<b>Faoliyat turi</b>	<b>Tayyor mahsul ko'rinishi</b>	<b>Bajarilish muddati</b>
	Tadqiqot loyihasining	Tadqiqot loyihasi mavzusining dolzarbligi, maqsadi va vazifalari,	Bajarilayotgan tadqiqot loyihasining	

	kirish qismini tayyorlash	predmeti va obyektini belgilash, tadqiqot usullarini tanlash.	mazmuni to'g'risida ma'lumot beruvchi axborot	
	Innovatsion faoliyatning funksiyalari va tasnifi	yangilik (yangiliklarni joriy etish)ni o'rganish	Ilmiy–texnikaviy rivojlanishning axamiyati	
	Innovatsion faoliyat vazifalarini taxlil qilish	Yangilik kiritishni ijobiy tomonlarini yoritib xulosalar berish.	Yangilik innovatsion boshqarish ob'ekti o'rganib chiqib xorij mamlakatlari boshqaruvning tashkiliy tuzilmasi bilan solishtirish tavsiya qilinadi.	
	Tahlil yakuni bo'yicha xulosa va takliflar	Tahlil yakunlari bo'yicha xulosalar chiqarish, tavsiyalar ishlab chiqish, tahlil yakunlari bo'yicha muhokama natijalarini e'tiborga olib, boshqaruv tizimini takomillashtirishga bag'ishlangan tadbirlar ishlab chiqish.		
	Loyihani rasmiylashtirish	Loyiha ishi natijalarini tayyorlash		
	Loyihalashtirish faoliyati natijalari va loyiha taqdimoti bo'yicha hisobotni tayyorlash	Mavzuning dolzarbligi va muammoni asoslab berish, loyihaning maqsadi va vazifalarini ko'rsatib berish va hokazo.	Hisobot	
	MS Pover Point da loyiha taqdimotini tayyorlash	Taqdimotni umumiy bezashni va slaydlarning mazmuniy o'lchamlarini tanlash, yangi slaydlarni qo'shish va hokazo.	Taqdimot	

### *3-bosqich. Bajarilishi*

#### **A. Tadqiqotning bajarilishi**

- 3.1. Zarur ma'lumotlarni to'plash, tizimga keltirii va tahlil qilish.
- 3.2. Tadqiqot natijalarini rasmiylashtirish (tayyor holatini).

#### **B. Hisobotni tayyorlash**

- 3.3. Mavzuning dolzarbligini asoslash (bir varaqdan ortiq emas).
- 3.4. Loyihangiz maqsadini ko'rsatish: u nima uchun tuzilgan, yakuniy natija qanday bo'ladi va kimga yo'naltirilgan (1-3 jumla).
- 3.5. Loyiha ishtirokchilarini aniqlash. Ular o'rtasida topshiriqlar va ish faoliyatlarini taqsimlash (jadval ko'rinishida).
- 3.6. Siz hal qilmoqchi bo'lgan muammoni ifodalash (5-10 so'z bilan).

3.7. Loyiha topshirig'ini shakllantirish. Topshiriqlar bo'yicha loyiha ishi natijalarini tayyorlash.

3.8. Xulosalar berish, loyihada berilgan takliflarni tatbiq etish zarurligini ko'rsatish (1 varaqdan ortiq emas).

3.9. Foydalanilgan ma'lumotlar manbalarini tayyorlash.

#### **V. Loyihani taqdimotga tayyorlash**

3.10. MS Power Point da taqdimotlarni tayyorlash bo'yicha qo'llanmadan foydalangan holda loyiha taqdimotini tayyorlang.

3.11. Loyiha taqdimotida guruh a'zolari o'rtasida vazifalarini aniqlang.

#### **4-bosqich. Loyihaning ommaviy taqdimoti, himoyasi va baholash**

#### **2. Bajarilgan loyiha va loyihalashtirish faoliyatini baholash**

**Guruh javobi bitta umumiy baholanadi yoki talabalar tomonidan bajarilgan loyihaning alohida qismlari baholanadi:**

- loyiha (maks. 5 ball);
- hisobot (maks. 5 ball) ;
- loyihaning taqdimoti va himoya qilish jarayoni ( maks 10 ball).

#### **Bajarilgan loyiha mahsulini baholash**

	<b>Baholash mezoni</b>	<b>Baholash ko'rsatkichlari</b>
1.	Loyiha mazmunini belgilangan maqsadga muvofiqligi	Belgilangan maqsadga loyiha mazmuni mos kelsa, maks. 3 ball
2.	Loyiha: mavzuga oid bo'lgan yetarli miqdorda, sifatlari axborotdan iborat	erishilgan natijalar maqsadga muvofiq kelsa, maks. 5,0 ball: - yangi; - loyiha vazifasini to'liq aks ettiradi; - keng manbalarga asoslangan
3.	Axborotning rasmiylashtirilishi	Agar axborot talab darajasiga muvofiq kelsa: sarlavha, matn tarkiblashtirilgan bo'lsa, 0,5 ball Namoyish etuvchi material (jadval va chizmalarda) bo'lsa, maks.0,5 ball: - ma'lumot mazmunini to'liq aks ettiradi; - standart talablariga muvofiq rasmiylashtirilgan

#### **Bajarilgan loyiha bo'yicha hisobotni baholash**

	<b>Baholash mezoni</b>	<b>Baholash ko'rsatkichlari</b>
1	2	3
1.	Hisobotni tayyorlash bo'yicha yo'riqnomaga rasmiy ravishda rioya etilishi	Hisobot tuzilmasi yo'riqnomaga muvofiq bo'lsa, maks. 0,5 ball
2.	Tanlangan mavzu asoslanganligi va dolzarbligi	Tanlangan mavzu dolzarbligi daliliy isbotlangan bo'lsa, maks. 0,5 ball
3.	yechimi hal etilayotgan muammoni asoslanganligi	Muammo daliliy asoslangan bo'lsa, maks.0,5 ball
4.	Vazifa va loyiha ishtirokchilarini faoliyat turlarining bayon etilishi	Vazifa va loyiha ishtirokchilarini faoliyat turlari aniq belgilangan bo'lsa, maks. 0.3 ball
5.	Loyiha vazifalarining belgilanishi	Loyiha vazifalarini aniq belgilangan bo'lsa, 0,5 ball
6.	Loyihaning ish rejasini ishlab chiqish	Ish reja ishlab chiqilgan yondashuvlarga muvofiq tuzilgan bo'lsa, 1,0 ball

7.	Vazifalar bo'yicha loyihaning ish natijalarini keltirish	Vazifalar bo'yicha loyiha ish natijalari ishtirokchilarni ko'rsatish bilan, aniq va ravshan keltirilgan bo'lsa, maks. 1,0 ball
1	2	3
8.	Xulosalarni ifodalash	Xulosada taklif va tavsiya etilayotgan loyihani tatbiq etish muhimligini isbotlash bayon etilgan bo'lsa, maks. 1,5 ball
9.	Foydalanilgan manbalar ro'yxatini tarkiblashtirish	Foydalanilgan manbalar ro'yxati bajarilgan vazifalar bo'yicha tarkiblashtirilgan va standart talablariga muvofiq rasmiylashtirilgan bo'lsa, 0,2 ball
10.	Loyiha faoliyatini o'zi baholashi	Tanqidiy baho: - mahsul sifati, - loyiha ustida ishslash: har bir ishtirokchi ishining natjaviyligi, qiyinchilik va uni yengish berilgan bo'lsa, 1,0 ball
11.	Ilovalarning borligi	Ilovalarda loyiha ishtirokchilarining anketalari va loyiha ishining ish materiallari bo'lsa, 1,0 ball

#### **Loyihani MS Power Point da bajarilgan taqdimotini baholash**

	<b>Baholash mezoni</b>	<b>Baholash ko'rsatkichlari</b>
1.	Loyiha taqdimoti bo'yicha yo'riqnomaga rasmiy rioya etish	Yo'riqnomma izchilligi bo'lsa, maks. 2,5 ball
2.	Slaydlarni texnik namoyish etish yo'riqnomasiga rioya etish	Taqdimot tayyorlashda yo'riqnomaga rioya etilgan bo'lsa, 1,0 ball
3.	Taqdimotni rasmiylashtirish qoidasiga rioya etilgan bo'lsa, 1,5 ball	Taqdimotni rasmiylashtirish qoidasiga rioya etilgan bo'lsa, 1,5 ball

#### **Bajarilgan loyihaning og'zaki taqdimoti va bajarilgan loyiha himoyasini baholash**

	<b>Baholash mezoni</b>	<b>Baholash ko'rsatkichlari</b>
1.	Og'zaki taqdimot qoidasiga rasmiy rioya etish	Loyiha ishtirokchilarini tanishtirish bilan boshlanishi; so'zga chiquvchilarni belgilangan vaqtga rioya etishlari (7 – 15 min.); taqdimot vaqtida boadabsizlik holatlariga yo'l qo'yilmasliklari, maks. 0,2 ball
2.	Loyiha himoyasi	Taqdimotda barcha guruh a'zolari ishtirok etган bo'lsa, maks. 1 ball  Javoblar asoslangan, mukammal, aniq bo'lsa, maks. 0,8 ball

### **3. Loyihaning taqdimoti**

#### **3.1. Og'zaki taqdimotning qoidasi:**

- Loyiha taqdimoti o'zi tanishtirish va kirish qismidan boshlanadi: «Men,.....».
- Taqdimotga chiqqan ishtirokchi reglamentga rioya etiladi. Taqdimotning umumiy davomiylig eng kamida: 7-10 daqiqa va eng ko'pida: 15 daqiqa.
- Taqdimot mobaynida har xil e'tirozlarga yo'l qo'yilmaydi.

#### **3.2. MS Power Pointda loyihaning taqdimotini tayyorlashga uslubiy ko'rsatma**

1. Taqdimot quyidagi tavsiflarga ega:

*1.1.Slaydlarning soni: (8 - 12).*

*1.2.Slaydlarning mazmunli parametrlari:*

(1) birinchi slayda loyihaning nomi, mazmuni mualliflarning ismi, guruhning raqami va muddati ko'rsatiladi;

(2) Oxirgi slayda axborotlar va man'lumotlar manbai ko'rsatiladi;

(3) qolgan slaydlarning mazmuni erkin va ishtirokchining ko'nikmalar asosida ko'rsatiladi.

2. Texnik vositalarning qo'llanilishi:

Avtoko'rsatma asosida slaydlar taqdim etiladi, ya'ni sichqonchani bosish borasida.

### **III. LOYIHA USULI ASOSIDA O'QITISH BO'YICHA TEXNOLOGIK XARITA**

O'qitish turi. Vaqt doirasi. Ish bosqichlari	O'qituvchi faoliyatining mazmuni	Talaba faoliyatining mazmuni
	Amaliy mashg'ulot №	
I. Tayyorlov bosqichi. Loyiha mavzusini tanlash.	<p>Talabalarning loyihalashtirish faoliyati mohiyati, uning bo'lg'usi mutaxassislarini tayyorlash va kasbiy bilimlarni oshirishdagi ahamiyati bilan tanishtiradi.</p> <p>Mavzularni taklif etadi, loyihalarni mazmuni haqida so'zlab beradi, yechish doirasini shakllantiradi, ish turlarini sanab o'tadi, ularni natijalarini aytadi.</p> <p>2 tadan 6 ta kishigacha bo'lib guruhlarga birlishish va loyiha mavzusini tanlashni taklif etadi.</p>	<p>Guruhlarga birlashadilar.</p> <p>Mavzu tanlovini muhokama qiladilar va umumiy qaror qabul qiladilar.</p>
1.2. Loyihada topshiriqlar va ish turlarini ko'rsatish	<p>Ma'lumot manbalarini aniqlash, to'plash usullarini tavsiya qiladi.</p> <p>Loyihalashtirish faoliyati va umumiy jarayon natijalarini baholash mezon va ko'rsatkichlari bilan tanishtiradi.</p>	Muhokama qiladilar.
2. Loyiha-lashtirish faoliyatini rejalashtirish	<p>Bajariladigan topshiriqlar va ish turlarini, ularni ishtirokchilar o'rtaida taqsimlashni taklif etadi.</p> <p>Muhokamada maslahatchi sifatida faol ishtirok etadi.</p>	<p>Harakat rejasini ishlab chiqadilar: loyiha bajarilishini yo'nalishi va bosqichlarini aniqlaydilar, guruh a'zolari o'rtaida vazifalarni taqsimlaydilar, hamkorlik usollarini aniqlaydilar.</p>
3. Loyerha-nning bajarilishi	<p>Auditoriyadan tashqari faoliyat</p> <p>Guruh faoliyatini yo'naltiradi, maslahat beradi, ularning faoliyatini faollashtiradi, kuzatadi, ma'lumot manbalarini aniqlashda yordam beradi.</p> <p>Faoliyatlariga bilvosita rahbarlik qiladi.</p>	Ishtirokchilar ishlarni individual topshiriqlar bo'yicha bajaradilar.

4. Natija-larni rasmiylash-tirish	Guruh faoliyatini yo'naltiradi, maslahat beradi, ularning faoliyatini rivojlantiradi.	Natijalarni belgilangan shakl bo'yicha rasmiylashtiradilar.
5. Taqdimot	Amaliy mashg'ulot №	
	<p>Loyiha taqdimotini tashkillash-tirishtiradi: bajarilgan loyihalarining guruhalari bo'yicha taqdimoti ketma-ketligini va reglamentni belgilaydi.</p> <p>Taqdimot boshlanishini e'lon qiladi. Har bir guruh taqdimoti yakunida:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• mazmuni aniqlashtiruvchi va har bir ishtirokchining roli bo'yicha maqsadga yo'naltiruvchi savollar beradi;</li> <li>• kursdoshlarining savollariga javob berish vaqtida qo'llab-quvvatlaydi.</li> </ul>	<p>Guruhal o'z faoliyatlarini natijalarini belgilangan shaklda taqdim etadilar.</p> <p>Savollarga javob beradilar.</p>
6. Natijalar va jarayonni baholash	Hisobot va bajarilgan ishlarni baholaydi	Umumiy muhokama orqali natijalar baholanadi



### III. TA'LIMNING TEXNOLOGIK XARITASI

Ta'lim shakli. Ish bosqichi	Faoliyat	
	o'qituvchiniki	talabalarniki
<b><i>Auditoriya ishi: tayyorgarlik bosqichi</i></b>		
1. O'quv mashg'ulotiga kirish	Mashg'ulot mavzusi va maqsadini aytadi, talabalarning prognoz qilinadigan o'quv yutuqlari ro'yxatini ma'lum qiladi; o'quv mashg'ulotidagi ish tartibi va xususiyatlari, o'quv natijalarini baholash ko'rsatkichlari va mezonlari bilan tanishtiradi	
2. Asosiy bosqich	<p>Loyiha faoliyati mazmuni va uning bo'lg'usi mutaxassisning asosiy vakolatlarini shakllantirishga ta'siri bilan tanishtiradi.</p> <p>Talabalarning loyiha mavzusi bo'yicha bilimlarini dolzarblashti-radi: blitz-so'rov nomasi o'tkazadi yoki savol-javobli shaklni qo'llaydi.</p> <p>Mavzularni taklif qiladi, loyihamiz mazmuni haqida hikoya qiladi, ular doiralarini ifodalaydi, ishlar turlarini aytadi, ularning natijalarini ma'lum qiladi.</p> <p>Guruhlarga birlashtiriladi</p> <p>Evristik suhbat orqali muammoni o'rta ga qo'yadi: muammoli vaziyatni bayon qiladi va talabalarни ziddi-yatlarni aniqlash hamda ularni hal qilish zarurligini bilishga, muam-moni va loyiha mavzusini ifoda-lashga undaydigan savollar qo'yadi</p> <p>Talabalarning loyiha maqsadi va uning vazifalarini ifodalashi bo'yicha munozara yoki fikriy hujum uyushtiradi.</p> <p>Uning kutiladigan natijasi – mahsulot va uning taxminiy foydala nuvchilarini ifodalaydi</p> <p>(talabalarga ifodalashni taklif qiladi)</p>	<p>Guruhlarga birlashishadi.</p> <p>Mavzu haqida umumiy qarorni muhokama etishadi va qabul qilishadi</p> <p>Savollarga javob berishadi; ziddiyatni aniqlashadi, ularni hal qilish zarurligini bilishadi; muammoni va loyiha mavzusini ifodalashadi</p> <p>Loyiha maqsadi va uning vazifalarini ifodalashadi.</p> <p>Loyiha natijasi – mahsulot va uning taxminiy foydalanuvchilarini belgilashadi</p> <p>Loyiha topshirig'ini qo'yadi.</p> <p>Talabalarning uning bilan tanishishi va tushunishini uyushtiradi.</p> <p>Axborot manbalari, uni yig'ish va tahlil etish usullarini tavsiya qiladi.</p> <p>Loyiha faoliyati natijalari va umuman jarayonni baholash rusumlari va mezonlari bilan tanishtiradi</p> <p>Talabalarning loyiha ustida ishlash shaklini tanlashini tashkil qiladi.</p> <p>Loyiha guruhlari shakllantirishini uyushtiradi</p>
		<p>Loyiha topshirig'i bilan tanishishadi.</p> <p>Savollar berishadi</p> <p>Loyiha ustida ishlash shaklini tanlashadi.</p> <p>Guruhlarga birlashishadi</p>

	<p>Guruhi ishi uchun topshiriq beradi, guruhda ishslash qoidalarini eslatadi:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- loyihadagi vazifalar va faoliyat turlarini ajratish, ularni qatnashchilar o'rtasida taqsimlash (guruhi loyihada);</li> <li>- loyiha faoliyati algoritmini ishlab chiqish;</li> <li>- loyiha vazifalarini bajarish, uning natijalarini ifodalash va taqdimot usullari va vositalarini tanlash;</li> <li>- ishchi rejasini tuzish</li> </ul>	<p>Loyiha faoliyatini loyihalashtirish va rejalahtirish bo'yicha guruhlardagi ishni tashkil etishadi: loyihani bajarish yo'naliishlari va bosqichlarini belgilashadi, guruh a'zolari o'rtasidagi funktsiyalarni taqsimlashadi, hamkorlik shakllarini belgilashadi, loyiha vazifalarini bajarish, uning natijalarini ifodalash va taqdimot usullari va vositalarini tanlashadi.</p> <p>Loyiha ishlarining ishchi rejasini vazifalar, ularni bajarish muddatlari, tayyor mahsulot turini va mas'ullarni ko'rsatib tuzishadi</p>
3. Yakunlovchi- baholash bosqichi	<p>Loyiha topshirig'i ustidagi ishning asosiy natijalarini belgilash va loyiha faoliyatini rejalahtirish bo'yicha xulosa chiqaradi.</p> <p>Talabalar e'tiborini loyiha ishlari mazmuniga va loyihaning ijro bosqichida ularni bajarish grafigiga qaratadi.</p> <p>Savollarga javob beradi</p>	Savollar berishadi

#### *Auditoriyadan tashqari ish: ijro bosqichi*

1. Loyihaning bajarilishi. 2. Natijalarning ifodalanishi. 3. Hisobot tuzilishi. 4.Taqdimot tayyorlanishi	Maslahat beradi, guruhlar ishini muvofiqlashtiradi, ular faoliyatini rag'batlantiradi, kuzatadi, axborot manbalarini izlashda yordam beradi, o'zi axborot manbai bo'ladi, loyiha ishlari monitoringi va nazoratini amalga oshiradi	<p>Individual vazifalarga binoan ishlarni bajarishadi. Faol va mustaqil ishslashadi, har kim o'z vazifasiga muvofiq va birgalikda:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- turli manbalardan axborot yig'ishadi, tahlil etishadi va umumlashtirishadi;</li> <li>- tadqiqotlar o'tkazishadi, hisob-kitoblarni bajarishadi;</li> <li>- zaruratga qarab maslahatlashishadi;</li> <li>- oraliq natijalarni muhokama qilishadi;</li> </ul> <p>Hamma olingan natijalarning umumiyligi yig'ilishi va muhokamasini o'tkazishadi.</p> <p>Loyiha mahsulotini ifodalashadi. Hisobot tuzishadi.</p> <p>Loyihadagi yutuqlarning o'zini-o'zi baholash anketalarini to'ldirishadi.</p> <p>Loyiha ishi natijalari taqdimotini rasmiylashtirishadi</p>
---	--	--

#### *Auditoriya ishi: yakunlovchi bosqich*

1. O'quv mashg'ulotiga kirish	Loyihalar taqdimotiga ko'rsatma beradi: guruhlarning bajarilgan loyihalarni taqdim etishi reglamenti va izchilligini belgilaydi. Baholash mezonlari va ko'rsatkichlarini eslatadi. O'zaro baholash jadvallarini tarqatadi		
2. Asosiy bosqich	Taqdimot boshlanishini e'lon qiladi. Har bir guruh taqdimoti yakunlari bo'yicha: - mazmuni bo'yicha aniqlovchi savollar va har bir qatnashchining roli haqida aniq maqsadga qaratilgan savollar beradi; - kursdoshlar savollariga javoblar vaqtida quvvatlaydi va rag'batlantiradi		Guruhanlarning loyiha taqdimoti muhokamasi va o'zaro baholashini uyushtiradi
			Jamoa bo'lib muhokama qilish orqali: taqdimot, olingan mahsulot, loyiha faoliyati natijalarini baholashadi
	Talabalar bilan birga loyiha ustidagi ish jarayoni va yakunlarini muhokama qiladi, notiqlarni rag'batlantiradi, o'z mulohazalarini nazokat bilan bildiradi, agar zarur bo'lsa, ayrim talabalarning yutuqlari va xatolari haqida o'z fikrini individual bildiradi		
3. Yakunlovchi-baholash bosqichi	Loyiha faoliyatining asosiy natijalarini aniqlash bo'yicha xulosa chiqaradi.  Bajarilgan ishning bo'lg'usi professional faoliyat uchun muhimligiga e'tiborni qaratadi.  Guruhanlarning loyiha topshirig'i ustidagi individual ish natijalariga baho beradi. O'zaro baholashga yakun yasaydi.  Loyiha va loyihali ta'lif maqsadiga erishish darajasini tahlil etadi va baholaydi.  Savollarga javob beradi		Natijalar, jarayon, o'zining undagi ishtirotini boshqalar baholarini hisobga olib o'zi baholaydi

### Illova:

1. Innovatsion faoliyat tushunchasiga ta'rif bering?
2. Innovatsion loyiha, innovatsion jarayon tushunchalarinin tushuntiring?
3. Innovatsion tovarni yaratish jarayonining bosqichlari qanday amalga oshiriladi?
4. Innovatsion faoliyatni boshqarish tizimlariga qo'yildigan asosiy talablar nimalardan iborat?
5. Investitsiyalar samaradorligini oshirishning asosiy yo'nalishlaridan qaysilarini bilasiz?
6. Investitsiyalarning qoplanish muddati nima va u qanday aniqlanadi?
7. Respublikada amalga oshirilayotgan eng mashhur investitsion loyihalarni aytib bera olasizmi?

## **“Qishloq xo’jaligida innovatsion texnologiyalar” fanidan**

### **KEYS ASOSIDA O’QITISH TEXNOLOGIYASI**

#### **“Yangi mahsulotni ishlab chiqarish va bozorga chiqarishda marketing yondoshuvi” o’quv keysi**

### **PEDAGOGIK ANNOTATSIYA**

**Fanning nomi:** «**Qishloq xo’jaligida innovatsion texnologiyalar**».

**Mavzuning nomi:** «Yangi mahsulotni ishlab chiqarish va bozorga chiqarishda marketing yondoshuvi»

**Keysning maqsadi:** qishloq xo’jligining yalpi va tovar mahsulotlari, ularni sotish va taqsimlash yo’llari, yalpi mahsulotni ko’paytirish va uning tovarlilik darajasini oshirishga doir bilimlarini shakllantirish va takomillashtirish, ushbu bilimlarini amaliyotda qo’llash ko’nikma va malakalarini tarkib toptirish.

Taqdim etilgan keysning yechimi quyidagi **o’quv natijalarini** olish imkonini beradi:

- yalpi va tovar mahsulotining mohiyatini tushunish;
- yalpi mahsulot hajmi va mahsulotlarning tovarlilik darjasini o’zgarishiga ta’sir ko’rsatuvchi omillarni ajrata olish;
- qishloq xo’jalik mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini yanada oshirish bo'yicha foydalanilmayotgan imkoniyatlarni izlab topish.

**Keysning muvaffaqiyatli hal etilishi uchun talaba bilishi lozim bo’lgan bilim va ko’nikmalar:**

*Talaba bilishi lozim:*

- qishloq xo’jaligi tarmog’ining o’ziga xos xususiyatlarini;
- qishloq xo’jaligi tarmog’ining mamlakatimiz iqtisodiyotidagi o’rnini va ahamiyati;
- qishloq xo’jalik mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini oshirish borasida mamlakatimiz hukumati tomonidan amalga oshirilayotgan islohotlarni;
- yalpi va tovar mahsulotiga oid nazariy tushunchalarni.

*Talaba bajara olishi lozim:*

- iqtisodiy mushohada yurita olish;
- yalpi va tovar mahsulotini tahlil qilish usullarini bilish;
- axborotlarni tanqidiy baholash va qayta ishslash;
- mavjud ma'lumotlar asosida turli bosqichlarni o’zaro taqqoslash ishlarini amalga oshirish.

*Talaba quyidagilarga ega bo’lishi lozim:*

- o’zaro fikr almashuv qobiliyatini;
- munozaralarda ishtirok etish ko’nikmasi;
- guruh bo’lib ishslash ko’nikmasi.

**Keysning tipologik belgilari ko’ra tavsifi:**

Mazkur keys kabinetda hal etiladigan toifasiga kiradi. Undagi vaziyat Surxondaryo viloyati Termiz tumanidagi “YAngiariq” fermer xo’jaligi faoliyatidan olingan. Bu tashkiliy-institutsional, trening ahamiyatidagi keys hisoblanadi. U o’rtacha hajmda bo’lib, maxsus tarkibiy tuzilmaga ega. O’quv mashqlari savol va topshiriqlar ko’rinishida namoyon etilgan.

Didaktik maqsadlariga ko’ra keys muammo, yechim yoki kontseptsiyani ifodalovchi, tahlil qilish va baholashga o’rgatuvchi keyslar toifasiga kiradi.

Mazkur keysdan «Qishloq xo’jaligi iqtisoditi» fanidan maxsus seminar mashg’ulotlarida, shuningdek, «Dehqon va fermer xo’jaliklari iqtisodiyoti», «Iqtisodiy tahlil» fanlaridan qo’shimcha amaliy qo’llanma sifatida foydalanish mumkin.

## **Keysda foydalaniladigan axborot manbalari:**

1. Abdug'aniev A., Abdug'aniev A. A. Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti. Darslik. - T.: ADIB NASHRIYOTI, 2011. -400 bet.
2. Salimov B.T. va boshqalar. Dehqon va fermer xo'jaliklari iqtisodi. Darslik. - T.: O'zbekiston YOzuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti, 2004. - 176 b.
3. Umurzoqov O'.P., Toshboev A.J., Rashidov J., Toshboev A.A. Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti va menejmenti. Toshkent, "Iqtisod-moliya", 2008
4. ekonomika selskogo xozyaystva. Pod red. Kovalenko N.YA. -M.: YURKNIGA, 2004. - 392 str.
5. "Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti" moduli bo'yicha o'quv uslubiy majmua.

## **KEYS STADI**

### **KIRISH.**

**Keysning dolzarbliyi.** Qishloq xo'jaligi – O'zbekiston iqtisodiyotining muhim tarmog'i hisoblanadi. Bu tarmoq mamlakatimiz aholisining oziq-ovqat mahsulotlariga, qayta ishslash sanoati tarmoqlarining esa xomashyoga bo'lgan talabini qondiradi. Mamlakatimiz aholisining qariyb yarmi qishloq joylarda istiqomat qiladi. Ularning turmush farovonligi ham bevosita mazkur tarmoqda amalga oshirilayotgan islohotlarning samarasiga bevosita bog'liq. Qishloq xo'jaligi tarmog'idagi asosiy tadbirkorlik sub'ektlaridan biri – fermer xo'jaliklari bo'lib, ularning faoliyati rivojlanishi, ularda qishloq xo'jaligi yalpi mahsuloti shlab chiqarish hajmini oshirish orqali mamlakatimiz oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, aholi turmush farovonligini ta'minlash mumkin.

**Keysning maqsadi:** qishloq xo'jaligining yalpi va tovar mahsulotlari, ularni sotish va taqsimlash yo'llari, yalpi mahsulotni ko'paytirish va uning tovarlilik darajasini oshirishga doir bilimlarini shakllantirish va takomillashtirish, ushbu bilimlarini amaliyotda qo'llash ko'nikma va malakalarini tarkib toptirish.

### **VAZIYAT BAYONI.**

Surxondaryo viloyati Termiz tumanidagi "Yangiariq" fermer xo'jaligi 2007 yilda tashkil etilgan bo'lib, 125 hektar yeri bor. Shu yer maydonining 56 hektariga paxta va 53 hektariga bug'doy ekilgan. Qolgan 16 hektarmaydonda esa yangi anorzor bog' tashkil etilgan.

Fermer xo'jaligi rahbari 67 yoshda bo'lib, uning 3 nafar farzandi bor. To'ng'ich farzandi Toshkent shahrida istiqomat qiladi va Moliya vazirligida ishlaydi. Ikkinci farzandi yaqinda Germaniyada texnolog mutaxasisiligi bo'yicha magistraturani tamomlab keldi. U Germaniyada Rossiyalik qishloq xo'jalik mahsulotlari savdosи bilan shug'ullanuvchi yirik tadbirkorning farzandi bilan birga tahsil olib, do'stlashib qoldi. Kichik farzandi esa kasb-hunar kolleji o'quvchisi.

Fermer xo'jaligi Termiz shahridan 12 km uzoqlikda joylashgan bo'lib, M-39 trassasiga yaqin joylashgan. Fermer xo'jaligining maydonlariga SUV nasoslar yordamida chiqariladi. Fermer xo'jaligining 1 dona TTZ-80X traktori mavjud bo'lib, shlab chiqarilganiga 18 yil bo'lган. Fermer xo'jaligida yetishtirilgan yalpi hosil to'g'risidagi ma'lumotlar quyidagi jadvalda keltirilgan:

Mahsulotlar	Ekin maydoni, ga		Hosildorlik, ts/ga		YAlpi hosl, tonna	
	2014 yil	2015 yil	2014 yil	2015 yil	2014 yil	2015 yil
Paxta xom ashyosi	52	56	34	30	177	168
Bug'doy	57	53	55	58	313	307

Fermer xo'jaligi 2014 yilda 1 kg paxta xom ashyosini o'rtacha 875 so'mdan, 1 kg bug'doyni esa o'rtacha 457 so'mdan sotgan. Ushbu ko'rsatkichlar 2015 yilda mos ravishda 1038 so'm va 520 so'mni tashkil etgan. Fermer xo'jaligining rentabellik darajasi 2014 yilda 4 foizni, 2015 yilda esa 2 foizni tashkil etgan.

Fermer xo'jaligi rahbari farzandlari bilan fermer xo'jaligining kelgusida faoliyatini davom ettirish yoki uni tugatish masalasini muhokama qilmoqchi.

**Keys vazifasi:** fermer xo'jaligida yalpi mahsulotni yanada ko'paytirish va uning tovarlilik darajasini oshirish, samaradorligini yuksaltirish bo'yicha foydalanilmayotgan imkoniyatlarni topish; fermer xo'jaligining faoliyatini rivojlantirish.

#### **Topshiriqlar:**

1. Qishloq xo'jaligida yalpi mahsulot shakllanishining o'ziga xos jihatlarini ko'rsating.
2. Yalpi mahsulot hajmini oshirishda ta'sir ko'rsatuvchi ichki va tashqi omillarni bayon qiling.
3. Fermer xo'jaligida 2014 va 2015 yillardagi yalpi mahsulotni toping.
4. Fermer xo'jaligida yalpi mahsulotni omilli tahlil eting.
5. Fermer xo'jaligining yalpi mahsulot miqdorini ko'paytirish va uning tovarlilik darajasini oshirishni SWOT texnologiyasidan foydalanib tahlil eting.
6. Fermer xo'jaligi rahbariga tegishli tavsiyalaringizni bering.

## **TALABALAR UCHUN USLUBIY KO'RSATMALAR**

### **"Qishloq xo'jaligining yalpi va tovar mahsuloti, ularni ko'paytirish yo'llari" mavzusi bo'yicha asosiy tushunchalar**

**Qishloq xo'jaligining yalpi mahsuloti** – bir yil mobaynida tarmoqda yetishtirilgan barcha mahsulotlar qiymatining puldag'i ifodasi. YAlpi mahsulot tarmoqning, korxonaning bir yillik faoliyatini ifodalovchi umumiy ko'rsatkichdir.

**Qishloq xo'jaligi yalpi mahsulotining tarkibi** - ikki iborat bo'ladi: tayyor mahsulot va tugallanmagan ishlab chiqarish xarajatlari.

**Tayyor mahsulot** - qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi jarayonida bir yil davomida yetishtirilib, yig'ishtirilib, hisobga olingan, taqsimlashga va sotishga tayyor bo'lgan mahsulotlar qishloq xo'jaligining tayyor mahsuloti hisoblanadi.

**Tugallanmagan ishlab chiqarish xarajatlari** - kelgusi yillarda mahsulotlar yetishtirish uchun joriy yilda sarflanadigan xarajatlari tugallanmagan ishlab chiqarish xarajatlari deb ataladi. Masalan, kuzgi bug'doy yetishtirish uchun mamlakatimiz sharoitida oktabr oyidan boshlab ko'plab xarajatlari qilinadi. Jumladan, yerlarni shudgorlash, tekislash, urug'lik, o'g'it, yoqilg'i-moylash materiallari, mehnat haqi sarfi va hokazo. Lekin mahsulot keyingi yilda tayyor bo'ladi.

**Qishloq xo'jaligi yalpi mahsuloti hajmining o'zgarishiga ta'sir ko'rsatadigan omillar** - qishloq xo'jaligi mahsulotlarining ishlab chiqarish hajmi; qishloq xo'jaligi mahsulotlarining baholari darjasи; qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish tarkibining o'zgarishi.

**Tovar mahsuloti** – qishloq xo'jaligi tarmog'idagi tadbirkorlik sub'ektlari tomonidan sotish maqsadida ishlab chiqarilgan mahsulotlar.

**Tovarlilik darajasi** - sotilgan mahsulot qiymatini jami yetishtirilgan mahsulotning miqdoriga taqsimlab, natijani 100 ga ko'paytirish orqali topiladi. Qishloq xo'jalik mahsulotlarining tovarlilik darjasи turlicha bo'lishi mumkin. Ayrim texnika ekinlarini qishloq xo'jalik korxonalarining o'zida qayta ishslash yo'lga qo'yilmaganligi sababli ularning tovarlilik darjasи 100 foizga teng bo'ladi. Masalan, paxta xomashyosi, kanop va boshqalar. Ayrim mahsulotlar esa faqat ichki talablarni qondirish maqsadida yetishtirilishi mumkin. Bunday hollarda ularning tovarlilik darjasи aniqlanmaydi. Jumladan, chorva mollari uchun ozuqa sifatida yetishtirilgan yem-xashak va boshqalar.

**Qishloq xo'jalik korxonalarida yetishtirilgan mahsulotlarni sotish yo'nalishlari** - ikki guruhga bo'linadi: davlat buyurtmalari asosida davlatga qarashli tayyorlov tashkilotlariga sotish; erkin ravishda sotish.

**Qishloq xo'jalik mahsulotlarini erkin sotish** - tayyorlov korxonalariga shartnomaviy baholarda otish, ulgurji baholarda birjalar orqali sotish, chakana baholarda dehqon bozorlari, turli yarmarkalar, ichki sotish tizimi orqali sotish kabi yo'nalishlarda amalga oshiriladi.

**Qishloq xo'jalik korxonalari tomonidan yetishtirilgan mahsulotlarining taqsimlanish yo'nalishlari** - ikki guruhga ajratiladi: xo'jalikning ichki ehtiyojlari uchun; ijtimoiy maqsadlarda.

**Xo'jalikning ichki ehtiyojlari uchun taqsimlash** - urug'likka, ozuqa fondiga, mehnat haqiga, umumiyl ovqatlanishga, zahira fondiga va boshqa maqsadlarga sarflanadi.

**Ijtimoiy maqsadlar uchun taqsimlash** - kam ta'minlangan oilalar va boquvchisini yo'qtganlarga moddiy yordam sifatida, bolalar bog'chalariga, shifoxonalarga va turli tadbirlarga homiylik sifatida sarflanishi mumkin.

**Qishloq xo'jalik yalpi mahsulotini ko'paytirish usullari** - ekstensiv usul va intensiv usul.

**Ekstensiv usulda yalpi mahsulotni ko'paytirish** - ekin maydonlarini, chorva hayvonlari bosh sonini ko'paytirish hisobiga yalpi mahsulot hajmini ko'paytirish.

**Intensiv usulda yalpi mahsulotni ko'paytirish** - foydalanilayotgan yerlarning unumdorligini oshirish, fan-texnika yutuqlari, samarali texnologiyalarni ishlab chiqarishga joriy etish natijasida mavjud resurslardan oqilona foydalanish, ularning unumdorligini yuksaltirish, urug'chilik va naslchilik ishlarini rivojlantirish asosida qishloq xo'jalik ekinlari hosildorligi va chorva hayvonlarining mahsuldorligini oshirish orqali yalpi mahsulot miqdorini ko'paytirish.

### Keysni hal etish algoritmi.

**1. Fermer xo'jaligida 2014 va 2015 yillardagi yalpi mahsulot hajmini aks ettiruvchi jadvalni to'ldiring.**

Mahsulotlar	2014 yil	2015 yil
Paxta xom ashyosi		

Bug'doy		
Jami:		

**2. Fermer xo'jaligida yalpi mahsulotning omilli tahlili jadvalini to'ldiring.**

Mahsulot	2014 yil	2015 yil	O'zgarish, + , -	Shu jumladan omillar hisobiga		
				Ekin maydoni o'zgarishi	Hosildorik o'zgarishi	Mahsulot narxi o'zgarishi
Paxta xom ashyosi						
Bug'doy						

**3. Fermer xo'jaligining yalpi mahsulot miqdorini ko'paytirish va uning tovarlilik darajasini oshirishni SWOT tahlil qiling.**

**“SWOT - tahlil” jadvali**

<b>S</b> (kuchli tomoni)	<b>W</b> (kuchsiz tomoni)
<b>O</b> (imkoniyatlar)	<b>T</b> (tahdidlar)

**4. Fermer xo'jaligida yalpi mahsulotning omilli tahlili jadvali va fermer xo'jaligining yalpi mahsulot miqdorini ko'paytirish va uning tovarlilik darajasini oshirish bo'yicha SWOT tahlili natijalaridan kelib chiqqan holda tegishli tavsiyalaringizni bering.**

**2. Talabalarning keys-stadi bilan mustaqil ishlashi bo'yicha ko'rsatma**

Ishni bajarish bosqichlari	Tavsiya va maslahatlar
1. Keys bilan tanishuv	Dastlab keys bilan tanishib chiqing. O'qish davomida holatni darhol tahlil qilishga urinmang.
2. Keltirilgan holat bilan tanishuv	Axborotni yana bir bora diqqat bilan o'qib chiqing. O'zingiz muhim deb hisoblagan o'rirlarni belgilab oling. Holatni bayon etishda qo'llanilgan dalillarni sanab o'ting.
3. Asosiy muammoni asoslash, shakllantirish va ochib berish	Asosiy muammo nimadan iborat?
4. Holatni diagnostika va tahlil qilish	Muammo qanday darajada hal etilishini aniqlang. Savolga javob bering: muammoni mazkur sharoitda hal etish mumkinmi?

5. Muammoni hal etish usul va vositalarini tanlash va asoslash	Muammoni hal etish yo'llarini ko'rsating va asoslang.
--	---

Keys bilan ishslash natijalarini tezis shaklida yozma holda ifodalang.

#### **Yozma ish talablari**

1. Ish tezis shaklida A4 standart o'lchamdagи qog'ozning bir tomonida yozilgan bo'lishi kerak (3 betdan oshmasligi lozim).
2. Ishni rasmiylashtirish:
  - birinchi betning yuqoridaн o'ng tomonida talabaning ismi-sharifi, familiyasi va guruh raqami yozilgan bo'lishi kerak;
  - quyida o'rtadan keys mavzusining nomi yoziladi;
  - davomidan keys bilan ishslash natijalari tezis shaklida bayon etiladi.

### **3. Keys bilan ishslashni baholash mezonlari (auditoriyadagi va auditoriyadan tashqari mustaqil ish)**

#### **Auditoriyadan tashqari mustaqil yozma ishni baholash ko'rsatkich va mezonlari**

Talabaning F.I.SH.	Baholash ko'rsatkich va mezonlari (ballarda)			
	1. Asosiy muammo shakllantiril-gan, tahlil qilingan va ochib berilgan (max. 6)	2. Muammoni hal etish darajalari belgilangan (max.4)	3. Muammoni hal etish yo'llari aniqlangan va asoslab berilgan (max.5)	Jami (max. – 15)
1.				
2.				
3.				
4.				

#### **Auditoriya ishi (munozara)ni baholashning ko'rsatkich va mezonlari**

Ishtirokchi-larning F.I.SH.	Baholash ko'rsatkich va mezonlari (ballarda)				
	Munozarada o'z fikrlarini bayon etishning izchilligi, mantiqiyligi, aniqligi, dalillar bilan asoslanganligi (max.1)	Muammoni hal etish bo'yicha muqobil yo'llarning taklif etilishi (max.1)	Xulosalarning aniq shakllantiril ganligi (max. 0,5)	Munozara jarayonida-gi faollik (max. 0,5)	Jami: (max. – 3,0)
1.					
2.					

## **KEYSNI HAL ETISH VA TAHLIL QILISH BO'YICHA KEYSOLOGNING JAVOB VARIANTI:**

### *Keysning muammosi haqida*

Asosiy muammo fermer xo'jaligida yalpi mahsulot hajmini ko'paytirish va mahsulotlar tovarlilik darajasini oshirish orqali fermer xo'jaligi iqtisodiy samaradorligini oshirishdan iborat.

Fermer xo'jaligida yalpi mahsulot hajmini ko'paytirish va tovarlilik darajasini oshirishda quyidagi muammolarga duch kelingan:

- fermer xo'jaligi rahbarining yoshi bilan bog'liq muammo;
- fermer xo'jaligida moddiy-texnika resurslarining yetishmasligi;
- yalpi mahsulot hajmini ko'paytirish va mahsulotlar tovarlilik darajasini oshirish mavjud imkoniyatlardan foydalanilmayotganligi.

### *Muammoni hal etish yo'llari:*

- fermer xo'jaligi rahbarining xorijda tahsil olib kelgan o'g'li o'z bilim va kuch-g'ayratini ishga solib, fermer xo'jaligi rivojiga hissa qo'shishi lozim;
- fermer xo'jaligining moddiy-texnika bazasini yuksaltirish talab etiladi, bunda shu sohani yaxshi tushunadigan Moliya vazirligida faoliyat yurituvchi farzandining bilimi va imkoniyatlaridan foydalanish kerak;
- Termiz shahriga yaqin joylashganligi sababli faoliyatini diversifikatsiyalashi zarur, ya'ni asosiy va takroriy ekin sifatida turli sabzavot va poliz mahsulotlari yetishtirishni yo'lga qo'yish kerak;
- fermer xo'jaligida meva va sabzavot mahsulotlari yetishtirishni ko'paytirish va ularni qisman saqlashni yo'lga qo'yish lozim. SHu orqali o'z mahsulotlarini yuqoriq narxlarda sotish orqali yalpi mahsulot hajmini oshirishga erishish mumkin;
- marketing tadqiqotlarini kuchaytirishi lozim;
- hukumatimiz tomonidan yaratib berilayotgan imkoniyatlardan foydalangan holda xo'jalikda yetishtirilgan qishloq xo'jalik mahsulotlarini xorijiy mamlakatlarga eksport qilishni yo'lga qo'yish va shu orqali fermer xo'jaligi faoliyatining iqtisodiy samaradorligini oshirish lozim.

### **1. Fermer xo'jaligida 2014 va 2015 yillardagi yalpi mahsulot hajmini aks ettiruvchi jadvalni to'ldiriting.**

Mahsulotlar	2014 yil	2015 yil
Paxta xom ashyosi	154700000	174384000
Bug'doy	143269500	159848000
Jami:	297969500	334232000

### **2. Fermer xo'jaligida yalpi mahsulotning omilli tahlili jadvalini to'ldiriting.**

Mahsulot	2014 yil	2015 yil	O'zgarish, + , -	SHu jumladan omillar hisobiga		
				Ekin maydoni o'zgarishi	Hosildorik o'zgarishi	Mahsulot narxi o'zgarishi
Paxta xom ashyosi	154700000	174384000	19684000	11900000	-19600000	27384000
Bug'doy	143041000	159640000	16578500	-10054000	7266300	19366200

**3. Fermer xo'jaligining yalpi mahsulot miqdorini ko'paytirish va uning tovarlilik darajasini oshirishni SWOT tahlil qiling.**

**“SWOT - tahlil” jadvali**

<b>S</b> (kuchli tomoni) a) Termiz shahriga yaqin joylashgan b)yosh, bilimli farzandlari bor v) avtomobil trassasiga yaqin joylashgan	<b>W</b> (kuchsiz tomoni) a) moddiy-texnika bazasi past b) yer maydonlari nasoslar yordamida sug'oriladi v) paxta ekini bo'yicha hosildorlik pasaygan
<b>O</b> (imkoniyatlari) a) faoliyatini diversifika-tsiyalash imkoniyati bor b) mahsulotini eksport qilish imkoniyatlari mavjud v) sotishni yanada takomillashtirishi mumkin	<b>T</b> (tahdidlar) a) noqulay ob-havoning yuzaga kelishi b) tashqi savdodagi tavakkalchilik v) faoliyati samaradorligining pastligicha qolishi

**4. Fermer xo'jaligida yalpi mahsulotning omilli tahlili jadvali va fermer xo'jaligining yalpi mahsulot miqdorini ko'paytirish va uning tovarlilik darajasini oshirish bo'yicha SWOT tahlili natijalaridan kelib chiqqan holda tegishli tavsiyalariningizni bering.**

Surxondaryo viloyati Termiz tumanidagi “Yangiariq” fermer xo'jaligining o'z yalpi mahsulotini yanada ko'paytirish va mahsulotlarining tovarlilik darajasini oshirish imkoniyatlari mavjud. Fermer xo'jaligi o'zining kuchli tomonlari va imkoniyatlaridan oqilona foydalansa, faoliyatini samarali tashkil etib, kelajakda eng namunali fermer xo'jaliklaridan biriga aylanishi mumkin.

###TITLE###

Innovatsiya iqtisodiyoti

###THEMES###

Innovatsiya iqtisodiyoti

### **“Innovatsiya iqtisodiyoti” fani qaysi fanlar bilan o’zaro aloqadorlikda o’rganiladi**

“Menejment”, “Falsafa”, “Axborot texnologiyalari”, “Xorijiy investitsiyalar”, “Marketing tadqiqotlari” va “Etika va estetika”  
+“Ilmiy tadqiqot metodologiyasi”, “Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning innovatsion modellari”, “Innovatsion marketing” va “Makroiqtisodiyot”  
“Informatika”, “Ehtimollar nazariyasi”, “Axborot tizimlari”, “Huquqshunoslik”, “Marketing” va “Mikroiqtisodiyot”  
“Ilmiy tadqiqot metodologiyasi”, “Informatika”, “Ehtimollar nazariyasi”, “Axborot tizimlari”, “Huquqshunoslik”

### **1990-yillarda ro’yxatga olingan patentlarning soni bo’yicha dunyoda yetakchi bo’lgan davlatni aniqlang**

Buyuk Britaniya

Yaponiya

Germaniya

+AQSh

### **Amaliy maqsadlarga erishish va muayyan vazifalarni hal qilish uchun yangi bilimlar qo’llashga yo’naltirilgan tadqiqotlar nima deyiladi?**

+amaliy-ilmiy tadqiqotlar

ilmiy-texnik faoliyat

fundamental ilmiy tadqiqotlar

eksperimental ishlanmalar

### **Bazis innovatsiyalarga nimalar kiradi?**

o’zlashtirilgan avlod texnika va texnologiyalarini tarqatish va takomillashtirish, mashina va materiallarning yangi modellarini yaratish, ishlab chiqarayotgan tovarlar (xizmatlar) ko’rsatkichlari va ularni ishlab chiqarish texnologiyalarini yaxshilash

+ishlab chiqarish tarmoqlari va quyi tarmoqlarida jiddiy, strukturaviy o’zgarishlarga olib keladigan yangi avlod mashina va materiallari, tamomila yangi texnika va texnologiyalar yaratish va o’zlashtirishga yo’naltirilgan innovatsiyalar

eskirgan texnikani (texnologiyani) qisman yaxshilash bo’yicha, jamiyat uchun samara

keltirmaydigan yoki salbiy samara beradigan faoliyat

tovarlar (xizmatlar) bozorida yangi mahsulot yaratishga olib keladigan ilmiy-texnik faoliyatning tijoratlashgan natijalari

### **Butunjahon intellektual mulk tashkiloti (BIMT)ning ma’lumotiga ko’ra har yili 1,5 million ixtiro tavsiya etiladi, shundan nechta ixtiro muhofaza hujjatini oladi**

900 ming

800 ming

600 ming

+500 ming

### **Butunjahon intellektual mulk tashkiloti (BIMT) BMTning nechta ixtisoslashgan muassasalaridan biridir**

15

+16

17

18

### **Butunjahon intellektual mulk tashkiloti (BIMT)ning shtab kvartirasi qayerda joylashgan**

AQShning Vashington shahrida

+Shvetsariyaning Jeneva shahrida

Avstriyaning Vena shahrida

Germaniyaning Myunxen shahrida

### **Butunjahon intellektual mulk tashkiloti (BIMT)ning asosiy boshqaruv organlarini ko'rsating**

Bosh assamблия, konferensiya, BIMT ekspertlar uyushmasi

Bosh assambleya, BIMT ekspertlar uyushmasi, muvofiqlashtirish qo'mitasi

Konferensiya, BIMT ekspertlar uyushmasi, muvofiqlashtirish qo'mitasi

+Bosh assamблия, konferensiya, muvofiqlashtirish qo'mitasi

### **Butunjahon intellektual mulk tashkiloti qachon tuzilgan**

1949 yil dekabръ oyida

1956 yil yanvar oyida

1961 yil aprel oyida

+1967 yil iyul oyida

### **Boshqaga o'tkazilmaydigan va topshirilmaydigai shaxsiy nomulkiy huquq qanday nomlanadi**

egalik huquqi

+mualliflik huquqi

ixtirochilik huquqi

fujqarolik huquqi

### **Davlatning innovatsion siyosati bu ...**

innovatsion faoliyat uchun mahalliy mahsulotlar raqobatbardoshligining o'sishi, fan-texnika

yutuqlaridan samarali foydalanish, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish masalalarini hal etishni

ta'minlaydigan iqtisodiy, huquqiy va tashkiliy sharoitlar yaratish

+ilmiy tadqiqotlar, ishlannmalar, tajriba-konstrukturlik ishlari yoki fan-texnika yutuqlaridan

foydalangan holda iqtisodiy aylanmaga kiritiladigan yangi texnologik jarayon, yangi mahsulot

yaratish tushuniladigan innovatsion faoliyatni rivojlantirish va rag'batlantirish

fan-texnika salohiyatini rivojlantirish, uni oqilona joylashtirish va samarali foydalanish, uning strukturasini shakllantirish

fan va texnikaning mamlakat iqtisodiyoti rivojiga, eng muhim ijtimoiy vazifalarni amalga

oshirishga, moddiy ishlab chiqarish sohasida ilg'or tarkibiy o'zgarishni ta'minlashga, uning

samaradorligi va raqobatbardoshligi o'sishi qo'shadigan hissasini oshirish

### **Eksport yoki importga litsenziya ... tomonidan beriladi**

ixtirochi

+davlat boshqaruv organi

bojxona

litsenziya organi

### **Eng yaxshi o'r ganilgan innovatsiyalar qaysi sohada bo'lган**

geologik

+texnologik

fizik

arxitektura

**EHM dasturlari va axborot bazasi qanday faoliyat natijasi hisoblanadi**  
+intellektual faoliyat natijalari  
iqtisodiy faoliyat natijalari  
ijtimoiy faoliyat natijalari  
kompyuter texnologiyasi

**Fan va texnika rivojlanishiga safarbar qilinayotgan mablag'larning necha foizi Yaponiya ulushiga to'qri keladi**

30  
+20  
40  
25

**Fan-texnika siyosatining muhim yo'nalishi bu ...**

+intellektual mulk huquqini himoya qilish  
milliy xavfsizlikni himoya qilish  
yangi texnologiya yaratish  
loyihalarni ishlab chiqish

**Fundamental ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirish shart-sharoitlari va resurslarining yig'indisi nima?**

innovatsion salohiyat  
ilmiy-texnika salohiyati  
+ilmiy salohiyat  
ilmiy, ilmiy-texnika va innovatsion salohiyat

**Fan, san'at, texnika, iqtisodiyot: bularning barchasi qanday mehnat turlari hisoblanadi?**

+intellektual mehnat  
jismoniy mehnat  
intellektual salohiyat  
huquqiy mehnat

**Fanga "Milliy innovatsion tizim" tushunchasini kim kiritgan**

1956 yilda Adam Smit  
1896 yilda Yozef Shumpeter  
+1987 yilda K.Frimen  
1875 yilda T.Kun

**Foydali modelga patent ... amal qiladi**

ustuvorlik sanasidan boshlab 10 yil mobaynida  
ustuvorlik sanasidan boshlab 15 yil mobaynida  
ustuvorlik sanasidan boshlab 20 yil mobaynida  
+ustuvorlik sanasidan boshlab 5 yil mobaynida

**Har qanday faoliyat sohasida amalga oshirilgan ilmiy yangilik ...**

strategiyadir  
+innovatsiyadir  
energetikadir  
ekologizatsiyadir

---

### **Innovatsion faoliyat nima**

yakunlanmagan ishlanmalarni nihoyasiga yetkazish jarayoni  
+yakunlangan ilmiy tadqiqot va loyihibar natijalari  
yakunlanmagan ilmiy tadqiqotlar natijalarini ijtimoiy-iqtisodiy sohalarda o'zlashtirishga  
yo'naltirilgan jarayon  
ilmiy hajmdor mahsulotlarni ishlab chiqarishni takomillashtirish, yangi yoki amaliyotda qo'llanib  
kelayotgan jarayon

### **Innovatsion faoliyat quyidagilarni o'z ichiga oladi**

+yangi g'oyalarni paydo bo'lishi va ularni amalga oshirishni  
yangi g'oyaning paydo bo'lishini  
yangi g'oyani amalga oshirishni  
innovatsiyaning texnik-iqtisodiy asoslashni

### **Innovatsion faoliyat subyektlari ... hisoblanmaydi**

innovatsiyalar amalga oshirishga kapital kirituvchi investorlar: banklar, fondlar, korporatsiyalar,  
lizing firmalari va h.k.  
innovatsion faoliyat bilan shug'ullanadigan yuridik va jismoniy shaxslar  
innovatsiyalarni amalga oshiruvchi turli mulkchilik shaklidagi innovatsion korxonalar  
+innovatsiyalar amalga oshirishga kapital kirituvchi investorlar: banklar, fondlar, korporatsiyalar,  
lizing firmalari va h.k.; innovatsion faoliyat bilan shug'ullanadigan yuridik va jismoniy shaxslar;  
innovatsiyalarni amalga oshiruvchi turli mulkchilik shaklidagi innovatsion korxonalar

